373.378
J-13

Onaxon Jabborova

# INDIVIDUAL YONDASHUV TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIM MENEJERLARINI TAYYORLASH METODIKASI

(MONOGRAFIYA)



373.378
J-13

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Onaxon Jabborova**

– 4465/3 nc –

# INDIVIDUAL YONDASHUV TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BOSHLANG'ICh TA'LIM MENEJERLARINI TAYYORLASH METODIKASI

(MONOGRAFIYA)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

**Chirchiq – 2023**

**«Zebo prints»**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

UO'K 373;378
KBK 74.26
J - 13

**Jabborova O. M. / Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasi / Monografiya.** – Chirchiq: «Zebo prints», 2023. – 120 bet.

Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim jarayoni bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash ko'lami bo'yicha kengayib bormoqda va bunda sifatli ta'limga erishish asos bo'lmoqda. Shu jihatdan mazkur monografiyada individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasining nazariyasi, uning metodologik asoslari va mexanizmlari masalalari tahlil qilib berilgan. Monografiyani tayyorlashda o'qitishning kredit-modul tizimi talablari hisobga olindi va monografiya boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari, amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va muammo bilan qiziquvchi keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**

Mardonov Shukurullo Qo'ldoshevich, pedagogika fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna, pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc)

Jumanova Fotima Uralovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dosent

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik Kengashi tomonidan 2023 yil 4 apreldagi 6-sonli majlisida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9635-1-1

© Jabborova O. M., 2023
©«Zebo prints», 2023



## MUNDARIJA

| | |
|---|---|
| KIRISH | 4 |
| I BOB. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash nazariyasi | 5 |
| 1.1.Individual yondashuv texnologiyasi mazmuni | 5 |
| 1.2.Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning nazariy xususiyatlari | 15 |
| 1.3.Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash zaruriyati | 29 |
| II BOB. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodologiyasi | 37 |
| 2.1. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiyasi asosida tayyorlashning maxsus kurs metodikasi | 37 |
| 2.2. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiyasi asosida tayyorlashning amaliy to'garak metodikasi | 47 |
| III BOB. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanish mexanizmlari | 59 |
| 3.1. O'quv fanlarini o'qitish jarayonida foydalanish mexanizmi | 59 |
| 3.2. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mexanizmi | 71 |
| 3.3. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv asosida tayyorlashning Ustoz-shogird metodikasi | 83 |
| IV BOB. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli yo'nalishlari | 92 |
| 4.1. Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli nazariy yo'nalishlari | 92 |
| 4.2. Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli amaliy yo'nalishlari | 100 |
| Xulosa | 105 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati | 107 |
| Ilovalar | 108 |

## Kirish

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida boshlang'ich ta'limda sifatli samaradorlikka erishish maqsadlari belgilangan. Mazkur maqsadlarni amalga oshirishda boshlang'ich ta'lim boshqaruvini ham yangicha asoslarda tashkil etish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'lim boshqaruvi qonunchilik va me'yoriy – huquqiy hujjatlarga asosan amalga oshirilsa mazkur ta'lim bosqichining sifat samaradorligi kuchayadi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash yoki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'shimcha menejerlik klassifikasiyasini berish muhim ahamiyatga ega. Chunki menejerlik – bu boshlang'ich ta'limni uning mazmuni, vazifalari hamda istiqbolli rivojlantirish asoslariga binoan nazariy, metodik hamda amaliy boshqaruvni ta'minlovchi kasbiy kompetensiyadir. Bugungi kunga qadar boshlang'ich ta'lim umumiy yo'nalishda umumiy o'rta ta'lim maktab pedagogik Kengashi va maktab direktori tomonidan boshqarilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni bilan 2023 yil 1 yanvardan boshlab maktab menejerlari lavozimi joriy etildi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim menejerlarini ham tayyorlash mazkur Farmonning ijrosini ta'minlashda va boshlang'ich ta'limni sifat ko'rsatkichlarini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqotda ana shu masalalar batafsil tahlil qilingan.

Monografiyada individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash nazariyasi, metodikasi va mexanizmlari yoritildi.

Monografiyaga doir fikr-mulohazalaringizni kutib qolamiz.



## I BOB. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash nazariyasi

### 1.1. Individual yondashuv texnologiyasi mazmuni

O'zbekistonda oliy pedagogik ta'limni turli yondashuvlar asosida tashkil etish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bundan maqsad Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida sifatli ta'limga erishishdir. Shu jihatdan individual yondashuv texnologiyasi mana shunday turli yondashuvlarning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektorining 2023 yil 21 fevraldagi 01-17-son buyrug'i bilan individual yondashuv texnologiyasi universitet ilmiy-tadqiqot ishlarining strategiyasi sifatida belgilanadi. Shu jihatdan bu o'rinda e'tiboringizni *individual yondashuv texnologiyasi mazmuni* tahliliga tortamiz.

1. ***Individual yondashuv texnologiyasiga yakka tartibda shug'ullanish xususiyati.*** "Individual" tushunchasi lotincha bo'lib, yakka tartibda yolg'iz va maxsus shug'ullanish ma'nolarini bildiradi.[1] Aynan shu sababli individuallashtirilgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan o'quv va tadqiqot shakli bo'lib, unda har bir ta'lim oluvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etadi. Mana shu jihati bilan individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Chunki unda yakka tartibda shug'ullanish ta'lim oluvchilarni faollashtiradi, ta'lim beruvchilarning uslubiy yondashuvini kuchaytiradi va ta'lim oluvchilarning o'quv-biluv malakasi asosiy diqqat markazida bo'ladi.

Individual yondashuv texnologiyasining yolg'iz shug'ullanish xususiyati shundaki, unda bir ta'lim oluvchi bilan shug'ullanishda bir necha ta'lim beruvchi yoki ta'limni amalga oshiruvchi jamoa ishtirok etadi. Mana shu yolg'iz shug'ullanish shakli ta'lim oluvchilarning qiziqishlari, xohish-istaklari va kasb-hunarga bo'lgan munosabatlarini aniqlashda muhim imkoniyatlarni beradi. Shu

[1] Hasanboyev J.va boshq.Pedagogika fanidan izohli lug'at.-Toshkent,2009.171-bet.

sababli pedagogika tajribasida mana shunday yolg‘iz tartibda shug‘ullanish masalasiga alohida e’tibor berib kelinmoqda.

Individual yondashuv texnologiyasining yakka tartibda shug‘ullanish xususiyatida shuningdek, maxsus yondashuv ham mavjud. Unga ko‘ra, har bir ta’lim oluvchiga davlat ta’lim standartlari va malaka talablaridan kelib chiqib maxsus yondashiladi. Bunda asosiy maqsad ta’lim oluvchilarning ta’lim va tarbiyaga doir huquqlarini jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan ro‘yobga chiqarishdir.

Diqqat qilinsa, mazkur texnologiyaning mazmunini tashkil etuvchi yakka tartibda shug‘ullanish xususiyati markazida ta’lim oluvchi turadi. Bu hol ta’lim oluvchining bilim va ko‘nikmalarini kutilgan darajada tarkib toptirish imkoniyatlarini beradi.

2. ***Individual yondashuv texnologiyasining o‘ziga xoslik xususiyati***. Mazkur texnologiyaning o‘ziga xoslik xususiyati, ta’lim oluvchi bilan istalgan vaqtda va muddatsiz shug‘ullanish bilan belgilanadi. Unda ta’lim oluvchining imkoniyatlaridan kelib chiqib nazariy, amaliy va metodik mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Bunda mashg‘ulotlarning shakli rang-barang bo‘lishiga e’tibor qaratilib, qaysi mashg‘ulot shakli amaliy samara bersa, shu mashg‘ulot turi tanlanadi.

Keyingi paytlarda ijtimoiy murakkab sharoitlar sababli mamlakatimiz ta’lim tizimiga ta’limning masofaviy va onlayn shakllari joriy etila boshlandi. Ta’limning bu shakllari aslida individual yondashuv texnologiyasining asoslaridan hisoblanadi. Unga ko‘ra, masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan kelib chiqib, butun mamlakat miqyosida har bir ta’lim oluvchi bilan individual shug‘ullanish imkoniyatlariga ega bo‘linadi. Onlayn shakldagi ta’limda esa bevosita kompyuter, TV, radio kabi texnik vositalarning imkoniyatlariga tayangan holda ta’lim oluvchilar bilan vertual ta’limda shug‘ullaniladi. Ta’limning bu shakllari qiziqarliligi va demokratik qadriyatlarga asoslanishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Individual yondashuv texnologiyasining o‘ziga xoslik xususiyatida shuningdek, ta’lim beruvchilarning faol bo‘lishi ham taqozo etiladi. Chunki ta’lim



beruvchilar o‘quv materiallarini avvaldan va yangi ma’lumotlar asosida tayyorlashi, ularni ta’lim oluvchilarga o‘z vaqtida yetkazishi hamda maxsus testlar vositasida ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasini nazorat qilib borishi muhim hisoblanadi. Shu sababli keyingi paytlarda darsliklarning elektron shakllariga va ularning imkoniyatlariga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

E’tibor berilsa, individual yondashuv texnologiyasining o‘ziga xoslik xususiyatlarida ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilarning teng faol bo‘lishi diqqat markazida bo‘ladi. Bu hol pedagogik tajribalarda muhim omillardan biri sifatida hisobga olib kelinmoqda.

3. ***Individual yondashuv texnologiyasining amaliylik xususiyati***. Individual yondashuv texnologiyasining amaliylik xususiyati unda pedagogik va psixologik metodlarning keng hamda uyg‘un qo‘llanishi bilan belgilanadi. Pedagogik metodlarning tushuntirish, izohlash, sharhlash va yo‘naltirish kabi xususiy metodlari individual yondashuv texnologiyasining amaliylik jihatlarini belgilaydi. Psixologik metodlarning ishontirish, ruhiy ko‘niktirish, murakkab holatlardan chiqib ketishga yo‘naltirish kabi xususiy metodlari individual yondashuv texnologiyasining amaliy omillaridan hisoblanadi. Shu sababli individual yondashuv texnologiyasida amaliylik xususiyati mavjudligi mazkur texnologiyaning negizlaridan birini tashkil etadi.

Individual yondashuv texnologiyasining amaliylik xususiyatida ta’lim jarayonini pedagogik tashkil etish va boshqarish omillari ham mavjud. Bunda ta’lim va tarbiya jarayoni pedagogik qonuniyatlar asosida tashkil etiladi va bu jarayon ta’limga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida boshqarib boriladi. Shu jihatdan individual yondashuv texnologiyasida amaliylik muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

E’tibor berilsa, individual yondashuv texnologiyasining amaliylik xususiyatlari mazkur ta’lim shaklining pedagogik tajribalarda muhim o‘rin tutishini belgilaydi.

Individual yondashuv texnologiyasi bo‘yicha milliy pedagogikamiz tarixida har bir ta’lim oluvchi bilan maxsus shug‘ullanish va ta’lim oluvchilarning sonini 5

nafardan oshirmaslik an'anasi asrlar davomida mavjud bo'lib kelgan.[2] Misol uchun, Abu Ali Ibn Sinoga (XI asr) boshlang'ich va o'rta maxsus ta'limni enagasi bergan. Ibn Sinoning eslashicha, u 14 yoshlarida enagasiga deydi: "negadir yoshligimda ko'zimga osmon chizich-chiziq holatda ko'rinar edi". Enagasi deydiki, "Siz 3-4 yoshlaringiz vaqtida uxlaganingizda yuzingizni to'r bilan to'sib qo'yar edim". Demak, Ibn Sino 3-4 yoshliklaridagi holatni eslashi bilan kuchli xotiraga ega ekanligini namoyon qilmoqda. Bu hol uning enagasining individual ta'lim-tarbiyasi hosilasi edi. Shu jihatdan milliy pedagogikamiz tarixida individual yondashuv vositasida ta'lim oluvchilarning xotirasi, tafakkuri va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini kutilgan darajada shakllantirishga erishilgan. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy (XX asr) o'g'li Mas'udga 6 xorijiy tilni o'rgatgan va u "Katta jug'rofiya kitobi" asarida yozishicha, o'g'li Mas'ud bilan shug'ullanish jarayonida milliy pedagogikamizning xususiy metodlarini tajribadan o'tkazgan. Shu sababli jadid pedagogi yangi tashkil etilgan jadid maktablarining har bir sinfida o'quvchilarning 12 nafardan oshmasligini tavsiya qilgan.

Ma'lum bo'ladiki, oliy pedagogik ta'lim jarayonida individual yondashuv texnologiyasini joriy etish vositasida talabalarning kurslar kesimida miqdorini maqbullashtirib borish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarining imkoniyatlari yetarli ekanligini eslatib o'tish joiz.

Individual yondashuv texnologiyasi bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ham o'ziga xos tajribasi mavjud.[3] Bunday tajribalar har bir mamlakatning ta'lim ehtiyojidan kelib chiqib shakllantirilgan. Misol uchun, Finlandiyada har bir o'qituvchi ko'pi bilan 12 nafar ta'lim oluvchi bilan shug'ullanadi va bu hol har bir ta'lim oluvchi bilan maxsus shug'ullanish imkoniyatini beradi. Germaniyada individual ta'lim pulli asosda amalga oshiriladi va unda ta'lim oluvchining imkoniyatlaridan kelib chiqib ta'limning pullik miqdori belgilanadi. Fransiyada har bir professor-o'qituvchining maxsus kurslari vositasida individual ta'lim amalga oshiriladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim oluvchilarning takliflariga asosan

[2] O'zbek pedagogik antologiyasi.-Toshkent,1993.
[3] Bordovskaya N.,Rean A.Pedagogika.Sankt-Peterburg.2001



individual ta'lim amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilar muayyan ta'lim bosqichida xohlagan muddatgacha o'qishi mumkin. Bularning barchasi har bir mamlakatda individual ta'lim bo'yicha o'zining tajribasi mavjudligini ko'rsatadi.

Individual yondashuv texnologiyasi ta'lim va tarbiya muammolarini ilmiy tadqiq etib borish bilan ham o'ziga xos xususiyatga ega hisoblanadi. Bunda ta'lim va tarbiyaning tezkor asosda hal etilishi mumkin bo'lgan muammolari bo'yicha qisqa muddatli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. Shu jihatdan ta'lim muassasasi o'rta maxsus yoki oliy pedagogik ta'lim muassasalariga muayyan muammoni hal etishning nazariy va metodik asoslari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish taklifini bildirishi mumkin. Chunki eng asosiy va amaliy muammolar ta'limning quyi bosqichlarida tarkib topadi.

Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash nazariyasida individual yondashuv texnologiyasining o'ziga xos tarkiblarini belgilab olish taqozo etiladi. Chunki mazkur masala umumiy individual yondashuv texnologiyasining xususiyatlaridan farqli o'laroq boshlang'ich ta'lim vazifalaridan kelib chiqishi va aynan mana shu mezonga asosan individual yondashuv texnologiyasining bo'lajak menejerlarni tayyorlashdagi mezonlari aniqlanadi. Chunki bunday mezonlar boshlang'ich ta'lim jarayonini boshqarishda menejerlarni tayyorlashning muhim tayanchlaridan hisoblanadi. Shu jihatdan ushbu mezonlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

a) shaxsiy individual yondashuv mezoni;

b) guruhli individual yondashuv mezoni;

v) jamoaviy individual yondashuv mezoni.

Individual yondashuv texnologiyasida shaxsiy yondashuv mezoni boshlang'ich ta'lim menejerlik asoslarining muhim negizlaridan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari boshqaruv asoslari bo'yicha o'zlarining shaxsiy individual yondashuviga ega bo'lishi kerak. Misol uchun, boshlang'ich ta'limga oid biror muammoni hal etishda boshlang'ich ta'lim menejerining o'z fikriga ega bo'lishi, bu fikrni himoya qila olishi va aynan ana shunday mas'uliyatni

his qilgan holda muammoni hal qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" davlat dasturida o'quvchilarning ota-onalarini ta'lim va tarbiya jarayonidagi faolligini oshirish vazifasi qo'yilgan. Chunki ko'pgina ota-onalar o'z farzandlarining ta'lim va tarbiya jarayonida duch keladigan muammolarini o'qituvchilar yoki maktab jamoasi zimmasiga yuklashga intiladi. Bunday holatlarda boshlang'ich ta'lim menejeri o'zining shaxsiy yondashuviga asosan ota-onalar, o'qituvchilar va maktab jamoasi o'rtasida muammoning yechimini hal qilishi taqozo etiladi. Negaki boshlang'ich ta'lim menejeri ayni paytda yakkaboshchilik asosida boshqaruvni amalga oshiruvchi shaxs sifatida o'z shaxsiy yondashuvlarini himoya qilish huquqiga ega. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari ana shu shaxsiy individual yondashuv mezonlari bilan qurollanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Individual yondashuv texnologiyasida boshqaruv jarayonida guruhli yondashuvning ham ahamiyati muhimdir. Bunda menejerlar guruhi, ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich ta'lim bosqichi menejerlari hududlar kesimida boshlang'ich ta'lim boshqaruviga oid jarayonni baholashda guruhli yondashuv mezoniga amal qiladi. Bunday yondashuvda boshlang'ich ta'lim xususiyatlari, uning ta'lim bosqichlarida tutgan o'rni va o'quvchilarning savodxonlik darajasi ko'rsatkichlariga ko'ra baholash amalga oshiriladi. Buning natijasida muayyan hududlardagi boshlang'ich ta'lim tajribasi aniqlanadi yoki o'zga bir hududdagi boshlang'ich ta'limga oid muammolar to'g'risida ma'lumot to'planadi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim menejerlik asoslarida guruhli yondashuv mezoni mazkur ta'lim bosqichi boshqaruvining istiqbolli tayanchlaridan biri sifatida qabul qilinadi. Misol uchun, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda mamlakatimizning eng chekka hududlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich ta'limida o'ziga xos tajribalar tarkib topgan va bu tajribalar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyati hosilasi hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim boshqaruvini guruhli yondashuv asosida baholanganida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyati va ularning ko'rsatkich samaradorliklari asos sifatida



olinadi. Natijada muayyan boshlang'ich ta'limda yuzaga kelgan tajribalar tabiiy asoslarga ko'ra o'zlashtiriladi. Bu hol boshlang'ich ta'lim menejerligida direktiv, ya'ni ko'rsatma tarzidagi boshqaruv turiga nisbatan aniqligi va tabiiyligi bilan ajralib turadi.

Boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslarida individual yondashuvning jamoaviy mezonlari ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'lim jarayoni va uning boshqaruvi maktab jamoasi tomonidan jamoaviylik mezonlariga asosan kuzatib boriladi. Bu o'rinda maktab Pedagogik kengashining ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Chunki maktab pedagogik kengashi nafaqat boshlang'ich ta'lim boshqaruv jarayonini, balki menejerlik faoliyatini ham kuzatib borish huquqiga ega hisoblanadi. Bu o'rinda kuzatuv tushunchasiga alohida e'tibor berish kerak va unda nazorat tushunchasidan farqli o'laroq jamoa ishtirokida jarayonni o'rganib borishga diqqat qilinadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim menejeri ham o'z faoliyatining jamoaviy mezon asosida baholab borilishini idrok etadi va buning natijasida o'z faoliyatida jamoaning fikri bilan ham munosabatga kirishish qiodasiga amal qilishi tarkib topadi. Menejer yakka boshchilik asosida faoliyat yuritadi, lekin u jamoaviy individual yondashuv mezonlariga asosan Pedagogik kengash jamoasiga hisobot berishi me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilab qo'yilgan. Aynan bu hol boshlang'ich ta'lim menejerining o'z faoliyatida yakkaboshchilik va jamoaviy uyg'unligiga amal qilish ko'nikmasini taqozo etadi. Bularning barchasi oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Individual yondashuv texnologiyasining boshqaruvdagi tadbiqi o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bunda boshqaruv asoslarining tamoyillariga tayangan holda individual yondashuv xususiyatlari tarkib toptiriladi. Shu jihatdan individual yondashuv texnologiyasining boshqaruvdagi xususiyatlarida quyidagi tamoyillar muhim o'rin tutadi:

a) yakkaboshchilik;

b) ilmiylik;

v) amaliylik.[4]

Individual yondashuv texnologiyasining boshqaruvidagi asosiy tamoyili bu – yakkaboshchilikdir. Unga ko'ra, boshqaruv yakka shaxs tomonidan individual asosda amalga oshiriladi va bunda boshqaruvchi o'zining faoliyati bo'yicha yakka tartibda hisobdor hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, menejment xususiyatlaridan farqli o'laroq menejerlik asoslarida boshqaruvda yakkaboshchilik tamoyiliga asoslanish ustuvor darajada aks etgan. Misol uchun, menejment muayyan boshqaruv qarorini qabul qilishda ko'p hollarda jamoaning fikrlariga asoslanadi, menejer esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda o'zining individual yondashuviga tayanadi. Shu jihatdan menejmentga nisbatan menejerning mas'uliyati yuqori hisoblanadi. Chunki qabul qilinayotgan qaror muammoning yechimini to'g'ri aks ettirishi, boshqariluvchi jamoaning manfaatlarini ifodalanishi va asoslarga ega bo'lishi kerak. Ayni paytda, menejerlikning mas'uliyati uning faoliyati uchun yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Negaki menejer yakkaboshchilik asosida qaror qabul qilsa-da, biroq boshqaruv faoliyatining samarasi uchun barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Shu sababli keyingi paytlarda menejmentlar bilan bir qatorda menejer mutaxassislarini tayyorlash ishiga e'tibor berilmoqda. Shu jihatdan bu o'rinda bizning yondashuvimizga ko'ra, yakkaboshchilik va mas'uliyat tamoyillariga asosan faoliyat yurituvchi menejer boshqaruvchilarni ta'lim boshqaruvi jarayoniga jalb etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ta'lim va tarbiya jarayonining muntazam yangilanib borishi vaziyatida boshqaruvchi mas'uliyatni to'liq o'z zimmasiga olishi kerak.

Individual yondashuv texnologiyasining boshqaruv xususiyatlaridagi yana bir tamoyili bu – ilmiylikdir. Bu tamoyilga ko'ra, menejerlar har bir faoliyat bo'yicha ilmiy asoslangan ma'lumotlar, manbalar va axborotlar majmuiga asoslanadi. Buning natijasida ularning boshqaruv faoliyatida xolislik tarkib topadi. Chunki yakkaboshchilik asosida boshqaruvni amalga oshirish ilmiy asosga ega bo'lmasa, qabul qilinayotgan qarorlarning ijtimoiy ahamiyati pasayadi. Shu sababli eng

[4] Raximova D.Menejment asoslari.-Toshkent,2021.



avvalo menejerlar o'zlarining individual yondashuvlari asosida boshqaruvning ilmiy asoslarini chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi. Bunda ma'lumotlar va axborotlarning haqqoniy bo'lishi, tanlanayotgan faoliyatning aniq tamoyillarga asoslanishi va qabul qilinayotgan qarorlarning sharoitlarga mos bo'lishi masalalari muhim o'rin tutadi. Buning natijasida menejerlarning faoliyatida ilmiylikka asoslanish tarkib topadi va bu hol pedagogik boshqaruv uchun eng muhim tayanchlaridan biridir. Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayoni boshqaruvida ilmiylik tamoyiliga asosan faoliyat yuritadigan menejerlar boshqaruvini tadbiq etish bugungi kunda dolzarb bo'lib turibdi.

Ta'lim jarayonini boshqarish boshqa sohalarga nisbatan murakkab hisoblanadi. Chunki ta'lim va tarbiya jarayoni muntazam dinamik rivojlanib boruvchi xususiyatlarga ega. Bu hol mazkur sohani boshqarishda amaliylik tamoyiliga qat'iy e'tibor berishni taqozo etadi. Bu tamoyilga ko'ra, yakkaboshchilik va ilmiylik tamoyillariga asosan boshqaruvni amalga oshirish natijasida asosiy maqsad amaliylikka erishishdan iborat bo'ladi. Bunda boshqaruvning samaradorligi, asosligi va istiqbolni belgilovchi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratiladi. Natijada amaliy samaradorlik, asosiylik va istiqbollilik natijalariga ko'ra menejerlar faoliyatini baholash uchun asos hisoblanadi. Mazkur masala ayniqsa, ta'lim jarayonini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Chunki ta'lim jarayonini boshqarishning so'nggi natijasi amaliy samaradorlik bilan baholanadi.

E'tibor berilsa, individual yondashuv texnologiyasi asosida ta'lim jarayoni boshqaruvida menejerlarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Chunki menejerlar yakkaboshchilik, ilmiylik va amaliylik tamoyillariga asosan boshqaruvni amalga oshirishi bilan ta'lim va tarbiya jarayonini rivojlanishi uchun muhim omillarni yuzaga keltiradi.

Individual yondashuv texnologiyasi asosida menejerlik faoliyatini yo'lga qo'yishda mazkur boshqaruv faoliyatining vositalari ham muhim o'rin tutadi. Bunday vositalarning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

a) an'anaviylik;

b) zamonaviylik;

v) uyg'unlik.

Ta'lim jarayoni boshqaruvida individual yondashuv texnologiyasining an'anaviy vositasida menejment tajribalariga asoslanish, sinovdan o'tgan vositalarni qo'llash va eng ilg'or yondashuvlarga tayanish amalga oshiriladi. Chunki an'anaviylik vositasi ta'lim boshqaruvining tajribalarini hisobga olish, bu boradagi asrlar davomida sinovdan o'tgan metodlarni qo'llash va menejerlarning boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirib borishga asoslanadi. An'anaviylik vositasi muqimlashgan shakl sifatida xorijiy mamlakatlarning ta'lim menejerlari yo'nalishlarida keng qo'llaniladi. Shu sababli bu vositada boshqaruvda vorisiylik an'anasiga asoslaniladi. Pedagog olimlarning fikricha, boshqaruvdagi an'anaviylik vositasi ta'lim va tarbiya jarayonini milliy rivojlantirish imkoniyatlarini beruvchi muhim omillardan biridir. Demak, menejerlar faoliyatida aynan pedagogik boshqaruv faoliyatida an'anaviylik vositasiga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Individual yondashuv texnologiyasi asosida ta'lim jarayonida menejerlik faoliyatini tashkil etishda zamonaviylik vositasi ham muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, ta'lim jarayonini boshqarishda bugungi kun talablari, ta'lim va tarbiyaning qat'iy qoidalari hamda jamiyatning extiyojlariga asoslaniladi. Shu jihatdan ta'lim menejeri faoliyatini zamonaviylik vositasi aynan bugungi kun muammolarini hal etish, ta'lim va tarbiya jarayonidagi istalmagan muammolarni oldini olish, tajribali o'qituvchilar va ta'lim beruvchilar bilan birgalikda maslahatlar uyushtirish omillariga tayanadi. Zamonaviylik menejerlar faoliyatining bugungi kun talablarini amalga oshirishdagi eng muhim yondashuvlardan biri sanaladi. Chunki bu vosita yangi g'oyalarni, yangi metodikalarni va yangi texnologiyalarni ta'lim boshqaruviga tadbiq etishi bilan muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan menejerlik faoliyatida zamonaviylik vositasi asosida uning pedagogik va amaliy samaradorligi baholanadi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni boshqaruvida individual yondashuv texnologiyasining navbatdagi vositasi bu – uyg'unlikdir. Bu vositaga ko'ra,



boshqaruv rejalari va tadbirlari, muammolarni hal etish yondashuvlari va istiqbolli mo'ljallar uyg'unlashgan bo'lishi kerak. Aks holda, ta'lim jarayoni boshqaruviga menejerlar faoliyatining amaliy samaradorligini xolis baholash murakkab kechadi. Shu jihatdan uyg'unlik vositasi ta'lim menejerlarining boshqaruv tajribasi, texnologiyasi va kompetensiyalarini rivojlantirib boruvchi muhim imkoniyatlarni beradi. Tajriba, qulay tenologiya hamda malakali kompetensiyalarga ega bo'lish menejerlarning boshqaruv faoliyatidagi birlamchi vositalardan hisoblanadi.

Diqqat qilinsa, individual yondashuv texnologiyasi asosida ta'lim jarayonini boshqarish vositalari mohiyat-e'tibori bilan menejerlar faoliyatining asoslarini belgilaydi. Shu sababli mazkur masala nazariy va metodik jihatdan tadqiq etish dolzarb bo'lib turibdi. Bularning barchasi oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Shunday qilib individual yondashuv texnologiyasi o'ziga xos mazmunga egaligi bilan muhim ahamiyatga ega. Bizni bu o'rinda individal yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasi muammosi qiziqtirishini eslatib o'tamiz.

### 1.2. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning nazariy xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan umumiy o'rta ta'lim maktablarida direktor lavozimlari o'rniga menejerlik lavozimi ta'sis etildi. Bunda 2023 yil 1 yanvardan boshlab, faoliyat samaradorligiga ega maktab direktorilari maxsus kurs vositasida o'qitilib ularga menejerlik sertifikatini berish joriy etilgan. Shu jihatdan individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash va uning nazariy xususiyatlari muammosini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. ***Menejerlik mazmuni***. "Menejer" tushunchasi lotincha bo'lib, o'rgataman, boshqaraman va yo'naltiraman ma'nolarini anglatadi. [5] Bugungi kunda mazkur tushuncha asosan *boshqaruvchi* ma'nosida ishlatiladi. Unga ko'ra, menejer muayyan sohani yakka tartibda va qonunchilik asosida boshqaradi hamda belgilangan jamoa oldida hisobot beradi. Yakka tartibda boshqarish deganda muayyan sohaning muammolarini mustaqil hal qilish, uning rivojlanishini ta'minlash va faoliyatini baholash tushuniladi. Shu jihatdan menejerlik lavozimi bugungi kunda ta'lim jarayoni muammolarini yakka tartibda, tezkor va qonunchilik asosida hal qilib borish imkoniyatlarini beradi.

Xorijiy mamlakatlarda menejerlar yo'llanma boshqaruvchi, maxsus boshqaruvchi va erkin boshqaruvchi turlariga ega. Bunda yo'llanma boshqaruvchi muayyan muddat bir sohani muammosini hal qilish uchun tashkiliy ishlarni amalga oshiradi. Boshqaruvchi esa muayyan sohada 5 yil muddatgacha tashkiliy, boshqaruv va nazorat ishlarini amalga oshiradi. Erkin boshqaruvchi esa muayyan sohani jamoa bilan birgalikda belgilangan muddat davomida tashkiliy jihatdan boshqaradi. Shu sababli mamlakatimiz ta'lim jarayoniga boshqaruvchi menejerlarni tayyorlash masalasiga e'tibor qaratilmoqda.

Boshqaruvchi, ya'ni menejer ta'limni muayyan turini yoki bosqichlarini tashkil etadi, boshqaradi va nazorat qiladi. Buning uchun uning asosiy vazifasi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yiladi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, muayyan ta'lim bosqichini yoki turini boshqarishda menejerning pedagog bo'lishi shart emas va aksincha, u mavjud qonunchilik asosida ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning huquqlariga rioya qilishi bilan pedagogik faoliyat ko'rsatgan hisoblanadi. Chunki menejerning eng muhim vazifasi ta'lim va tarbiya muammolarini tezkor va sifatli hal qilishdir.

E'tibor berilsa, menejerlik ko'nikmasiga ega bo'lish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini kengaytirish imkoniyatlarini beradi. Shu sababli bizning fikrimizcha, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak

[5] Hasanboyeva J.va boshq.Pedagogika fanidan izohli lug'at.-Toshkent,2009.307-bet



boshlang'ich sinf o'qituvchilarining menejerlik ko'nikmalarini tarkib toptirish ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kelgusida Sinf rahbari, Murabbiy va boshlang'ich ta'limni boshqarish ishlari bilan ham shug'ullanishi mumkin. Buning uchun yangicha asosdagi menejerlik ko'nikmalariga ega bo'lish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyatini kuchaytiradi.

Individual yondashuv texnologiyasi asosida ta'lim menejerligini tashkil etish uchun umumiy menejerlik asoslaridan tashqari bu o'rinda bizni boshlang'ich ta'lim menejerligi bo'yicha xususiyatlar qiziqtiradi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim menejerligida individual yondashuv texnologiyasining quyidagi tamoyillariga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) individuallik;

b) huquqiylik;

v) tezkorlik.

Boshlang'ich ta'lim menejerligida individual yondashuv texnologiyasining individuallik tamoyilini tadbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu tamoyilga ko'ra, boshlang'ich ta'limning xususiyatlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanish jarayoni va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat asoslariga binoan boshqaruv amalga oshiriladi. Chunki boshlang'ich ta'lim boshqaruvi umumiy va farqli xususiyatlarga ko'ra ta'lim tizimi boshqaruvi uslublaridan farq qiladi. Misol uchun, yuqori sinf o'quvchilarini o'zlashtirganlik darajasini boshqarishda menejer butun faoliyat asoslariga tayanadi. Biroq, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish jarayonini boshqarishda nisbiylik yondashuviga asoslanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari muntazam rivojlanish jarayonida bo'ladi va ularning o'zlashtirganlik ko'rsatkichlari o'zgaruvchan xususiyatlarga egaligi bilan farqlanadi. Shu jihatdan individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlik faoliyatini tashkil etish uchun individuallik tamoyiliga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Individual yondashuv texnologiyasi asoslangan boshlang'ich ta'lim menejerligida navbatdagi muhim tamoyillardan biri bu – huquqiylikdir. Mazkur tamoyiliga ko'ra, boshlang'ich ta'lim boshqaruvi jarayonida ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning huquqlari ustuvor darajada hisobga olinadi. Bunda menejer huquqiylik tamoyiliga amal qilishi bilan ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning manfaatlarini ro'yobga chiqarish faoliyati bilan namoyon bo'ladi. Menejerlar faoliyatida huquqiylik asoslarini ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning huquqlarini ro'yobga chiqarishdir. Turli tadbirlarni amalga oshirish, boshlang'ich ta'lim asoslari bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish va boshlang'ich ta'limga oid qonunchilikning ijrosini nazorat qilish kiradi. Bu bilan ta'lim va tarbiya jarayonida qonuniylik ta'minlanadi va raqamli texnologiya sharoitida ta'lim sifatini oshirishning huquqiy asoslari tarkib topib boradi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur masalalar bo'yicha metodik ishlanmalar yaratish dolzarb bo'lib turibdi.

Ta'lim jarayoni boshqaruvida kundalik muammolarni hal etishning eng muhim tamoyillaridan biri bu tezkorlikdir. Chunki ta'lim va tarbiya jarayonida muntazam ravishda tezkor xarakatlar vositasida muammolarni xal etib borish, buning uchun jamoani faollashtirish va muammo asoslarini muntazam kuzatib borish taqozo etiladi. Chunki ta'lim jarayoni kundalik rivojlanish xususiyatiga ega bo'lib, unda muammolar va yutuqlarning uyg'un namoyon bo'lishi kuzatiladi. Ta'limni boshqarishni hozirgi amaldagi shakli jamoaviylikka asoslanganligi uchun muayyan muammoni hal etishda muddat talab qiladi. Yakka boshchilik boshqaruviga asoslangan menejerlik faoliyatida esa muammo bir shaxs tomonidan tezkor hal etilishi me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Shu sababli Yevropa mamlakatlari va AQSHda ta'lim tizimi ko'p hollarda menejerlar tomonidan boshqariladi. Bunda yagona talab sifatida menejerning demokratik qadriyatlarga amal qilishi belgilab qo'yilgan. Shu sababli bunday tajribalarni o'rganib borish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.



E'tibor berilsa, menejerlik faoliyati tamoyillari mazkur boshqaruv faoliyati mazmunini yaqqol namoyon qiluvchi talablar majmuidan iborat.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, menejerlik faoliyatida muayyan vositalarga asoslanish ham muhim o'rin tutadi. Bunday vositalarning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

a) maqsadlilik;

b) maslahatchilik;

v) ochiqlik.

Menejerlik faoliyati asoslarida maqsadlilik vositasi muhim omillardan biri bo'lib, unga ko'ra, ta'lim tizimi boshqaruvini barcha yo'nalishlar bo'yicha albatta, maqsad qo'yiladi. Bu yo'nalishlarning eng muhimlaridan boshlang'ich ta'limning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, boshlang'ich ta'lim muammolarini oldini olish, yutuqlarni targ'ibot qilish va muvaffaqiyatga erishayotgan boshlang'ich ta'lim ishtirokchilarini rag'batlantirib borish tashkil etadi. Shu sababli menejerlik tajribasiga ko'ra, eng avvalo maqsadlar belgilanib, ular asosida vazifalar ishlab chiqiladi. Vazifalar ijrosi jarayonida maqsadning ro'yobga chiqishiga alohida e'tibor beriladi. Menejerlik nazariyasi bo'yicha olimlardan biri Devid Kuk "Men boshqaraman, layoqatim yetarlimi?" nomli asarida maqsadni belgilay olmaydigan menejerlarni boshqaruvdan uzoq mutaxassislar toifasiga kiritgan. E'tibor berilsa, bu yondashuvda boshlang'ich ta'lim jarayoni boshqaruvning eng muhim negizi o'z ifodasini topgan. Chunki avval maqsad, keyin vazifa va nihoyat uning ijrosi boshlang'ich ta'lim boshqaruvining uch tayanchini tashkil etadi.

Menejerlik faoliyati asoslarida maslahat vositasi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, menejer menejmentlardan farqli o'laroq muayyan muammo yoki tadbirlar bo'yicha jamoa bilan emas, balki shu soha bo'yicha mutaxassislar bilan maslahatlashuvni amalga oshiradi. Bunday yondashuv bir qarashda jamoaning mavqeiga ishonchni susaytirgandek tuyuladi, lekin uning negizida muammoni to'g'ri idrok qiluvchi mutaxassis bilan maslahatlashish muammoni yechimini

topishda qo‘l keladi. Ayni paytda menejer muayyan qaror bo‘yicha ta’lim muassasasi jamoasi bilan maslahatlashuvlarni amalga oshirishi mumkin. Misol uchun, menejerlik nazariyasida kadrlar masalasida albatta jamoa bilan maslahatlashish alohida belgilangan. Bu hol kadrlar qisqarishi va ularning qo‘nimsizligi oldini oladi. Shu jihatdan menejerlik faoliyatida maslahat vositasi mazkur toifa boshqaruvchilarini yo‘naltirib turuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Ta’lim jarayoni boshqaruvida menejerlik asoslaridan biri ochiqlikdir. Bunda menejer oshkoralik, ochiqlik va ochiq eshiklar kunini o‘tkazish kabi tadbirlar vositasida o‘z faoliyatini amalga oshiradi. Shu sababli bu vosita menejerlik faoliyatining demokratik qadriyatlarga asoslanishini namoyon qiladi. Eslatib o‘tish joizki, demokratik qadriyatlarning eng muhim asoslarini ochiqlik, huquqiylik, ommaviylik va oshkoralik tashkil etadi. Mazkur qadriyatlardan ochiqlik va huquqiylik menejerlik nazariyasida eng muhim demokratik yondashuv sifatida qabul qilingan. Misol uchun, menejerlik faoliyati tajribasida oyda bir marotaba ochiq eshiklar kunini o‘tkazish belgilab qo‘yilgan. Buning natijasida ta’lim oluvchilar, ta’lim beruvchilar, ota-onalar, maktab jamoasi va boshlang‘ich ta’limdan manfaatdor shaxslar o‘zlarining murojaatlari, takliflari hamda muammolari bilan ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Menejer mazkur murojaatlarning barchasini umumlashtiradi, tahlil qiladi va faoliyatida ularni hisobga oladi. Bunday vosita menejerlar faoliyatining ochiqligini ta’minlovchi eng muhim shakllardan biridir. Tajribali menejerlar ochiq eshiklar kunida muayyan mutaxassislarni ham taklif qilishadi va bu mutaxassislar murojaatlarni shu joyning o‘zida hal etib berish vazifasini bajaradi. Shu sababli ta’lim jarayoni boshqaruvida menejerlik faoliyatidan foydalanish butun dunyo bo‘yicha e’tiborga olinayotganligini ta’kidlab o‘tish joiz.

E’tibor berilsa, bu vositalar ta’lim jarayoni boshqaruvida nihoyatda muhim omillar bo‘lib, ularga amal qilish amaliy samaralarni berishi bilan ajralib turadi.

2. ***Boshlang‘ich ta’lim menejerining kasbiy kompetensiyalari***. Mazkur masala Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va mamlakatimiz ta’lim jarayoni uchun



nisbatan yangi muammo hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich ta’lim tajribamizda menejerlarni tayyorlash an’anasi mavjud bo‘lmagan va shu sababli boshlang‘ich ta’lim menejerlarining kasbiy kompetensiyalari muammosi tadqiq etilgan emas. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son Farmonida menejerlarni tayyorlashda ularning quyidagi kompetensiyalarini tarkib toptirish belgilangan bo‘lib, bu kompetensiyalarning *asosiy tarkiblari* quyidagilardan iborat:

a) jamoada ishlash kompetensiyasi;

b) ota-onalar bilan muloqot qilish kompetensiyasi;

v) boshqaruv kompetensiyasi;

g) hisob-kitoblarni amalga oshirish kompetensiyasi;

d) axborot-kommunikatsion texnologiyalarini bilish kompetensiyasi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashda mazkur kompetensiyalarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Unga ko‘ra, jamoada ishlash kompetensiyasi ta’lim va tarbiya jarayonini me’yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan tashkil etish hamda ta’lim muassasasi jamoasi bilan hamkorlik qilish layoqatlarini qamrab oladi. Ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda tegishli qonunlar, Farmonlar, Qarorlar, Farmoyishlar va davlat ta’lim standartlari hamda malaka talablariga amal qilish menejerning asosiy vazifalaridan biridir. Ta’lim muassasasi jamoasi bilan hamkorlik ta’lim va tarbiyaga doir muammolarni muhokama qilish, ularning yechimlari bo‘yicha fikr almashish va eng maqbul yechimlarga tayanishga asoslanadi. Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim menejeri mazkur kompetensiyalarni o‘zlashtirishi zaruriyat hisoblanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim menejerlarining ota-onalar bilan muloqot qilish kompetensiyasi ta’lim va tarbiyaga oid ota-onalarning fikrlarini o‘rganish, ta’lim beruvchilarga munosabatini aniqlash va ularning ta’lim-tarbiya jarayoniga faol ishtirok etishi bilan belgilanadi. Har bir ota-ona farzandi ta’lim olayotgan bosqich bo‘yicha o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lishi taqozo etiladi, bu hol ta’lim oluvchilarning faolligini oshirishda qo‘l keladi. Ota-onalar ta’lim beruvchilarga

nisbatan aniq munosabatga ega bo'lishlari kerak. Chunki bu masala ta'lim beruvchilarning mehanti va faoliyatini rag'batlantirishdagi faoliyati hisoblanadi. Bugungi kunda ota-onalarning ta'lim va tarbiya ishlarida faol ishtirok etishi, ta'limga nisbatan mas'uliyat bilan yondashishi dolzarb bo'lib turibdi. Bularning barchasi boshlang'ich ta'lim menejerlari tomonidan o'rganib boriladi.

Boshlang'ich ta'lim menejerlarining boshqaruv kompetensiyalari muhim ahamiyatga ega omillar hisoblanadi. Bu kompetensiyaga boshqaruv jarayonini tashkil etish, uni rejalashtirish, boshqaruvda jamoatchilikning ishtirok ko'lamini aniqlash, belgilangan tadbirlarning ijrosini nazorat qilish va boshqaruv bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni belgilash kiradi. Shu sababli mazkur kompetensiyalar bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari tomonidan nazariy va metodik jihatdan talab darajasida oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi taqozo etiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, har bir shaxsda boshqaruv layoqati mavjud bo'ladi va bu layoqat shaxsning o'zini o'zi nazorat qila olishida namoyon etiladi. Mazkur hol talabalardagi ana shu layoqatni rivojlantirish bilan ularda menejerlik kompetensiyalarini va boshqaruv malakalarini tarkib toptirish imkonini beradi. Bunda pedagogik turkumdagi fanlarning menejmentga oid mavzularni chuqurlashtirib o'qitishga ehtiyoj mavjudligini ta'kidlash lozim.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining moliyaviy hisob-kitoblarini amalga oshirish kompetensiyasi eng zaruriy omillardan hisoblanadi. Ushbu kompetensiya tarkibini davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'larni qonuniy asosda tasarruf etish, grandlar va beg'araz homiylar yordamlari asosida qo'shimcha moliyaviy mablag'larni tashkil qilish va ulardan oqilona foydalanish, mablag'larni birlamchi xarakajatlar bo'yicha yo'naltirish va bunda boshlang'ich ta'limning ishtirokchilarini muntazam rag'batlantirib borish ko'rsatkichlarini belgilash, moliyaviy hisob-kitoblarni S1 (Statistika-1) qoidalari asosida qat'iy amalga oshirish hamda belgilangan Kengash vositasida boshlang'ich ta'lim ishtirokchilariga choraklik va yillik hisobotlarni muntazam tashkil qilib borish tashkil qiladi. Bu hol oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim



menejerlarini iqtisodiy fanlar asoslari bilan ham maqsadli tanishtirishni taqozo etadi va bu jarayon "Menejerning moliyaviy faoliyati" maxsus kursi vositasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim menejerlarining axborot-kommunikasiya texnologiyalari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi hozirgi zamon rivojlanish jarayonining muhim strategik yo'nalishlaridan biridir. Shu jihatdan bu kompetensiya tarkibiga va aniq ma'lumotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, axborot-kommunikatsion vositalar asosida raqamli boshqaruvni amalga oshirish, boshqariluvchi shaxslar bilan axborot madaniyatiga asosan ma'lumotlar ayriboshlash, boshlang'ich ta'lim jarayonini yangi axborot texnologiyalari bilan ta'minlab borish, axborotga asoslangan boshqaruv madaniyatini egallash va faoliyat to'g'risida ommaviy axborot vositalari orqali muntazam ma'lumotlar berib borish kiradi. Bularning barchasi oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi kerak va aks holda, bo'lajak menejerlarning boshqaruv faoliyati kutilgan darajada bo'lmaydi.

E'tibor berilsa, bu kompetensiyalar majmui bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining boshqaruv bo'yicha bilimi, ko'nikma va malakalarini yuksak darajada tarkib toptirishning asosi hisoblanadi. Shu sababli mazkur masalalar maxsus ilmiy tadqiqotlar asosida o'rganilishi dolzarb bo'lib turibdi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'lim menejerlarining menejerlik kompetensiyalari tarkibida eng asosiy *tamoyillarga* amal qilish ham mavjud. Shu ma'noda bugungi kunda bunday tamoyillarning asosiylarini quyidagilar tashkil etadi:

a) qonuniylik tamoyili;

b) demokratlik tamoyili;

v) jamoaviylik tamoyili.

Boshlang'ich ta'lim menejerlarining eng muhim boshqaruv tamoyilini qonuniylik tashkil etadi. Bu tamoyilning mazmuniga ko'ra, boshlang'ich ta'lim ishtirokchilarining erkinliklari, huquqlari va manfaatlariga rioya qilish, boshqaruv

jarayonini amaldagi qonunchilik asosida amalga oshirish, kezi bilan boshqaruv jarayoniga milliy qonunchilik normalarini impletasiya qilish, ya'ni xalqaro huquq normalaridan milliy qonunchilik qoidalariga asosan foydalanish, menejerning huquqlari va vakolatlarini aniq belgilab qo'yilishi muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Chunki boshlang'ich ta'limda qonuniylik tamoyili asosida boshqaruvni amalga oshirish eng muhim masaalalardan biri bo'lib, unda asosiy e'tibor 7-11 yoshli o'quvchilarni bilim, hayot va faoliyat olamiga olib kirishga qaratiladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonini boshqarish eng avvalo qonuniylik tamoyiliga asosan amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'lim boshqaruvidan menejer amal qilishi lozim bo'lgan ikkinchi tamoyil demokratlikdir. Demokratlik tamoyilning asosini boshqaruv jarayonini oshkora olib borish, murojaatchilar bilan o'z vaqtida muloqot qilish, boshlang'ich ta'limni rivojlantirishga doir jamoatchilikning takliflari va tashabbuslarini o'rganib borish hamda ularning eng muhimlarini amaliyotga tadbiq etish, har bir faoliyatda hisobot berishga tayyor turish tashkil qiladi. Demokratik tamoyilni o'zlashtirish oson, lekin unga amal qilish murakkab jarayon hisoblanadi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari boshqaruv bo'yicha bilim ko'lamini kengaytirib borishi, har bir tadbir va ishga o'ziga xos ishonch bilan kirishishi, o'zligiga ishonishi va boshlangan jarayonning samarasini chamalay olishi kerak. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim menejerlarining boshqaruvda demokratik tamoyillarga amal qilish malakasi tarkib topadi.

Boshlang'ich ta'lim boshqaruvida jamoaviy tamoyili ham muhim o'rin tutadi. Bu tamoyilning negizlari muayyan muammoni jamoatchilik ishtirokini muhokama qilish va hal qilish, yuzaga kelayotgan istalmagan muammolar to'g'risida jamoatchilikni o'z vaqtida xabardor qilish, jamoatchilikning fikri asoslarida mavjud muammolarni tahlil qilish va ularning yechimlarini topishdan iborat. Jamoaviy tamoyil butun boshqaruv jarayonida muntazam amal qilinadigan omillardan hisoblanadi. Shu sababli mazkur masalalarni oliy pedagogik ta'lim



jarayonida o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari uchun zaruriyatlardan biridir.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim menejerlari amal qilishi lozim bo'lgan tamoyillar qulay va ayni paytda keng imkoniyatlarni beruvchi vositalardir.

Ma'lum bo'ladiki, menejerlik kompetensiyalari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni o'zlashtirish, o'rganish va amaliyotda foydalanish malakalari bilan qurollanish bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari uchun eng zaruriy masalalardir.

3. ***Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning asosiy yo'nalishlari.*** Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda eng muhim yo'nalishlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda quyidagi asosiy yo'nalishlarga tayanish kutilgan amaliy samarani beradi:

a) pedagogik jarayonni boshqarish yo'nalishi;

b) ma'muriy jarayonni boshqarish yo'nalishi;

v) ijtimoiy jarayonni boshqarish yo'nalishi.

Bu yo'nalishlar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan ularni pedagogik jarayonni boshqarish yo'nalishi asosida tayyorlash boshlang'ich ta'lim, tarbiya va metodikaning mazmuni, boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalari, boshlang'ich ta'limning boshqa ta'lim bosqichlarida tutgan o'rni va ahamiyati bilan tanishtirish taqozo etiladi. Chunki boshlang'ich ta'lim menejeri eng avvalo pedagog shaxs sifatida pedagogik jarayon bo'yicha eng asosiy bilim va malakalarga ega bo'lishi kerak. Aks holda, boshlang'ich ta'lim boshqaruvi jarayonida boshqaruvning samarasizligi kelib chiqadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik turkumdagi fanlar vositasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini pedagogik jarayon asoslari bilan qurollantirish eng muhim masala ekanligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning ma'muriy jarayonni boshqarish yo'nalishi ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bo'lajak

boshlang'ich ta'lim menejerlarida kelgusida boshqaruv jarayonida ishtirok etadigan mutaxassislar va kadrlar bilan ishlash, boshqaruv kadrlarini tanlash, joy-joyiga qo'yish va ularni lavozim bo'yicha o'sib borishini ta'minlash hamda boshqaruv bo'yicha pedagogik kadrlar zahirasini shakllantirishni bilish ko'nikmalari bilan qurollantirish ko'nikmalarini tarkib toptirish muhim hisoblanadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash uchun "ma'muriy boshqaruv" maxsus kursini tashkil etish va uning vositasida bo'lajak menejerlarda ma'muriy boshqaruv madaniyatini amaliy tarkib toptirish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoatchilikning ishtirok etishi sababali mazkur jarayon ijtimoiy jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Menejer tomonidan ijtimoiy jarayonni, ya'ni boshlang'ich ta'limda ishtirok etuvchilarning faoliyatini nazorat qilish, boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonini istalmagan salbiy holatlarda muhofaza qilish, muntazam ravishda boshlang'ich ta'lim va tarbiya uchun zamonaviy kommunikasiyalarga asoslangan sharoitlarni yaratib borish vazifalari amalga oshirilishi taqozo etiladi. Bularning barchasi oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini ijtimoiy jarayonni boshqarishga tayyorashni ham taqozo etadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning asosiy yo'nalishlari Menejment fanining asoslari, nazariyasi va texnologiyalaridan kelib chiquvchi omillar hisoblanadi. Mazkur masalalarda ham yangicha tadqiqotlarni yaratish maqsadga muvofiq bo'lishini eslatib o'tish joiz.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda individual yondashuv texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining professiogrammasini, ya'ni kasbiy malakalar talabini nazariy va metodik jihatdan ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Mazkur masala bo'yicha bizning yondashuvimiz quyidagilardan iborat:

a) boshlang'ich ta'lim menejerining pedagogik boshqaruv asoslarini bilishi;

b) boshlang'ich ta'lim menejerining individual o'z ish uslubiga ega bo'lishi;



v) boshlang'ich ta'lim menejerining professional jihatdan qo'yilayotgan talablarga javob berishi.

Boshlang'ich ta'lim menejerining pedagogik boshqaruv asoslarini bilishi eng asosiy kasbiy talablardan biridir. Chunki pedagogik boshqaruv tushunchasi o'z negizida boshlang'ich ta'limni tashkil etish va boshqarishda menejment va pedagogik qonuniyatlarning uyg'unligiga asoslanadi. Bunda menejment qonuniyatlari qat'iylik va mas'uliyatlik tamoyillariga asoslansa, pedagogik boshqaruv qonuniyatlari esa tushunish va murosasozlik tamoyillariga asoslanadi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari qat'iyatlik, mas'uliyatlik, tushunuvchanlik va murosasozlik tamoyillariga amal qilishi bilan pedagogik boshqaruv mezonlariga rioya etishini namoyon qiladi. Chunki pedagogik boshqaruv mezoni eng avvalo ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning manfaatlarini ustuvor qo'yadi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonini rivojlantirishning asosiy masalalaridan biri o'z individual uslubiga ega menejerlar tomonidan boshqarilishiga bog'liqdir. Unga ko'ra, har bir boshlang'ich ta'lim menejeri o'zining individual asosdagi boshqaruv uslubiga ega bo'lishi taqozo etiladi. Bunday uslubga ega bo'lishning asoslari chuqur bilimdonlik, tegishli ma'lumotlarga egalik va muntazam ravishda boshqaruv jarayonini tahlil qilib borish bilan tarkib topadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim menejerlari nafaqat oliy pedagogik jarayonida, balki amaliy faoliyati jarayonida ham o'zlarining individual boshqaruv uslublarini takomillashtirib borilishi taqozo etiladi. Misol uchun bu borada har bir vaziyatdan saboq chiqarish va har bir kishining fikrlarini tinglash bilan o'z boshqaruv uslubini shakllantirish imkoniyatlari mavjud ekanligini eslatib o'tish joiz. Menejerlar boshqaruv asoslari bo'yicha qanchalik chuqur kasbiy bilimga ega bo'lmasin, ular faoliyati davomida turli vaziyatlar va holatlarga duch kelishadi. Bunday xolatlar va vaziyatlarga menejerni faqat o'zining individual boshqaruv uslubi kutilgan samarani berishini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli boshlang'ich ta'lim menejerlari butun faoliyati davomida

o'zlarining individual boshqaruv uslublari ustida ishlashi hozirgi zamon menejment nazariyasining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Jamiyatimizning innovatsion rivojlanish sharoitida ta'limning boshlang'ich ta'lim bosqichini xalqaro ta'lim standartlari asosida rivojlantirish vazifalari qo'yilmoqda. Shu ma'noda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" davlat dasturida boshlang'ich ta'lim jarayoniga xalqaro ta'lim dasturlariga mos ravishda ishlab chiqilgan darsliklarni qat'iy joriy etish vazifasi qo'yilgan. Bunday vazifa boshlang'ich ta'lim menejerlaridan professionallik talablariga mos bo'lishni talab etadi. Chunki professionallik talablari tarkibida nafaqat pedagogik jamoa bilan ishlash, balki bu jamoaning amal qilayotgan o'quv rejalari, dasturlari va adabiyotlari bilan ham ishlash talabi qo'yilgan. Shu jihatdan xalqaro ta'lim dasturlariga mos ravishda ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilayotgan darsliklarning mazmun jihatidan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga mosligi, ularning natija berish jarayoni hamda o'quvchilarning mazkur darsliklar asosida o'zlashtirganlik darajasining rivojlanib borish ko'rsatkichlari menejerlar tomonidan nazorat qilib boriladi. Bunday nazorat menejerlik asoslarining professionallik talablari tarkibini tashkil etadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida aynan professional talablari asoslarini chuqur o'zlashtirish menejerlik nazariyasi va metodikasi jihatidan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Diqqat qilinsa, bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining boshqaruv asoslari mezonlari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Shunday qilib individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash nazariy xususiyatlari o'ziga xos bo'lib, bunda individual yondashuv texnologiyasi asoslarini boshlang'ich ta'lim menejerlarini maxsus tayyorlash mazmuni, ularning kompetensiyalari va menejerlarni tayyorlashning asosiy yo'nalishlari tashkil qiladi. Bunday toifa pedagog kadrlarni tayyorlashda maxsus kurslar vositasi imkoniyatlaridan foydalanish nazariy, metodik va amaliy



jihatdan muhim hisoblanadi. Shu sababli bu borada o'ziga xos tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi.

## 1.3.Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash zaruriyati

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimini hozirgi zamon talablari asosida boshqarish orqali uning sifat ko'rsatkichlarini yuksaltirish vazifalari qo'yilgan.[6] Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim bosqichini oqilona tashkil etish va boshqarish orqali sifatli ta'limga erishish hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik darajasini yuksaltirish dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda e'tiboringizni individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'i ch ta'lim menejerlarini tayyorlash zaruriyati masalasi tahliliga tortamiz.

1. ***Boshlang'ich ta'limni zamonaviy boshqarish zaruriyati.*** Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limni boshqarish ishlari umumiy o'rta ta'lim ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladi. Ayni paytda, Boshlang'ich ta'lim metodik kengashi tuzilgan bo'lib, jamoatchilik asosida faoliyat olib boradi. Bu kengashning asosiy vazifasi sifatida maktab ma'muriyati qarorlarining ijrosini ta'minlash va boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan birgalikda ta'lim jarayonini amalga oshirish belgilangan. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim jarayoni yangicha yondashuvlar asosida boshqarilishi va unda boshlang'ich ta'lim menejerlari faoliyati belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'lim boshqaruvini zamonaviylashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi:

a) boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etishning yangicha yondashuvlarini belgilab olish;

b) boshlang'ich ta'lim metodik kengashi vazifalarini kengaytirish;

v) boshlang'ich ta'lim boshqaruviga o'qituvchilarni keng jalb etish.

---

[6] Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. // www.google.uz

Boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etishda ijtimoiy murakkab sharoitlarda ham ta'lim-tarbiya jarayonini davom ettirish ishlari nazarda tutilishi kerak. Shu sababli boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda bir necha zamonaviy shakllarni amaliyotga joriy etish dolzarb bo'lib turibdi. Shunday shakllardan biri masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish yoki o'quvchilarning layoqatiga ko'ra mustaqil ta'limni amalga oshirish kabilardan iborat. Masofaviy ta'limni tashkil etish va boshqarishda umumiy o'rta ta'lim maktablarining texnologik sharoitlariga asoslaniladi. Mustaqil ta'limni tashkil etishda esa o'quvchilarning imkoniyatlari va sharoitlariga tayaniladi. Bunday yondashuv har qanday vaziyat va sharoitlarda boshlang'ich ta'limni talab darajasida boshqarish imkoniyatlarini beradi. Chunki boshqaruv – boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonining eng muhim omillaridan biridir, agar boshqaruv jarayoni oqilona tashkil etilsa, boshlang'ich ta'lim va tarbiyaning sifat ko'rsatkichi ortadi. Shu jihatdan bugungi kunda boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash jarayonida eng asosiy masalalardan biri ularning tarbiya bo'yicha kompetensiyalarini tarkib toptirish bo'lib turibdi. Negaki, masofaviy yoki mustaqil ta'lim shakllarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash nazariyasi va metodikasi ishlab chiqilgan emas. Bu hol bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini murakkab sharoitlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash ishini tashkil etish bo'yicha boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy boshqaruv zaruriyatida bugungi kunda amaliy faoliyatda bo'lgan Boshlang'ich ta'lim metodik kengashi jamoatchilik tuzilmasining vazifalarini kuchaytirish muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, mazkur kengashning vazifasi boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonini to'liq nazorat qilish hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyatini o'rganib borish, boshlang'ich ta'limni rivojlantirish bo'yicha takliflarni taqdim qilib borish vazifalarining belgilanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki metodik kengash boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonidagi haqiqiy xolatni yaxshi biladi, ko'p hollarda maktab ma'muriyati maktab bo'yicha ko'rsatkichlar va ma'lumotlar bilan



cheklanadi. Shu ma'noda mazkur metodik kengashning vazifalarini kuchaytirish bilan boshlang'ich ta'lim jarayonini zamonaviy asosda boshqarish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, metodik kengashning jamoatchilik asosda faoliyat yuritishi uning ta'smir ko'lamini susaytiradi va shu sababli qonuniy asodagi rag'batlantirish vositasida kengash a'zolarini qo'llab-quvvatlash shakllari mavjud ekanligini eslatib o'tish joiz. Shuningdek, Boshlang'ich ta'lim metodik kengashining asosiy vazifasi sifatida maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning maktabga tayyorlanish sifati bo'yicha nazoratni amalga oshirish belgilab qo'yilishi amaliy ahamiyatga ega. Chunki bolalar maktabga tayyorlanish jarayonida turli ko'rsatkichlarga ega bo'layotganligini amaliyot ko'rsatmoqda. Bunday yondashuv kengashning kelgusida boshlang'ich ta'lim menejerlari bilan munosabatlarini aniq belgilab olishda asos vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonini zamonaviy boshqarish zaruriyatlaridan biri sifatida o'qituvchilarni faollashtirish dolzarb bo'lib turibdi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limni tashkil etish, boshqarish va uning samaradorligiga erishish jarayonida individual tarzda faol ishtirok etishi kerak. Chunki aynan o'qituvchi boshlang'ich ta'limning sharoitlari uchun va uning samaradorligini ta'minlovchi omil hisoblanadi. Mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nisbatan ko'pchiligi fidoyi, faol va o'z kasbining ustasi sifatida ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan ularni boshqaruv jarayoniga jalb etish boshlang'ich ta'lim boshqaruvida demokratik yondashuvga asos bo'ladi. O'qituvchilarning fikrlari va tashabbuslari asosida hamda ularning takliflariga binoan boshlang'ich ta'lim boshqaruvi tashkil etilishi qulaylik va natijadorlikni keltirib chiqaradi. Bu hol bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda ularni boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan ishlash bo'yicha malakalarini shakllantirish taqozo etadi.

Ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish, amaliy faoliyat yuritayotgan Boshlang'ich ta'lim metodik kengashining vazifalarini kengaytirish va o'qituvchilarni faollashtirish mazkur

ta'lim bosqichi boshqaruvida demokratik qadriyatlarni tarkib toptiradi. Natijada boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonining sifat ko'rsatkichlarini tabiiy asoslarda rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

2. ***Boshlang'ich ta'limni rivojlantirish zaruriyati***. Boshlang'ich ta'limni rivojlantirish zaruriyati uning boshqaruvini mazkur ta'lim bosqichi vazifalaridan kelib chiqib tashkil etish bilan belgilanadi. Chunki bugungi kunda mamlakatimizda boshlang'ich ta'limning vazifalari yangilanib bormoqda. Shu sababli mazkur masalada quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini boshlang'ich ta'limning yangi vazifalari bilan chuqur tanishtirib borish;

b) boshlang'ich ta'limni rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategik boshqarish asoslarini belgilab olish;

v) boshlang'ich ta'lim boshqaruvini muntazam baholab borishni yo'lga qo'yish.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda uzviy ravishda ularni tarkib topayotgan boshlang'ich ta'limning yangi vazifalari bilan tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega. Chunki ta'lim tizimining rivojlanib borish jarayonida boshlang'ich ta'limning vazifalari ham yangilanib va takomillashib bormoqda. Misol uchun, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning keyingi turli bosqichlariga tayyorlash vazifasi boshlang'ich ta'lim jarayoni uchun yangi hisoblanadi. Agar ilgari boshlang'ich sinf o'quvchilarini umumiy o'rta ta'limga tayyorlash bilan cheklanilgan bo'lsa, bugungi kunda ularni bir necha ta'lim turlariga tayyorlash vazifasi tarkib topdi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda boshlang'ich ta'limning yangi vazifalari bo'yicha muntazam ravishda kasbiy kompetensiyalar berib borish maqsadga muvofiq bo'ladi va bu bilan boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning eng muhim asoslariga ega bo'linadi. Chunki boshlang'ich ta'limni zamonaviy darajada rivojlantirish uning vazifalarini to'liq amalga oshirish bilan bog'liqdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kelgusida ham boshlang'ich ta'limning vazifalari yanada



takomillashib boradi. Aynan mana shunday yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining indiviual boshqaruv malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir.

Menejerlik asoslarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, sohalar bo'yicha uzoq muddatli strategik boshqaruv asoslari belgilab olingan. Misol uchun, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi ma'muriy islohotlar strategiyasi amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim jarayoni boshqaruvida strategik mo'ljallarni belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Bunday strategiyada kelgusida o'quvchilarning miqdori, boshlang'ich ta'limning moddiy-moliyaviy imkoniyatlari, boshlang'ich ta'limni oliy ma'lumotli o'qituvchilar bilan ta'minlash mo'ljallari va boshlang'ich ta'limning ta'lim bosqichlarida tutgan o'rnini rivojlantirish asoslari o'z ifodasini topishi kerak. Buning natijasida besh yoki o'n yillik strategik boshqaruv asoslari belgilanib, bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda unga tayaniladi. Natijada boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning boshqaruv asoslari tarkib topadi va kelgusida mazkur bosqichni boshqarishda jamoatchilikning faol ishtirok etishi yuzaga keladi. Bu hol ham oliy pedagogik ta'lim jarayonida individual yondashuv texnologiyasiga binoan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini strategik boshqaruv asoslari bilan qurollantirishni taqozo etadi.

Boshlang'ich ta'limni zamonaviy rivojlantirish zaruriyatlaridan biri uning boshqaruvi samaradorligini baholab borishdir.[7] Chunki o'rganish va baholash jarayonida boshlang'ich ta'lim boshqaruvidagi yutuqlar va kamchiliklar namoyon bo'ladi. Boshlang'ich ta'limni rivojlanishida eng muhim to'siqlardan biri uning boshqaruvida ma'muriyatchilikning, ya'ni vazifalar, topshiriqlar va hisobotlar tayyorlashning ko'payib borishidir. Aksincha, ixcham va jamoaviy asosda boshqariladigan boshlang'ich ta'lim zamon talablari asosida rivojlanib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ko'rsatmalar va topshiriqlarning takroriyligiga yo'l qo'yilmaydi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayoni boshqaruvini choraklik

[7] Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023

va yillik asosda baholab borish muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday baholash amaliyotida boshlang'ich ta'lim menejerlari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari vakillari, sinf rahbarlari va faol ota-onalarning ishtirok etishi kutilgan samarani beradi. Chunki jamoatchilik asosida baholash boshlang'ich ta'lim rivojiga to'siq bo'layotgan muammolarni aniq belgilab olish va ularni hal etish yechimlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini beradi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'limni rivojlantirish zaruriyati uning boshqaruvini demokratlashtirib borish bilan bog'liq hodisadir. Mazkur masala bo'yicha bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini malakalarini tarkib toptirish dolzarb bo'lib turibdi.

3. ***Boshlang'ich ta'lim boshqaruvini yangilab borish zaruriyati.*** Boshlang'ich ta'limni rivojlantirish uchun va unda zamonaviy ta'lim sifat ko'rsatkichlariga erishish uchun muntazam ravishda uning boshqaruvi yangilab borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun menejerlik instituti asoslaridan foydalanish kutilgan samarani beradi. Shu jihatdan mazkur samalada quyidagilarga e'tibor berish muhimdir:

a) boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda muntazam yangi yondashuvlarga asoslanib borish;

b) bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarida demokratik boshqaruv malakasini tarkib toptirish;

v) boshlang'ich ta'lim boshqaruvida jamoatchilikni jalb qilish asoslari bo'yicha aniq mo'ljallarga ega bo'lish.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashni yo'lga qo'yish va unda yangicha yondashuvlarga asoslanish mazkur ta'lim bosqichini zamonaviy darajada rivojlantirishning omillaridan biridir. Bu o'rinda yangicha yondashuvlar deganda individual yondashuv texnologiyasiga binoan milliy va xorijiy pedagogik boshqaruv asoslari bilan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini qurollantirib borish nazarda tutilishi kerak. Chunki har bir o'quv yilida texnologik rivojlanish sababli barcha sohalar qatorida boshlang'ich



ta'lim jarayonida ham yangiliklar tarkib topib bormoqda. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda kurslar kesimida yangicha yondashuvlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, boshqaruvning raqamli texnologiya metodini dastlabki kurslarda o'zlashtirsa, keyingi kurslarda shu metod bo'yicha yuzaga kelgan yangiliklar bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlariga taqdim etilishi kerak. Uning natijasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarida muntazam ravishda yangicha yondashuvlar majmui tarkib topib boradi. Shu jihatdan boshqaruvning an'anaviy metodlariga nisbatan yangicha yondashuvlariga asoslanish menejerlik samaradorligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon ta'lim menejementida boshqaruvning aftoritar (yakka boshchilik), pragmatik (amaliy) va demokratik (jamoaviy) uslublari amal qilmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim xususiyatlaridan kelib chiqib, bo'lajak menejerlarning demokratik boshqaruv malakalarini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining xususiyatlirin hisobga olish muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining demokratik uslublari asoslarini bolaparvarlik, insonparvarlik, jamoaparvarlik va mas'uliyat tashkil qiladi. Misol uchun, boshlang'ich ta'lim menejerining mas'uliyat malakasi o'zi qabul qilgan har bir qarorning va boshlang'ich ta'lim jarayonining ko'rsatkichlari bo'yicha ijrosini ta'minlash hamda mo'ljallangan samaradorlikka erishish sharoitlarini tashkil qilishdan iborat. Demokratik boshqaruv uslubiga aynan mas'uliyat vositasida ta'lim ishtirokchilarining erkinliklari, huquqlari va manfaatlari ta'minlanadi. Bu hol ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayoni va uni zamonaviy rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan biz boshlang'ich ta'lim jarayonini demokratik qadriyatlar, ya'ni inson manfaatlari ustun qo'yiladigan uslublar vositasida boshqarish tarafdori ekanligimizni eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'lim jarayonini rivojlantirishning zamonaviy asoslaridan biri mazkur ta'lim bosqichida jamoatchilik ishtirokining aniq mo'ljallarini belgilab

olishdir. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim manfaatdorlari, ya'ni o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar, maktab jamoasi vakillari va ta'limni boshqarish bo'yicha mas'ul davlat idoralarining vazifalari belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda har bir jamoatchilik vakilining muammolar bo'yicha o'z fikrini bildirish, boshlang'ich ta'lim yutuqlarini targ'ibot qilish va boshlang'ich ta'lim boshqaruvida ovoz berish kabilarning belgilab qo'yilishi mazkur ta'lim bosqichini rivojlantirishning o'ziga xos imkoniyatlarini beradi. Chunki jamoatchilik fikr bildirish va tashabbus ko'rsatish huquiga ega bo'ladi. Ayni paytda, jamoatchilik vakillari boshlang'ich ta'limni amalga oshirishning mazmuni, metodi va texnologiyalari bo'yicha cheklangan ishtirokchi hisoblanadi. Mazkur masalalar sinf rahbarlari va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy vazifalari ko'lamiga kiradi. Shu jihatdan bunday masalalar bo'yicha bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini ko'nikmalarini tarkib toptirish ham muhim amaliy ahamiyatga egadir.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limni yangilab borish zaruriyati asosida uning boshqaruvi bo'yicha yangi shart-sharoitlarga ega bo'lish mumkin va buning natijasida mazkur ta'lim bosqichini rivojlantirishning keng imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Shunday qilib individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning zaruriyati eng avvalo ushbu ta'lim bosqichini oqilona tashki etish va boshqarish, uni rivojlantirishning zamonaviy asoslarini belgilash hamda boshlang'ich ta'lim jarayoninini yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirib borish bilan belgilanadi.



# II. BOB. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodologiyasi

## 2.1. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiyasi asosida tayyorlashning maxsus kurs metodikasi

O'zbekistonda bo'lajak ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiyasi asosida tayyorlash muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi. Shu jihatdan mazkur masalaning muhim yondashuvlaridan biri *maxsus kurs metodikasi* tahliliga e'tiboringizni tortamiz:

Maxsus kurs – bu pedagogik oliy ta'lim va tarbiya jarayonida bo'lajak pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlash jarayonini kuchaytirishga qaratilgan va maxsus yondashuvlar asosida tashkil etilgan o'quv jarayonidir.[8] Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda maxsus kurslar vositasida foydalanish individual yondashuv texnologiyasining asoslaridan birini tashkil etadi. Bunday maxsus kurslarning eng asosiylari sifatida quyidagilarni ta'kidlab ko'rsatish mumkin:

1. ***Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda o'quv fanlari bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish metodikasi.*** Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning eng muhim metodikalaridan biri maxsus kurslardir. Shu jihatdan o'quv fanlari bo'yicha maxsus kurslarni quyidagi asosda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) pedagogik turkumdagi o'quv fanlari asosidagi maxsus kurslar;

b) menejerlik asoslari bo'yicha maxsus kurslar;

v) talabalarning tashabbuslari asosida tashkil etiladigan maxsus kurslar.

Pedagogik turkumdagi (majburiy) o'quv fanlari asosida menejerlik asoslari bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish individual yondashuv texnologiyasiga binoan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning muhim vositalaridan biridir. Bunda o'quv fanlarining tegishli mavzulari kengaytirilgan tarzda

[8] Hasanboyeva J.va boshq.Pedagogika fanidan izohli lug'at.-Toshkent,2009.305-bet

menejerlik asoslari bo'yicha bilim, tushuncha va ko'nikmalarni beruvchi o'quv mashg'ulotlarini nazarda tutish kutilgan samarani beradi. Misol uchun, "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovasiya va integrasiyasi" o'quv fanida pedagogik menejment asoslari bo'yicha ma'lumot berish mashg'uloti nazarda tutilgan. Ana shu mashg'ulotning mavzularini kengaytirgan holda maxsus kurslar tashkil etish boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Yoki, "Pedagogika nazariyasi va tarixi" o'quv fanida pedagogik jarayonni boshqarish asoslari bo'yicha malakalar berish nazarda tutilgan. Aynan mana shu mavzularni birlashtirgan holda va maxsus O'quv dasturini tuzib kurslar tashkil etish va ular asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday maxsus kurslar mashg'ulotlarida saboqlar jarayoni mustaqil topshiriqlarni bajarish, treninglar o'tkazish va taqdimotlar tashkil qilish vositasida amalga oshirilishi menejerlik asoslari bo'yicha muhim malakalarni beruvchi omillardan biridir. Shu sababli mazkur metodikadan oqilona foydalanish dolzarb bo'lib tutibdi.

Hozirgi zamon oliy pedagogik ta'lim muassasalarimizda o'quv, moliyaviy va boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha mustaqil faoliyatni joriy etish jarayoni kechmoqda. Shu jihatdan har bir oliy pedagogik ta'lim muassasasi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va jamiyatning talablaridan kelib chiqgan holda, eng avvalo o'quv rejalari, dasturlari va fanlarini takomillashtirib borish huquqiga ega. Mazkur imkoniyatdan foydalangan holda oliy pedagogik ta'lim muassasalarida Menejerlik asoslari kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday kurslar mashg'ulotlarida boshlang'ich ta'lim menejerlarining kasbiy bilimi, boshqaruv madaniyati va boshqaruv malakalari bo'yicha kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyati mavjud. Shu jihatdan Menejerlik asoslari maxsus kursini tanlov fanlari tarkibida tashkil etish kutilgan samarani beradi va bu bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining professional tayyorgarlik ko'lami kengayadi. Eslatib o'tish joizki, xorijiy mamlakatlardan Amerika Qo'shma Shtatlari oliy pedagogik ta'lim



muassasalarida ana shunday maxsus kurslarning muntazam faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bunday tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning muhim vositalaridan yana biri talabalarning bevosita tashabbuslari bilan tashkil etiladigan maxsus kurslardir. Unga ko'ra, iqtidorli talabalar guruhi tashabbus asosida menejerlik asoslari bo'yicha maxsus kurs tashkil etish taklifini kiritilganida, tajribali professor-o'qituvchilar bunday kurslarning mashg'ulotlar dasturini ishlab chiqadi va ularni amalga oshiradi. Mashg'ulotlar dasturini ishlab chiqishda talabalarning xohish va istaklari hamda takliflari hisobga olinadi. Misol uchun, taklifni bir haftalik seminar shaklidagi maxsus kurs va unda menejerlik asoslarining muayyan muammolari bo'yicha ko'nikma olish kiritilgan bo'lishi mumkin. Shu jihatdan bunday maxsus kurslarni tashkil qilishda menejerlik asoslarining muayyan muammolari yoki kompetensiyalar bo'yicha mashg'ulot-seminarlar o'tkaziladi.

Diqqat qilinsa, o'quv fanlari asosida tashkil etiladigan boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning bu maxsus kurslar shakllari innovasion xarakterdaligi va amaliyotga yo'naltirilganligi bilan muhim amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur metodikadan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, keyingi paytlarda o'quv fanlari bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish va ularning imkoniyatlaridan foydalanish sust kechmoqda.Shu sababli boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda o'quv fanlari bo'yicha maqsadli maxsus kurslar tashkil etish kutilgan samarani beradi. Chunki maxsus kurslar – bu o'quv fanlari mavzulari va mashg'ulotlarini kengaytiruvchi, talabalarning faolligini oshiruvchi va amaliy ishlanmalar yaratish uchun keng imkoniyatlarni beruvchi ta'lim jarayonidir. Shu jihatdan individual yondashuv texnologiyasi asosida tashkil etiladigan maxsus kurslar talabalarning tashabbuslari va faolligiga tayanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda talabalar turli startap loyihalar, ishlanmalar va jihozlar yaratishi, boshlang'ich ta'lim boshqaruvining asoslari bo'yicha taqdimotlar o'tkazishi, ularni muhokama qilishi hamda maxsus kurs natijasida

o'zlarining boshqaruv madaniyati bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining o'quv fanlarida berilgan nazariy bilim va ma'lumotlarni amaliyot bilan bog'lash, o'zlarining individual tashabbuslarini namoyon qilish, tajriba almashish kabi ko'nikmalalarni egallashadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik talabalarda nazariy bilimlar yetarli bo'lgani holda ulardan amaliyotda foydalanish tajribasi yetishmaydi. Shu sababli aynan maxsus kurslar vositasida bo'lajak menejerlarni faollashtirish, ularni amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish va tashabbuslarini ro'yobga chiqarish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. ***Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda o'qituvchilarning maxsus kurslarini tashkil etish metodikasi.*** Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda ilg'or tajribali professor-o'qituvchilarning individual maxsus kurslari tashkil etish va uning imkoniyatlaridan foydalanish vositasi ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Unga ko'ra, tajribali professor-o'qituvchilar umumiy shakldagi o'zlarining individual Maxsus kurslarini tashkil etadi va mazkur maxsus kurslar mavzularida menejerlik asoslari bo'yicha mashg'ulotlarni ham kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday kurslarda tajribali professor-o'qituvchilar o'zlarining yillar davomida shakllantirib kelgan metodikasi asosida talabalarning individual yondashuv texnologiyasiga asosan layoqatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlash joiz. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim menejerlarining pedagogik-boshqaruv kompetensiyasini shakllantirishda bunday individual maxsus kurslarning amaliy natijadorligini idrok etish taqozo etiladi. Xorijiy mamlakatlar oliy pedagogik ta'lim muassasalarining har birida tajribali professor-o'qituvchilarning individual maxsus kurslari faoliyat yuritmoqda. Bunday tajribalarni o'zlashtirib milliy pedagogik asoslarga binoan amaliyotga joriy etish muhim samarani beradi.

Bunday maxsus kurslarni quyidagi shakllarda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi:



a) professor-o'qituvchilarning shaxsiy tashabbuslari bilan tashkil etiladigan maxsus kurslar;

b) oliy pedagogik ta'lim muassasasining taklifi bilan tashkil etiladigan maxsus kurslar;

v) mavjud ehtiyojlarga asosan tashkil etiladigan maxsus kurslar.

Professor-o'qituvchilarning shaxsiy tashabbuslari bilan tashkil etiladigan maxsus kurslarda asosiy e'tiborni menejerlik asoslarining nazariy bilimlarini berishga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki oliy pedagogik ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari kasbiy-nazriy bilimlarni berish bo'yicha o'ziga xos tajribaga ega va bu tajriba asosida ular o'zlari tomonidan tashabbus asosida tashkil etiladigan maxsus kurslarda menejerlik nazariyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarni berish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Bu vosita amaliy jihatdan nihoyatda samaradorlikka ega bo'lib, uning asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining kasbiy bilim darajasi kengayadi va boshqaruvchilik layoqati ilmiy asosda rivojlanib boradi. Bu hol muhim ahamiyatga egadir.

Keyingi paytlarda oliy pedagogik ta'lim muassasalarimizning o'quv jarayonini individual yondashuv texnologiyasi asosida kengaytirish tajribasi oshib bormoqda. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim muassasasi "Boshlang'ich ta'lim menejerlik asoslari" qisqa muddatli maxsus kursini tashkil etish tashabbusi bilan chiqishi mumkin. Bundan maqsad bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining professional tayyorgarlik darajasini chuqurlashtirish, ularning menejerlik kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni menejerlik faoliyatiga tezkor ravishda tayyorlash nazarda tutiladi. Buning natijasida oliy pedagogik ta'lim muassasalari tashabbusi bilan tashkil etiladigan maxsus kurslarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlariga boshqaruvning liberal (iltifotli) uslubi bo'yicha kompetensiyasini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki boshqaruvning liberal uslubi aynan boshlang'ich ta'lim menejerligida eng muhim boshqaruv uslublaridan biri va tayanchi hisoblanadi. Shu jihatdan bunday

maxsus kurslarning mashg'ulotlarini o'tkazuvchi mutaxassislarning tarkibi oliy pedagogik ta'lim muassasasi tomonidan belgilanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jamiyatimiz innovatsion rivojlanish sharoitida muayyan kasbiy kompetensiyalar bo'yicha tezkor va samarali maxsus kurslarni tashkil etish ehtiyojlari yaqqol namoyon bo'lib bormoqda. Shu jihatdan oliy ta'lim tizimini boshqaruvchi davlat muassasasi tashabbusi bilan menejerlik asoslari bo'yicha maxsus kurslarni tashkil etish imkoniyatlari ham mavjud. Bunday kurslarda bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining boshqaruvning demokratik (bamaslahat) uslubi bo'yicha kompetensiyalarini shakllantirish kutilgan samarani beradi. Chunki innovatsion jamiyat sharoitida boshlang'ich ta'limni sifat darajasiga erishishda unga demokratik uslub nuqtai nazaridan ustuvor darajada yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'limni boshqaruvchi davlat organlari tomonidan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining demokratik uslub kompetensiyasini shakllantiruvchi maxsus kurslarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Diqqat qilinsa, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bunday maxsus kurslar vositasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash imkoniyatlari mavjud. Shu jihatdan bunda professor-o'qituvchilarning faol ishtiroki taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda o'qituvchilarning maxsus kurslari eng muhim amaliy vositalardan biridir. Chunki tajribali o'qituvchilar aynan o'zlarining individual maxsus kurslarida faoliyati davomida amal qilib kelayotgan bilimlar ko'lami, individual metodikasi va tajribasini talabalarga uzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu borada Rossiya Federasiyasi oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining o'ziga xos tajribasi mavjud. Mazkur tajribaga ko'ra, har bir professor-o'qituvchi o'zining yo'nalishi bo'yicha individual maxsus kurslarini butun o'quv yili davomida yuritadi va bunday maxsus kurslar talabalarning vaqt omiliga asosan mashg'ulotlarni amalga oshiradi. Shuningdek, bu maxsus kurslarning ochiqlik tamoyiliga asoslanishi ularda talabalarning ixtiyoriy



ishtiroki, muammo bilan qiziquvchilarning ham ishtirok etishi va maxsus kurslarning faoliyatini xolis baholab borish imkoniyatlarini beradi. Bunday maxsus kurslarning eng muhim yutuqlari ta'lim boshqaruvi rahbariyati tomonidan muntazam ravishda rag'batlantirib boriladi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, tajribali professor-o'qituvchilarning individual maxsus kurslarini tashkil etish va ularda menejerlik asoslari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish talabalarga keng imkoniyatlar beradi. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday maxsus kurslarning rahbari muayyan mutaxassislarni taklif etgan holda mashg'ulotlarni o'tkazishi mumkin. Buning natijasida talabalarni menejerlik asoslari bilan tanishtirish, ularni turli ma'lumotlar bilan qurollantirish va talabalarning tashabbuslarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Demak, o'qituvchilarning individual maxsus kurslarida o'qituvchi, maxsus kursning ishtirokchilari va taklif etiladigan mutaxassislar faoliyatining natijasi sifatida boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslarini o'zlashtirish jarayoni amaliy tus oladi. Bizningcha bunday shakllardan oqilona foydalanish kutilgan samarani berib boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda o'ziga xos amaliyotga ega bo'lish imkonini beradi.

***3. Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda qo'shma maxsus kurslarni tashkil etish metodikasi.*** Oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning qo'shma maxsus kurslarini tashkil etish vositasi ham muhim ahamiyatga ega. Bunday qo'shma maxsus kurslarning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

a) boshqaruv kadrlari tayyorlovchi ta'lim muassasalari bilan birgalikda tashkil etiladigan qo'shma maxsus kurslar;

b) klaster tizimi vositasi tashkil etiladigan maxsus kurslar;

v) xorijiy hamkorlar bilan tashkil etiladigan maxsus kurslar.

Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalari professional tayyorgarlikka ega va oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash jarayonini amalga oshirmoqda. Ana shu oliy ma'lumotli mutaxassislarni boshqaruv kadrlari sifatida

sohalar bo'yicha tayyorlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi maxsus ta'lim tashkilotlari ham muhim ta'lim jarayonini amalga oshirmoqda. Ulardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi bo'lib, unda barcha sohalar bo'yicha boshqaruv kadrlar tayyorlanadi. Shu jihatdan mazkur ta'lim muassasasida oliy pedagogik ta'lim muassasalari qo'shma kurslar tashkil etib, ular vositasida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash imkoniyatlari ham mavjudligini ta'kidlash lozim. Bunday qo'shma kurslarda menejerlikning kompetensiyalariga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlash malakasini amaliy jihatdan tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki boshqaruv kadrlari tayyorlovchi ta'lim muassasalari bu borada o'ziga xos tajribaga ega bo'lib, ular me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, ularni takomillashtirib borish va ularga asosan boshqaruvni amalga oshirish faoliyati bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni berish bilan shug'ullanadi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari dastlabki manba asosida boshqaruv madaniyati asoslarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Chirchiq davat pedagogika universitetining tashabbusi bilan mamlakatimizda o'qitishning klaster tizimi tarkib topdi. Shu jihatdan klaster tizimi vositasida qo'shma maxsus kurslar tashkil qilib, bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash imkoniyatlari ham keng ahamiyatga ega. Bunday kurslarda ta'lim muassasalarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, bo'lajak menejerlarning jamoa bilan hamkorlikda ishlash, tajribali mutaxassislarning imkoniyatlaridan foydalanish va muayyan muammolarni hal etishda klaster ishtirokchilari bilan ham hamkorlik qilish kompetensiyalarini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Klaster shalidagi maxsus qo'shma kurslar asosiy e'tiborni amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratishi bilan muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan bunday kurslarda bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari o'zlashtirgan nazariy boshqaruv kompetensiyalarini klasterda ishtirok etuvchi ta'lim muassasalarida amaliy sinovdan o'tkazish imkoniyatlariga ega bo'ladi.



Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari amaliy tajribaga ega bo'lgan xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalari bilan keng hamkorlikni amalga oshirmoqda. Shu jihatdan bunday hamkor xorijiy ta'lim muassasalari bilan birgalikda boshlang'ich ta'lim menejerlari kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda xorijiy hamkorlar o'zlarining ta'lim tizimida amalga oshirilgan va oshirilayotgan boshlang'ich ta'lim boshqaruviga oid tajribalar bo'yicha kompetensiyalarni tarkib toptirish vazifasini bajaradi. Natijada bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining menejerlik asoslari bo'yicha xorijiy tajribalarni o'zlashtirish ko'nikmalari rivojlanadi hamda ularning kelgusi faoliyati bu kompetensiyalardan foydalanish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Diqqat qilinsa, bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning qo'shimcha maxsus kurslar shakli muhim amaliy imkoniyatlarni beruvchi ta'lim jarayonidir. Eng asosiysi bunday kurslar ko'p mablag' talab etmasligi bilan muhim ahamiyatga ega.

E'tibor berilsa, bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiyasi asosida tayyorlashning maxsus kurs metodikasi amaliyotga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Bunday imkoniyatlardan foydalanish vositasida professional kompetensiyalarga ega bo'lgan boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash mumkin. Ta'kidlash lozimki mazkur maxsus kurs metodikasi imkoniyatlari individual yondashuv texnologiyasiga asoslanishi bilan belgilanadi. Chunki tahlil etilgan har bir maxsus kurs shaklida ta'lim oluvchilar bilan bevosita individual shug'ullanish amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning qo'shma maxsus kurslari shunday imkoniyatlarga egaki, unda xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarining tajribalarini o'rganish mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizning har bir hududida xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarining hududlari yoki maxsus institutlari faoliyat yuritmoqda. Bunday imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda ularda faoliyat yuritayotgan xorijlik

professor-o'qituvchilar va mutaxassislar ishtirokida qo'shma maxsus kurslar tashkil etib, unda talabalarning ixtiyoriy ishtiroki asosida ta'lim menejerligi asoslari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni berish amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Bunday qo'shma maxsus kurslarda xorijlik mutaxassislarning ishtirok etishi ma'lumotlarning boyligi, xorijiy ta'lim muassasalarining tajribasini taqdim etishi va qiziqarliligi bilan keng imkoniyatlarga bo'linadi. Ayni paytda, bunday maxsus kurslarda talabalarning faol ishtirok etishi ham kuzatiladi. Chunki ularda muayyan masalalar bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish yuqori ekanligi ma'lum.

Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning qo'shma maxsus kurslarini tashkil etishda grantlar va homiylik mablag'laridan foydalanish ularning samaradorligini ta'minlaydi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ko'pgina xorijiy ta'lim muassasalari turli kurslarni tashkil etish ishini birlamchi biladi va bundan maqsad ular o'z tajribalarini targ'ibot qilishdir. Shuningdek, ko'p hollarda xorijiy ta'lim muassasalari muayyan yo'nalishlar bo'yicha maxsus kurslarni o'zlarining mablag'lari hisobiga tashkil etish ham kuzatiladi. Bunday imkoniyatlardan foydalanish uchun boshlang'ich ta'lim mas'ullari tashabbuskor bo'lishi, maxsus kursning dasturini ishlab chiqishi va takliflar mazmuni tayyorlashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Asosiy masala bo'lajak menejerlarning xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida menejerlik faoliyati bo'yicha nazariy bilim va ko'nikmalarini kutilgan darajada rivojlantirishdan iborat.

Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiyasi asosida tayyorlashning maxsus kurs metodikasi oliy pedagogik ta'lim muassasalarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, pedagog kadrlarni tayyorlash ko'lamini kengaytirib borish va eng asosiysi yangi yo'nalishlar bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash vositalariga asoslanadi. Bunday imkoniyatlardan samarali foydalanish va ularning ilmiy-nazariy hamda metodik mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.



## 2.2. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiyasi asosida tayyorlashning amaliy to'garak metodikasi

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi mazkur ta'lim bosqichida sifatga erishish va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning ko'nikmalarini yangicha asoslarda shakllantirish bilan belgilanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim jarayonini munosib tashkil etish va uning boshqaruvini innovatsion jamiyat islohotlariga mos ravishda amalga oshirish taqozo etiladi. Bunda boshlang'ich ta'lim menejerlarining faoliyati ham muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari menejmentlar tayyorlash bo'yicha tajribaga ega. Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan menejerlar tayyorlash vazifasi qo'yildi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning *muqobil* metodlarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Shu ma'noda bu o'rinda e'tiboringizni ana shunday muqobil metodlardan biri individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning *amaliy to'garak metodikasi* tahliliga tortamiz.

1. ***Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning maqsadli amaliy to'garak metodikasi***. Ushbu metodikaga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim muassasasi tomonidan talabalarning ixtiyoriy ishtiroki asosida maqsadli amaliy to'garak tashkil etiladi. Bunday to'garak dasturida boshqaruv asoslari, metodikasi, texnologiyasi va amaliyoti bo'yicha maxsus treninglar vositasida mashg'ulotlar o'tkaziladi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarida boshqaruv madaniyati kompetensiyasini shakllantirishga erishiladi. Misol uchun, bunday to'garaklar mashg'ulotlarida bo'lajak menejerlarning jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularni mustaqil qaror qabul qilishga odatlantirish va eng murakkab vaziyatlarda to'g'ri yechim topa olish layoqati bilan qurollantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli bunday to'garaklar maqsadli va amaliy sifatlari bilan ataladi.

Maqsadli amaliy to'garak mashg'ulotlarini tajribali professor-o'qituvchilar yoki tajribali boshqaruv xodimlari olib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, tajribali maktab direktorlarining bunday to'garaklar vositasida tajribalarini o'rganish va o'zlashtirish yoki ularni to'garak mashg'ulotlariga jalb etish kutilgan samarani beradi. Buning eng yaxshi imkoniyatlaridan biri oliy pedagogik ta'lim muassasalariga biriktirilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining tajribali o'qituvchilar bilan hamkorlik qilishdan iborat. Shuni ta'kidlash lozimki, maxsus amaliy to'garaklar muntazam ravishda faoliyat yuritish va unda boshqaruv madaniyati kompetensiyasini o'zlashtirish uchun o'ziga xos laboratoriya jarayonini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talabalar o'zlarining kasbiy kompetensiyalarini yo'naltirish bo'yicha keng ko'lamli qiziqishlarga ega. Aynan mana shunday intilishlardan oqilona foydalangan holda maqsadli amaliy to'garaklarni tashkil etish ularni faollashtiradi. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatalari oliy pedagogik muassasalarida bunday to'garaklar faoliyati butun yil davomida davom etadi. To'garakda ishtirok etish uchun kelgan yangi talabalar maxsus guruhlarga biriktiriladi va buning natijasida bir to'garakda bir necha guruh faoliyat yuritadi. Bunday guruhlar boshqaruv kompetensiyasi masalalari bo'yicha o'zaro bellashish imkoniyatlariga ham ega bo'lishadi. Shu ma'noda bunday tajribalarni o'rganib, maqsadli amaliy to'garaklar tashkil etish va ular vositasida kasbiy yetuk boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash imkoniyatlari mavjud ekanligini eslatib o'tish joiz.

Maqsadli amaliy to'garaklar ta'lim muassasasining Kengashi tomonidan tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday to'garaklar quyidagi shaklda faoliyat yuritishi bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi:

a) ochiqlik;

b) erkinlik;

v) tashabbuskorlik.



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda maqsadli amaliy to'garaklar ochiq faoliyat yuritishi kutilgan samarani beradi.Chunki bunday to'garaklarda talabalar ixtiyoriy ishtirok etishi, to'garak mashg'ulotlariga turli shaxslarning murojaat qilishi va to'garaklarning muntazam faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalar o'z vaqtlari va imkoniyatlari doirasida muntazam ya'ni vaqt me'yoriga qaramasdan faoliyat yuritadigan to'garaklarda faol ishtirok etishi kuzatilgan. Chunki talabalarning muayyan to'garaklardagi faoliyati ularning faoliyatiga amaliy ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Shu sababli maqsadli amaliy to'garaklarning vaqt me'yori talabalarning taklifiga asosan belgilanishi muhimdir.

Maqsadli amaliy to'garaklarning mashg'ulotlari erkinlik tamoyili asosida tashkil etilishi kerak. Unda mavzularni erkin tanlash, o'quv materiallarini muntazam yangilab borish va boshqaruv asoslari bo'yicha izchil amaliy treninglar o'tkazish muhimdir. Shu sababli ta'lim muassasasi ma'muriyati bunday to'garaklarning mashg'ulotlarini eriknlik tamoyili asosida tashkil etishi, ularga kerakli shart-sharoitlarni yaratib berishi va to'garaklar samaradorligini o'rganib borishi zarur hisoblanadi. Bunday yondashuv asosida maqsadli amaliy to'garaklar vositasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining boshqaruv ko'nikmalarini kutilgan darajada shakllantirish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda maqsadli amaliy to'garaklar tashabbusi asosida tashkil etilishi muhimdir. Unga ko'ra, talabalarning takliflari va fikrlari asosida to'garaklarning mashg'ulot mavzulari tanlanishi, tajribali boshqaruv xodimlarining maslahatlari uyushtirilishi va o'zlashtirilgan nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog'lanishi muhim ahamiyatga ega. Chunki boshlang'ich ta'lim boshqaruvi menejerlardan tashabbusli faoliyatni taqozo etadi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari boshqaruv asoslari bo'yicha turli tashabbuskor g'oyalar, takliflar va ishlanmalar ishlab chiqishni aynan maqsadli amaliy to'garaklarda o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun

ta'lim muassasasi ma'muriyati va o'qituvchilari muntazam ravishda yangilikga intilishi taqozo etiladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning maqsadli amaliy to'garak metodikasida o'ziga xos yondashuvlar va imkoniyatlar mavjud. Bunday imkoniyatlardan ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar hamkorlikda foydalanishi tavsiya etiladi.

2. ***Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning muddatli to'garaklar metodikasi.*** Mazkur metodikaga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim muassasasida kamida bir oy davom etadigan menejerlik to'garaklar tashkil etiladi. Bunday to'garaklarning o'quv mashg'ulotlari dasturlari professional boshqaruv kadrlari tomonidan ishlab chiqiladi va ular tomonidan professor-o'qituvchilar bilan hamkorlikda to'garak faoliyati yuritiladi. Bunday muddatli to'garaklarda mashg'ulotning eng asosiy turi trening hisoblanadi. Bunda to'garak ishtirokchi talabalari guruhlarga bo'linib, menejerlik asoslari masalalari bo'yicha taqdimotlar tayyorlashadi va uni to'garakda himoya qilishadi. Shu tariqa to'garakdagi bir necha guruhlar bir necha mavzularda taqdimot tayyorlashi bilan keng ko'lamli mavzularni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Xorijiy mamlakatlardan Fransiya Respublikasi oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bir oydan uch oygacha muddatda faoliyat yuritadigan muddatli to'garaklar muntazam tashkil etib boriladi. Ko'p hollarda to'garaklarning mashg'ulotlarini taklif etilgan professional boshqaruv kadrlari amalga oshiradi va bunda oliy pedagogik ta'lim muassasasining vakillari metodik ta'minot vazifasini bajaradi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari boshqaruv kompetensiyasini amaliy jihatdan o'zlashtiradi.

Bunday metodika nisbatan yangi bo'lganligi uchun muddatli to'garaklar mexanizmlarini ishlab chiqish taqozo etiladi. Shu jihatdan bu borada iqtidorli talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish va tajribali professor-o'qituvchilarning individual metodlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, maqsadli to'garaklar xorijiy mamlakatlarda ta'limdan manfaatdor tashkilotlar va shaxslar tomonidan moliyalashtiriladi. Misol uchun muayyan ta'lim muassasasi boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash bo'yicha taklif kiritishi va o'zlariga kerakli bo'lgan menejerlar miqdorini tayyorlab berish to'g'risida bunday to'garaklar faoliyati moliyalashtiriladi. Buning natijasida ta'lim muassasasi professional boshlang'ich ta'lim menejeri faoliyati tufayli aynan shu ta'lim bosqichini rivojlantirishga erishadi. Bu hol O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "kadrlar tayyorlash uchun ajratilgan mablag' ertaga milliardlab kapital sifatida qaytadi" mazmunidagi fikrini eslatadi. Shu jihatdan bunday tajribalarni o'rganish va ular asosida ta'lim muassasalarining hamda ta'limdan manfaatdor tashkilotlarning faolligini oshirish, professional boshlang'ich ta'lim menejeriga ega bo'lish imkoniyatlarini beradi. Bunday tajribadan milliy oliy pedagogik ta'lim jarayoniga tadbiq etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning muddatli to'garaklar metodikasida vaqt me'yori, ehtiyojlar va takliflar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish muhim o'rin tutadi. Shu sababli bunday to'garaklarni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) to'garaklarning aniq muddatga ega bo'lishi;

b) to'garak mashg'ulotlarining qisqaligi va samaradorligi;

v) to'garak mashg'ulotlarining zamonaviy texnologiyaga asoslanishi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda muddatli to'garaklar aniq vaqt me'yoriga ega bo'lishi kerak. Tajriba shuni ko'rsatadiki, 15 yoki 30 kunlik muddatga ega to'garaklarning faoliyati samarali hisoblanadi. Chunki bunda eng so'nggi ma'lumotlarga asoslanish xususiyati mavjud bo'lganligi uchun ular aniq vaqt me'yoriga asoslanadi. O'z navbatida talabalar ham muddatli to'garaklarda faol ishtirok etishi taqozo etiladi va mashg'ulotlarda ishtirok etmaslik ularning boshqaruv asoslari bo'yicha bilim va ko'nikmalari talab darajasida shakllanmasligiga olib keladi. Shu sababli muddatli to'garaklarning bunday xususiyatdan kelib chiqgan holda xorijiy mamlakatlarda ulardan unumli

foydalaniladi. Maqsad – tezkor ravishda kerakli bilim va ko'nikmani to'garak ishtirokchilarida shakllantirishdir. Shuningdek, muddatli to'garaklarning navbatdagi mashg'ulotlarida butunlay yangi ma'lumotlarga va texnologiyalarga asoslanish imkoniyatlari mavjudligini eslatib o'tish joiz. Demak, boshlang'ich ta'lim menejerlarining boshqaruv malakalarini tezkor shakllantirishda vaqt me'yoriga amal qiluvchi muddatli to'garaklar imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda muddatli to'garaklar mashg'ulotlari qisqalik va samaradorlik tamoyiliga asoslanishi kerak. Bugungi kunda bu borada texnik jihozlar imkoniyatlaridan foydalangan holda talabalarning boshqaruv bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonining asoslari, xususiyatlari, boshqaruv metodikasi va uning samaradorligi bo'yicha kompyuter kabi texnik jihozlarga asoslangan ko'nikma va malakalarni berish muddatli to'garaklarning muhim asoslaridan biridir. Texnik jihozlarga asoslangan mashg'ulotlar qiziqarliligi, keng ko'lamga egaligi va talabalarni qiziqtirishi bilan amaliy xususiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalaridan imkoniyatlaridan foydalangan holda muddatli to'garaklarni masofadan turib o'tkazish imkoniyatlari ham mavjud. Chunki mamlakatimizning shahar hududlarida tajribali pedagoglar va boshqaruv hodimlari faoliyat yuritayotganligi, ularning bunday imkoniyatlaridan ommaviy foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi zamon jamiyatimizning innovatsion rivojlanish sharoitida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida muddatli to'garaklar vositasida tayyorlash dolzarb bo'lib turibdi. Bunday texnologiyalarni tanglashda talabalarni fikrlashga, mustaqil izlanishga, tashabbuskorlikka va xarakatchanlikka dav'at etuvchi xususiyatlarga e'tibor berish kerak. Misol uchun, onlayn tarzdagi zamonaviy texnologiya masofadan turib va ko'rgazmali ravishda boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning eng muhim



vositalaridan biridir. Buning uchun to'garaklar o'quv materiallari texnik jihozlar imkoniyatlaridan kelib chiqib joylashtiriladi va mashg'ulotlar tasvirli ravishda amalga oshiriladi. Buning natijasida mamlakatimizning eng chekka hududlaridagi ta'lim muassasalari o'qituvchilari bilan boshlang'ich ta'lim boshqaruvi asoslari bo'yicha kutilgan darajada aloqaga kirishish yoki viloyatlarda faoliyat yuritayotgan oliy pedagogik ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari boshqaruv ko'nikmalarini masofadan turib shakllantirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Shu sababli real sharoit va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda eng qulay zamonaviy imkoniyatlarni tanlash bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning asosi hisoblanadi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning muddatli to'garaklar metodikasi ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning faolligiga asoslanadi. Bunda ta'lim beruvchilar mashg'ulotlarning o'quv materiallarini zamonaviy texnologiyalar asosida boyitib va takomillashtirib borishi eng muhim xususiyatdir.

3. ***Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning tashabbusli to'garak metodikasi.*** Mazkur metodikaga ko'ra, talabalar yoki manfaatdor shaxslarning tashabbusi asosida muddatli va tezkor faoliyat yuritadigan tashabbusli to'garaklar tashkil etiladi hamda ular vositasida menejerlik kompetensiyasining muayyan masalasi bo'yicha to'garak ishtirokchilarining ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Misol uchun, bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonida tezkor qaror qabul qilish kompetensiyasiga ega menejerlarga ehtiyoj mavjud. Chunki boshlang'ich sinflarning darsliklari muntazam ravishda yangilanib bormoqda va aynan yangi darsliklarni o'zlashtirish jarayonida tezkor qaror qabul qilishga bo'lgan extiyojlar yuzaga kelmoqda. Masalan, mualliflar guruhi tomonidan tayyorlanib 1-4-sinflarga joriy etilgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" yangi darsligida so'z turkumlariga berilgan qoidalari tizimi mavjud emas. Bunda o'quvchilar taqdim etilgan muayyan matn asosida so'z turkumlariga mustaqil ta'rif berish faoliyatini amalga oshiradi. Shu sababli ba'zida bu hol katta yoshli va tajribali boshlang'ich sinf

o'qituvchilarining e'tiroziga sabab bo'lmoqda. Demak, boshlang'ich ta'lim boshqaruvi jarayonida real sharoitdan kelib chiqib tezkor qaror qabul qilish va bunday holatda o'qituvchilarga so'z turkumlariga ta'rif berish vazifasini yuklash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday qaror boshlang'ich ta'lim menejeri tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi.

Menejerlar tayyorlashning tashabbusli to'garagi bo'yicha xorijiy mamlakatlardan Buyuk Britaniyaning o'ziga xos tajribasi mavjud. Bu tajribaga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bir haftalik yoki o'n kunlik tashabbusli to'garaklar tashkil etiladi hamda ularning mashg'ulotlarini menejerlik kasbiga ega shaxslar olib boradi. Bunday to'garaklarda menejerlik kompetensiyasining eng dolzarb muammolari bo'yicha qisqa muddatli ma'ruzalar o'qiladi va o'qilgan ma'ruzalar asosida to'garak ishtirokchilari amaliy topshiriqlarni bajaradi. Shunisi e'tiborga loyiqki, bunday to'garaklar faoliyati ochiq bo'lib, bunda talabalardan tashqari muammo bilan qiziquvchi har qanday shaxs ishtirok etishi mumkin. Shu sababli bunday to'garaklarning mashg'ulotlari qiziqarli va amaliy jihatdan ta'sirli o'tadi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, tashabbusli to'garaklarda ko'p hollarda nafaqaga chiqgan va avval rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritgan shaxslar qisqa muddatli ma'ruzalar bilan ishtirok etadi. Professor-o'qituvchilar esa bu to'garaklarda moderator vazifasini bajaradi.

E'tibor berilsa, individual yondashuv texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning amaliy to'garak metodikasi o'ziga xos vosita ekanligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan mazkur to'garaklarda individual yondashuv texnologiyasining shakllariga e'tibor bering:

- to'garaklar ishtirokchilarining son jihatidan miqdori cheklangan bo'lib, ko'pi bilan 12 nafarni tashkil etadi;
- to'garak ishtirokchilarining bunday cheklangan miqdorda bo'lishi, ularning har biri bilan individual shug'ullanish imkoniyatini beradi;



- to'garak ishtirokchilari amaliy topshiriqlar, ishlanmalar, jihozlar va uskunalar yaratib taqdim etishi natijasida o'zlarida shakllangan individual ko'nikmalarini namoyon qiladi;
- buning natijasida to'garakarning amaliy samaradorligi, qiziqarligigi va har bir to'garak ishtirokchisining tashabbusini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bunday tajribalar aynan to'garaklar vositasida individual yondashuv texnologiyasini qo'llash va uning vositasida professional boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning o'ziga xos imkoniyatlarini beradi. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko'ra, amaliy to'garaklar metodikasidan foydalangan holda bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning tashabbusli to'garak metodikasi quyidagi xususiyatlari bilan kutilgan samarani berishi bilan ko'zga tashlanadi:

a) ta'lim oluvchilarning faolligi;

b) tajribali boshqaruv xodimlarining faolligi;

v) ta'lim muassasasining faolligi.

Ta'lim oluvchilarning faolligi o'zlari taklif qilgan to'garak faoliyatini tashkil qilishda faol ishtirok etishi bilan belgilanadi. Bunda talabalar turli ishlanmalar, yaratmalar va jihozlar vositasida tashabbusli to'garak mashg'ulotlarini o'tkazilishida ishtirok etadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talabalarning ko'pchiligida o'ziga xos va orginal ishlanmalar yaratish layoqati mavjud. Mana shunday imkoniyatlardan foydalangan holda ularni boshlang'ich ta'lim boshqaruvi asoslari bo'yicha ishlanmalar yaratishga yo'naltirish amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Chunki talabalarning ishlanmalari to'garaklar mashg'ulotlarining qiziqarliligi, samarali va kutilgan darajada o'tilishiga asos bo'ladi. Shu sababli xorijiy mamlakatlar, jumladan, Rossiya Federasiyasi oliy pedagogik ta'lim muassasalarida turli yo'nalishlar bo'yicha tashabbusli to'garaklar faoliyatini yo'lga

qo'yish va ularning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish tajribasi mavjud. Shu jihatdan mamlakatimiz oliy pedagogik ta'lim muassasalarida talabalarning tashabbuslari asosida turli yo'nalishlar, jumladan, menejerlik asoslari bo'yicha to'garaklar tashkil etish eng muhim va qulay vositalardan biridir.

O'rganishlar jarayoni shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlarda tajribali boshqaruv xodimlari bevosita oliy pedagogik ta'lim muassasasi bilan hamkorlikda to'garaklar tashkil etadi. Bundan maqsad o'zining boshqaruv bo'yicha tajribasi va metodikasini ta'lim oluvchilarga yetkazishdir. Shu ma'noda mamlakatimizning tajribali boshqaruv xodimlarini tashabbusli to'garaklar tashkil etishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi va bunday xodimlar barcha hududlarda mavjud ekanligini eslatib o'tish joiz. Agar muayyan tajribali boshqaruv xodimining to'garagi tashkil etilib, u ommalashtirilsa bu tajriba mamlakat miqyosida faoliyat yuritish imkonini beradi. Natijada tajribal boshqaruv xodimlarimiz oliy pedagogik ta'lim muassasasi bilan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash bo'yicha hamkorlik qilish ko'nikmasi tarkib topadi. Chunki bunday toifa xodimlar amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor berishi bilan to'garaklar faoliyatida muhim o'rin tutadi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning tashabbusli to'garak metodikasida oliy ta'lim muassasasining faolligi va tashabbuskorligi muhimdir. Chunki mamlakatimiz oliy pedagogik ta'lim muassasalari moliyaviy va akademik mustaqillik tamoyillariga asosan turli yo'nalishlarda o'quvlar, to'garaklar yoki mashg'ulotlar tashkil etish huquqiga ega. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim muassasasining tashabbuskorligi vositasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash bo'yicha to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish samarali hisoblanadi. Bunday faoliyat ko'p miqdordagi moliyaviy mablag' talab qilmaydi, aksincha, ichki imkoniyatlar vositasida bunday to'garaklarni tashkil etish mumkin. Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik ko'lami kengayadi va ularda boshqaruv bo'yicha ko'nikma tarkib topadi.



E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning tashabbusli to'garak metodikasida individual yondashuv ustuvor turadi. Chunki to'garak mashg'ulotlarida har bir ishtirokchi talaba bilan individual shug'ullanish imkoniyatlari mavjud.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiyasi asosida tayyorlashda amaliy to'garak metodikasi keng imkoniyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi. Bunda eng asosiysi talabalarning faolligi birlamchi hisoblanadi. Shu sababli mazkur metodikani o'rganish va o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib individual yondashuv texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning amaliy to'garak metodikasida maqsadli to'garak, muddatli to'garak va tashabbusli to'garak asosiy shakllardan hisoblanadi. Bu to'garaklar moliyaviy jihatdan ko'p xarajat talab qilmasligi, unda manfaatdor shaxslarning faol ishtirok etishi va amaliyotga yo'naltirilganligi bilan diqqatni tortadi. Mazkur masalalar bo'yicha yangi ilmiy tadqiqotlarni dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

***

Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash nazariyasi va metodikasining modellashtirilgan tizimiga e'tibor bering:




*1-rasm. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash nazariyasi va metodikasi asoslari.*



# III. BOB. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanish mexanizmlari

## 3.1. O'quv fanlarini o'qitish jarayonida foydalanish mexanizmi

Mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash va ularning faoliyati vositasida mazkur ta'lim bosqichining sifat ko'rsatikichlarini yuksaltirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bunda menejerlar ta'lim sifatini oshirishda tashkiliy, boshqaruv va iqtisodiy imkoniyatlarni yaratuvchi omil eknaligi bilan muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan bu o'rinda e'tiboringizni individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejyerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanish mexanizmlari tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

1. ***Laboratoriya mexanizmi***. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanishning muhim mexanizmlaridan biri laboratoriya ishidir. Unga ko'ra, o'quv fanlarini o'qitish jarayonida Menejerlik asoslari bo'yicha laboratoriya ishlarini tashkil etish muhim hisoblanadi. Chunki laboratoriya ishi "tajribalar va amaliy ishni bajarish hamda o'rganishni tarkib toptiruvchi muhim ta'limiy-amaliy jarayondir".[9] Shu sababli laboratoriya ishlari vositasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining boshqaruv bo'yicha tajribalari va amaliy ish faoliyatini shakllantirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Bunda muayyan mavzular yoki muammolar bo'yicha talabalarga topshiriqlar beriladi, topshiriqlarning natijalari talabalar ishtirokida muhokama qilinadi va baholanadi. Shu sababli laboratoriya ishlarining maqsadi, unga ajratiladigan vaqt va tegishli adabiyotlar ro'yhati kabi masalalar professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, laboratoriya mashg'ulotlari vositasida talabalarni faollashtirish, ularni mustaqil faoliyatga tayyorlash va tafakkurini kutilgan darajada o'stirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Shu jihatdan menejerlik asoslari bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlarida talabalarga quyidagi mavzular bo'yicha topshiriqlar

[9] Hasanboyeva J.va boshq.Pedagogika fanidan izohli lug'at.-Toshkent,2009.241-bet

berish va bu topshiriqlarni amaliy mashg'ulotlar jarayonida bajarishga o'rgatish bilan ularning boshqaruv ko'nikmasini shaklantirish imkoniyatlariga ega bo'linadi (namuna):

1. Menejerlik tushunchasi mazmuni
2. Menejerlik nazariyasining asosiy xususiyatlari
3. Menejerlik asoslarini individual yondashuv texnologiyasi asosida o'zlashtirish
4. Menejerlik faoliyatida individual yondashuv texnologiyasi mohiyati
5. Menejerlik asoslarini o'zlashtirish metodikasi
6. Menejerlik asoslariga doir eng muhim adabiyotlar
7. Tajribali menejerlar to'g'risida ma'lumotlar
8. Mening menejerlik orzuim
9. Menejerlik bo'yicha eng yaxshi loyiha
10. Pedagogning menejerlik faoliyati va h.k.

Bunday mavzular laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida tahlil qilinishi, ular bo'yicha ishlanmalar yaratilishi va talabalarning eng loyihalarini tanlash imkoniyatlariga ega bo'linadi. Bunda professor-o'qituvchilar mavzular va muammolar bo'yicha topshiriqlar berish, talabalarni yo'naltirish va tegishli adabiyotlar to'g'risida ma'lumot berish vazifasini bajaradi. Bo'lajak menejer talabalar esa laboratoriya ishlarini mustaqil va ijodiy ko'nikmalariga tayangan holda bajarishadi hamda o'zlarining yangi loyihalarini taqdim etishadi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarida mustaqil izlanish, muammoni aniqlash va hal qilish, yangi ishlanmalar yaratish hamda tashabbuskor faoliyat ko'rsatish ko'nikmalari amaliy jihatdan shakllanadi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda, jumladan, Rossiya Federasiyasi oliy pedagogik ta'lim muassasalarida laboratoriya mashg'ulotlarining imkoniyatlaridan keng foydalanishga e'tibor beriladi. Bunda asosiy e'tibor laboratoriya mashg'ulotlarining amaliyotga yo'naltirilganligiga qaratiladi.



Laboratoriya mashg'ulotlari o'quv fanlarini o'qitish jarayonidan tashqari vaqtlarda va talabalarning vaqtlarini hisobga olgan holda hisobga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki asosiy maqsad bo'lajak pedagog menejerlarning boshqaruv madaniyati bo'yicha ko'nikmalarini amaliy jihatdan tarkib toptirishdir.

Laboratoriya ishlari mexanizmi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash nazariyasi va metodikasidan foydalanish bo'yicha individual yondashuv texnologiyasiga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda har bir talaba tomonidan bajarilgan laboratoriya ishlari jamoaviy tarzda muhokama qilinishi, bajarilgan ishning yutuq va kamchiliklari baholanishi hamda eng muhim ishlarini amaliyotga joriy etish muhim masalalardan hisoblanadi. Chunki individual yondashuv texnologiyasi talabalarning layoqati va faolligidan qat'iy nazar ular bilan kutilgan darajada shug'ullanishni taqozo etadi. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko'ra, har bir oliy pedagogik ta'lim muassasasida Menejerlik asoslari bo'yicha talabalarning laboratoriya markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday markazlar bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining ko'nikmalarini amaliy shakllantirishda fikr almashish maydoni bo'lib xizmat qiladi.

Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan o'quv fanlarini o'qitish jarayonida foydalanish mexanizmida laboratoriya ishlari muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan laboratoriya mexanizmining quyidagi xususiyatlariga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) boshlang'ich ta'lim menejerligi bo'yicha tajribalarni o'rganish;

b) boshlang'ich ta'lim boshqaruvi bo'yicha usullarni sinovdan o'tkazish;

v) boshlang'ich ta'lim menejerligiga doir amaliy ishlarni bajarish.

O'quv fanlarini o'qitish jarayonida laboratoriya mashg'ulotlari vositasida boshlang'ich ta'lim menejerligi bo'yicha tajribalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Mazkur masala bo'yicha mamlakatimizda boshlang'ich ta'limni umumta'lim negizida tashkil etish va boshqarish tajribasi mavjud. Unga ko'ra, umumta'lim

negizining boshlang'ich ta'lim bosqichi me'yoriy hujjatlar va pedagogik yondashuvlar asosida boshqarilib kelingan hamda bu borada muayyan darajada dastlabki tajribalar shakllanganligini eslatib o'tish joiz. Misol uchun, birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitrat o'tgan asrning 20-yillarida Buxoro Xalq Respublikasi Maorif vaziri lavozimida faoliyat ko'rsatganidan bevosita boshlang'ich ta'limni boshqarish bo'yicha bo'linma faoliyatini yo'lga qo'ygan. Buning natijasida qisqa muddatda mamlakatda boshlang'ich ta'lim savodxonligiga erishilgan. Keyinchalik bu bo'linma Samarqand davlat pedagogika instituti (hozirgi Samarqand davlat universiteti) tarkibiga o'tkazilib, unda boshlang'ich ta'lim boshqaruvi bo'yicha nazariy va metodik mashg'ulotlar amalga oshirilgan. Buning natijasida mamlakatimizda pedagogik kadrlar aynan boshlang'ich ta'limni boshqarish bo'yicha malakaga ega bo'lganlar. Bunday dastlabki tajribalarni ilmiy o'rganish va nazariy-metodik xulosalarga kelish dolzarb bo'lib turibdi. Chunki mazkur boshqaruv jarayonida menejerlik asoslaridan biri bo'lgan boshlang'ich ta'limni bevosita boshqarish amalga oshirilgan edi. Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim menejerligi bo'yicha xorijiy mamlakatlarda Menejment o'quv fani vositasida muayyan tajribalar yuzaga kelgan. Bu tajribalarda boshlang'ich ta'lim jarayonini alohida tashkil etish, uni boshqarish, faoliyatini moliyalashtirish va aholining barcha qatlamini boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olish masalalari ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan Rossiya, Germaniya va AQSH menejmenti tajribasidan kelib chiqib, dunyoda boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslari shakllantirilgan. Bunday milliy va xorijiy tajribalar laboratoriya mashg'ulotlarida mustaqil o'rganilishi va ular bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini hamda boshlang'ich ta'lim menejerlarini qurollantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Laboratoriya mexanizmi mashg'ulotlarining xususiyati amaliyotga yo'naltirilganligi bilan e'tiborni tortadi. Shu jihatdan bunday mashg'ulotlar jarayonida boshlang'ich ta'lim menejerligi usullarini talabalar tomonidan amaliy o'rganilishi muhimdir. Buning uchun har bir talabaga yoki 2-3 nafardan iborat talabalar guruhiga boshlang'ich ta'lim menejerligining usullari bo'yicha amaliy



topshiriqlar beriladi, bu topshiriqlarning ntijalari talabalar guruhi tomonidan keng muhokama qilinadi. Boshlang'ich ta'lim menejerligining yakkaboshchilik, qonuniylik, me'yoriylik, xolislik, ochiqlik, oshkoralik kabi usullarini amaliy o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu usullarda boshlang'ich ta'limning menejerligi tamoyillari va vositalari ham o'z ifodasini topgan. Laboratoriya mashg'ulotlarida mazkur usular tajriba yoki sinovdan o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Misol uchun, boshlang'ich ta'lim boshqaruvining ochiqlik usulini sinovdan o'tkazish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ota-onalar va maktab jamoasi o'rtasida so'rovnoma o'tkaziladi. O'tkazilgan so'rovnomaning taxlili boshlang'ich ta'lim bosqichi boshqaruvida ochiqlik ta'minlanganligi yoki ta'minlanmaganligini namoyon qiladi. Buning natijasida talabalar boshlang'ich ta'lim menejerligi usullari bo'yicha o'ziga xos ma'lumotlarga ega bo'lishadi. Ayni paytda, menejerlik usullari ta'sir ko'rsatish vositasi ham hisoblanadi. Unga ko'ra, muayyan boshqaruv usuli ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'ladi. Laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida o'tkazilgan sinovlar asosida bu borada kerakli ko'nikmani egallash mumkin.

Laboratoriya mashg'ulotlarida boshlang'ich ta'lim menejerligiga doir amaliy ishlarni bajarishga o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda talabalar o'zlari biriktirilgan umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflarining boshqaruvi bilan tanishadilar va mazkur bosqichni boshqarish bo'yicha tashabbuskor loyihalarni ishlab chiqib, sinovdan o'tkazadilar. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim boshqaruvining hozirgi holati, uni rivojlantirish amaliyoti va samaradorligini kuchaytirish bo'yicha aniq tasavvurlarga ega bo'linadi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim nazariyasi asoschilaridan biri Yan Amos Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida o'qituvchilarning tajriba va sinov ishlarini o'tkazishdagi layoqatga ega bo'lishiga masalasini alohida ta'kidlagan edi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslari bo'yicha loyihalar, ishlanmalar va turli yondashuvlarni ishlab chiqib, sinovdan o'tkazish talabaning bu boradagi malakalarini kuchaytirilgan

tarzda tarkib toptiradi. Chunki talabalar bu jarayonda ixtiyoriy va faollik talablari asosida ishtirok etadi.

E'tibor berilsa, individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasining laboratoriya mexanizmi muhim imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlardan foydalanish moliyaviy mablag' talab qilmasligini eslatib o'tish joiz.

2. ***Mustaqil ta'lim mexanizmi***. Mazkur mexanizmga ko'ra, individual yondashuv texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining nazariy bilim va boshqaruv metodikalarini tarkib toptirishda mustaqil ta'limning imkoniyatlariga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mustaqil ta'lim talabalarni faollashtiruvchi, mustaqil bilim olishga da'vat etuvchi va ularning yutuqlarini rag'batlantiruvchi ta'lim shakllaridan biridir.Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari mustaqil ta'lim vositasida menejerlik asoslari, boshqaruv texnologiyalari, tajribalari va boshqaruv muloqoti malakalarini erkin faoliyat asosida o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mustaqil ta'lim mexanizmi individual yondashuv texnologiyasining muhim omillaridan biri bo'lib, unda bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini o'z vaqtlari hamda qiziqishariga binoan shug'ullanishlariga imkon beradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim talabalarning qiziqishlarini amalga oshirish masalasiga keng e'tibor berganligi uchun ularda kasbiy faollik, mustaqil xarakat va mustaqil faoliyat yuritishga bo'lgan ko'nikmalar tarkib topadi. Shu sababli Yevropa mamlakatlari, jumladan, Buyuk Britaniya va Belgiya mamlakatlarida mustaqil ta'lim shakliga nisbatan amaliy o'qitish jarayoni sifatida munosabatda bo'linadi. Shu sababli mustaqil ta'lim shaklidan foydalanish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish va ularning yutuqlarini o'zlashtirish dolzarb bo'lib turibdi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda mustaqil ta'lim mexanizmini amalga oshirish uchun oliy pedagogik ta'lim muassasasining axborot-resurs markazlari o'quv adabiyotlariga boy bo'lishi, internet jahon axborot tarmog'i muntazam faoliyat ko'rsatishi va talabalar uchun texnik shart-



sharoitlarning mavjud bo'lishi taqozo etiladi. Mazkur masalalar bo'yicha bugungi kunda mamlakatimiz oliy pedagogik ta'lim muassasalari keng imkoniyatga ega ekanligini eslatib o'tish joiz. Ayni paytda, talabalarning axborot ta'minoti bo'yicha IT parklar, markazlar va maxsus bo'linmalarning faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday qo'shimcha axborot resurslari vositasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining yangi ma'lumotlarga ega bo'lishi, ularni istalgan vaqtda olish mumkinligi hamda o'z munosabatlarini muntazam bildirib borish sharoitlariga ega bo'lishadi. Negaki ko'p hollarda Internet jahon axborot tarmog'i orqali uzatilayotgan ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'riligi tahlil qilishga ehtiyoj seziladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim muassasalarining o'z axborot resurslari vositasida menejerlik ko'nikmalari bo'yicha ma'lumotlar ko'lamini keng ravishda taqdim etib borishi kutilgan samarani beradi.

Indidvidual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerligining nazariy va metodik asoslarini o'zlashtirishda mustaqil ta'lim mexanizmining amaliy imkoniyatlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bundan maqsad talabalarni mustaqil va erkin faoliyatga yo'naltirishdir.

Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanishda mustaqil ta'lim mexanizmi ham keng imkoniyatlarni beradi. Shu ma'noda bu borada quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) boshlang'ich ta'lim menejerligining texnologik asoslarini individual o'rganish;

b) boshlang'ich ta'lim menejerligining asoslari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni individual o'rganish;

v) boshlang'ich ta'lim menejerligi bo'yicha o'zlashtirilgan individual ko'nikmalarni ommalashtirish.

Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanishning mustaqil ta'lim mexanizmida mazkur masalaning texnologik asoslarini individual o'rganish muhimdir. Bunda

boshlang'ich ta'lim boshqaruvining texnik jihozlanganligi, uning zamonaviy talablarga javob berishi, yutuqlar va kamchiliklar talabalar tomonidan individual, ya'ni mutsaqil ravishda o'rganiladi. Buning natijasida talabalarda boshlang'ich ta'lim boshqaruvining hozirgi texnologik holati bo'yicha ko'nikma va malaka hosil bo'ladi. Mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston - 2030" dasturiga asosan barcha sohalar, jumladan, ta'lim jarayoni ham raqamlashtirilmoqda. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'limni tashkil etish va uni amalga oshirishning nazariy, didaktik va metodik asoslari mamlakat miqyosidagi raqamli texnologiya reyestriga kiritish jarayoni amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim menejerligining texnologik imkoniyatlari va uni zamonaviy texnik jihozlar vositasida boshqarish asoslari raqamlashtirilishi dolzarb bo'lib turibdi. Aynan mana shu masala bo'yicha mustaqil ta'lim jarayonida talabalar bilim va ko'nikmalar hosil qilishi, o'z izlanishlari natijasida boshlang'ich ta'lim boshqaruvining texnologik asoslarini kuchaytirish yuzasidan ishlanmalar taqdim etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanishning mustaqil ta'lim mexanizmida talabalarning mazkur masalalar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni o'zlashtirishi va o'rganishi kutilgan samarani beradi. Bunday qo'shimcha ma'lumotlar tarkibiga boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishga mas'ul shaxslarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarni boshqarish bo'yicha layoqatga egalik ko'rsatkichlari va boshlang'ich ta'lim boshqaruviga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar kiradi. Bu qo'shimcha ma'lumotlar talabalarning yakka tartibda yoki guruhli shaklda o'rganilishi ularda menejerlik bo'yicha ma'lumotlar ko'lamining kengayishiga asos bo'ladi. Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, har qanday boshqaruv sohasida, jumladan, boshlang'ich ta'lim boshqaruvida keng ko'lamli qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan qo'shimcha ma'lumotlar bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining zahiradagi bilim, ko'nikma va malakalari majmui hisoblanadi. Bularni to'g'ri idrok etish va mustaqil ta'lim vositasida ularni



o'zlashtirish kasbiy boshqaruv asoslarini egallashning muhim omillari sirasiga kiradi.

Talabalarning mustaqil ta'lim vositasida boshlang'ich ta'lim menejerligi bo'yicha o'zlashtirgan individual ko'nikmalarini ommalashtirishi dolzarb masalalardan biridir. Unga ko'ra, boshqaruv asoslari bo'yicha yuksak darajadagi ko'nikmaga ega bo'lgan talabalar yoki talabalarning tajribalari an'anaviy, onlayn yoki masafaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalangan holda targ'ibot qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki iqtidorli va faol talabalarda mustaqil ta'lim vositasida o'zlashtirilgan ko'nikmalar ko'p hollarda tez rivojlanish va tajribadan o'tish xususiyatlariga ega bo'ladi. Bu hol talabalarning mustaqil faoliyati bilan bog'liq hodisadir. Xorijiy mamlakatlarda o'ziga xos o'zlashtirilgan ko'nikmalar muntazam targ'ibot qilib borilishi tajribasi kuzatiladi. Shu jihatdan bizning kuzatishimizga ko'ra, mamlakatimiz oliy pedagogik ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'pchiligida boshqaruv layoqati mavjudligi namoyon bo'ladi. Aynan mana shu layoqat talabalarning mustaqil izlanishi hosilasi bo'lib, u ommaviy tarzda targ'ibot qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuni qayd etish kerakki, boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslarini yakka tartibda o'rganish ko'nikmasida o'quvchilar munosabat masalasi ham muhim o'rin tutadi. Bunda o'quvchilarning bilim olish, tarbiyalanish va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini mustaqil ravishda o'rganish bilan ularning boshlang'ich ta'lim jarayoniga munosabati va boshqaruvida tutgan o'rni to'g'risida ma'lumot hosil qilinadi.[10] Bularning barchasi bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari tomonidan mustaqil ta'lim mexanizmi asosida o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanishning mustaqil ta'lim mexanizmi ko'p hollarda talabalarning yakka tartibda faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi. Bu muhim omillardan biridir.

[10] Ziyodova T.O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish.-T "O'qituvchi"2001

3. ***Tanlov mexanizmi.*** Bu mexanizmga ko'ra, menejerlik asoslari, nazariyasi, metodikasi va amaliyoti masalalari bo'yicha muntazam ravishda talabalar tanlovlarini o'tkazib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki tanlovlar – bu talabalarning yangi g'oya, tashabbus va fikrlarini namoyish etuvchi muhim amaliy tadbirlar majmuidir. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda va ularning boshqaruv madaniyati bo'yicha malakalarini rivojlantirishda turli tanlovlarni muntazam o'tkazish amaliy jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, boshlang'ich ta'lim menejerlik asoslarining muayyan masalasi bo'yicha amaliy ishlanmalar tanlovini tashkil etish nihoyatda yangi bir yondashuvlarni taqdim etadi. Masalan, menejerlik manbalari masalasi bo'yicha tashkil etiladigan tanlovda har bir ishtirokchi talabaning orginal g'oyalar bilan ishtirok etishi tajribada kuzatilgan. Shu jihatdan tanlov mexanizmi bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining boshqaruv malakalarini nazariy va metodik jihatdan shakllantirishda faollik, amaliylik va samaradorlik tamoyiligi asoslanishini eslatib o'tish joiz.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, har qanday tanlovlarda har bir talabaning faol ishtirok etishi namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, har bir talabada menejerlik asoslari bo'yicha tarkib topgan ko'nikma va malakalarni tanlov vositasida aniqlash imkoniyati ham mavjud. Negaki, tanlovlar ko'p hollarda oshkoraligi, muhim tizimga egaligi va talabalarning tashabbuskorligiga tayanish xususiyatlariga bog'liqligi bilan muhim tayyorlash shakllaridan biridir. Pedagogika tajribasida muayyan masalalar bo'yicha tanlov mexanizmidan oqilona foydalanib kelinayotganligini eslatib o'tish joiz.

Individual yondashuv texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda tashkiliy tizimga ega bo'lgan tanlov mexanizmidan foydalanish muhim omillardan biri ekanligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslarini o'rganish bo'yicha tanlov mexanizmi imkoniyatlaridan foydalanish yangi yondashuvlardan biridir. Bugungi kunda ko'pchilik tanlov deganda muayyan yo'nalish bo'yicha ishtirokchilarninng



taqdimotlarini baholashni nazarda tutadi. Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim menejerligi bo'yicha tanlov mexanizmining quyidagi xususiyatlariga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) talabalarning boshlang'ich ta'lim boshqaruvi bo'yicha yangi ishlanmalarini tanlab olish;

b) talabalarning boshlang'ich ta'lim b21oshqaruvi bo'yicha izlanishlarini ro'yobga chiqarish;

v) boshlang'ich ta'lim boshqaruvi bo'yicha Ustoz-shogird an'anasini yo'lga qo'yish.

Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanishning tanlov mexanizmi juda keng imkoniyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Bunda ayniqsa talabalarning boshlang'ich ta'lim menejerligi bo'yicha yangi ishlanmalarini aniqlash, o'rganish va eng maqbullarini amaliyotga joriy etish muhimdir. Bu ish aynan talabalarning o'zlari tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki talabalar boshqaruv asoslari bo'yicha o'zlarining yangi ishlanmalarini ochiq taqdim etadi, himoya qiladi va uni asoslab beradi. Natijada talabalar guruhida turli boshqaruvga oid ishlanmalar bo'yicha bilim va ko'nikmalar tarkib topadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtidorli va faol talabalar boshqaruv asoslari bo'yicha yangi ishlanmalarni yaratishda ko'p hollarda kompyuter kabi texnik vositalarning imkoniyatlariga tayanmoqda. Bu hol boshqaruv jarayonining insonparvarlashtirishda muhim ahamiyatga ega, chunki texnik vositalarga asosan ishlab chiqilgan ishlanmalarda boshqaruvda insonning salbiy ta'sir omili kamayadi. Shu sababli biz talabalarning yangi ishlanmalarini ularning o'zlari tomonidan o'rganilib ommalashtirilishida boshlang'ich ta'lim menejerligining eng muhim tayanchlaridan birini ko'ramiz. Bunday yondashuv ayni paytda talabalarning yangi ishlanmalari bo'yicha o'ziga xos sog'lom raqobat va tanlovni yuzaga keltirishni ham eslatib o'tish joiz.

Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanishning tanlov mexanizmida talabalar izlanishlarini ro'yobga chiqarish ham muhimdir. Bunda izlanishlar jarayonida talabalar duch kelayotgan muammorlarni aniqlash va hal etish, ularga o'quv materiallari va qurollari bilan yordam berish, oliy pedagogik ta'lim muassasasining tegishli jihozlaridan foydalanishini yo'lga qo'yish hamda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan yangi ishlanmalarni rag'batlantirish masalalari katta ahamiyatga ega. Tajriba shuni ko'rsatadiki, agar talabaning yangi ishlanmalariga munosabat bildirib borilsa, ularda o'ziga xos motivasiya paydo bo'ladi. Buning natijasida yangi ishlanmalar turlari va ko'lami kengayadi. Shu jihatdan yangi ishlanmalar yaratuvchi talabalar va bu ishlanmalarni muhokamasida ishtirok etadigan talabalarda boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslari bo'yicha o'ziga xos ko'nikmalar tarkib topadi. Bunda talabalarning o'z ishlanmalarini baholashi o'ziga xos xususiyatlardan biri bo'lib, buning vositasida ishlanmaning dolzarbligi, yangiligi hamda o'ziga xos qulayliklarga egaligi aniqlanadi. Shu tariqa talabalar guruhida ham yangi ishlanmalar yaratishga bo'lgan qiziqishlar yuzaga keladi va bu boshlang'ich ta'lim menejerliginida muhim tayanchlardan biridir.

Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanishning tanlov mexanizmida Ustoz-shogird an'anasi ham muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, talabalar o'zlariga biriktirilgan Ustozlar bilan hamkorlikda boshlang'ich ta'lim menejerligining nazariyasi, metodikasi va texnologiyasi bo'yicha izlanishlar olib boradi. Bunday izlanish jarayonida Ustoz faqat yo'naltiruvchi hamda talabalarning izlanishlari samaradorligini baholab borish vazifalarini bajaradi. Buning natijasida talabalarda boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslari bo'yicha izlanishlar olib borishda o'ziga bo'lgan ishonch, ma'lumotlarni to'g'ri topish, vaqt tejamkorligiga erishish va izlanishlarning yangilik jihatlarini kuchaytirish malakalari hosil bo'ladi. Aynan Ustoz-shogird an'anasi boshlang'ich ta'lim menejerligida qaytadan amaliyotga joriy etilishi mumkin bo'lgan va muhim amaliy imkoniyatlari beruvchi



mexanizmlardan biridir. Chunki ustoz va shogird hamkorligida amalga oshiriladigan boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslari bo'yicha izlanishlarda eng avvalo yangilik xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bunda Ustozning tajribasi asosida talabaning izlanishi o'z samarasini beradi.

Mazkur masalalar tanlov mexanizmining bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashdagi o'ziga xos imkoniyatlarini ko'rsatadi. Shu sababli ushbu masalalar bo'yicha oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'nikmalarini egallashi dolzarb bo'lib turibdi.

E'tibor berilsa, o'quv fanlarini o'qitish jarayonida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanishning bu amaliy mexanizmlari muhim xususiyatlarga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Bu mexanizmlar negizini talabalarning faolligi tashkil etadi va ulardan foydalanishda mablag' talab etilmaydi. Shu sababli ushbu amaliy mexanizmlardan oqilona foydalanish uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonining imkoniyatlarini kengaytirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib individual yondashuv texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning o'quv fanlarini o'qitish jarayonida foydalanish mexanizmlarida laboratoriya, mustaqil ta'lim va tanlov shakllari muhim o'rin tutadi. Mazkur masala bo'yicha kelgusida nazariy va metodik tadqiqotlar olib borish taqozo etiladi.

## 3.2.Amaliy mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mexanizmi

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim bosqichida individual yondashuv texnologiyasi asosida rivojlanishning yangi bosqichini ta'minlash dolzarb bo'lib turibdi. Chunki individual yondashuv texnologiyasi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sifatida keng imkoniyatlarga ega ekanligi ma'lum. Shu jihatdan individual yondashuv texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning amaliy to'garak metodikasi asoslari bilan tanishish, ularni o'zlashtirish hamda ommalashtirish amaliy ahamiyatga ega. Bu o'rinda

e'tiboringizni mazkur amaliy to'garak metodikasining amaliy mashg'ulotlar jarayonidan foydalanish *mexanizmlari* tahliliga tortamiz.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning turlicha mexanizmlarini idrok etish va ulardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aslida amaliy mashg'ulotlar individual yondashuv texnologiyasining negizlaridan biri sifatida, ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning o'zaro hamkorligiga asoslanadi. Biroq bunda ta'lim oluvchilarning faolligi va intiluvchanligi muhim omillardan biri sifatida qabul qilinadi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash jarayonida amaliy mashg'ulotlar imkoniyatlari va ularning o'ziga xos mexanizmlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. ***Birgalikda loyihani amalga oshirish mexanizmi.*** Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning mazkur mexanizmida bir necha xususiyatlar va shakllar mavjud. Ulardan biri ikki yoki talabalar guruhining birgalikda menejerlik kompetensiyalari bo'yicha loyihalarni amalga oshirishdir. Bunda har bir talaba o'z vazifasiga ega bo'ladi, ular birgalikda ma'lumotlarni to'plashadi, ularni tahlil qilishadi va loyihani taqdimotga tayyorlashadi. Buning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki loyihani tayyorlash jarayonida har bir talabaning o'z fikri bilan ishtirok etishi va unga amal qilishi yuzaga keladi.

Talabalarning birgalikda loyiha tayyorlash mexanizmi ayniqsa menejerlik nazariyasi, metodikasi va kompetensiyalarini o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega. Masalan, muayyan talaba menejerlik nazariyasining tushunchalari bo'yicha, ikkinchi talaba mazkur masalaning metodikasi, uslublari bo'yicha yoki talabalar guruhi menejerlik kompetensiyalarining asosiy tarkiblari bo'yicha loyiha ishini tayyorlashi mumkin. Buning natijasida har bir talaba ishtirok etgan yangiliklarga boy, keng ko'lamli va amaliyotga yo'naltirilgan loyihalarga ega bo'linadi. Bunday yondashuv boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslarini o'rganishda muhim o'rin tutadi.



Birgalikda loyiha tayyorlash mexanizmidan mamlakatimizda iqtisodiyot, moliya va bank ta'lim yo'nalishida unumli foydalanib kelinmoqda. Unda muayyan iqtisodiy muammolar iqtisodchi, moliyachi, soliqchi va banker talabalar tomonidan loyiha shaklida ishlanilib, ularning yechimi topiladi. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda bunday tajribadan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Unga ko'ra, talabalarni birgalikda loyiha ishini bajarishda professor-o'qituvchilar yo'naltirish, menejer mutaxassislar maslaxat va tajribali o'qituvchilar esa tavsiya berish vazifalarini bajarishadi. Natijada menejerlik kompetensiyalarini loyiha ishi vositasida o'zlashtirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Chunki loyiha ishi izlanish, tahlil va amaliy yondashuv xususiyatlariga egaligi bilan diqqatga sazovordir.

Xorijiy mamlakatlar, jumladan, AQSH oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarning birgalikda loyiha mexanizmida oqilona foydalanib kelinmoqda. Mazkur tajribaga ko'ra, talabalarning birgalikda loyiha ishini amalga oshirishi bajarilgan ishlanmaning keng ko'lamli va talab darajasida bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli mazkur tajribadan foydalangan holda talabalarning birgalikda loyiha ishi mexanizmidan foydalanib, ularning boshlang'ich ta'lim menejeri kompetensiyalarini o'zlashtirish ta'minlanadi. Ayni paytda, bunday kompetensiyalarning muayyan asoslari loyihada ishtirok etgan har bir talabada tarkib topishi tajribadan o'tganligini eslatib o'tish joiz.

Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanishning birgalikda loyihani amalga oshirish mexanizmi vositasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini quyidagi ko'nikmalarni shaklantirishga erishiladi:

a) loyihalash tafakkurini shakllantirish;

b) nazariy bilimlardan hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish;

v) nizoli vaziyatlarda tinchlik yo'li bilan munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantirish.

Ikki yoki talabalar guruhi tomonidan boshlang'ich ta'lim menejeri bo'yicha birgalikda loyihani amalga oshirish natijasida ularda loyihalash tafakkuri ko'nikmasi tarkib topadi. Bunda g'oyadan nazariyaga, nazariyadan bilimga, bilimdan amaliyotga va amaliyotdan ishlanmaga bo'lgan jarayon vositasida menejerlik asoslari bo'yicha ko'nikma hosil qilinadi. Eng asosiysi bunda tajribali va faol talabalarning ijobiy ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan menejerlik asoslari bo'yicha birgalikda loyihalash mexanizmida eng asosiy masala g'oyadir. Aynan g'oya muayyan boshqaruv usuli uchun loyihani tarkib toptirish uchun asos bo'ladi. Misol uchun, boshlang'ich ta'lim jarayoni boshqaruviga o'quvchilarni ham jalb qilish g'oyasi talabalarni jiddiy izlanishlarga undaydi. Chunki boshqaruv jarayonida o'quvchilar qanday ishtirok etadi, ularning vazifalari nimalardan iborat bo'ladi va o'quvchilarning tashabbuslari boshqaruv jarayoniga qabul qilinadimi kabi savollarga javob izlanadi. Natijada g'oya asosida nazariy fikr tug'iladi. Nazariy fikr tajriba rivojlanishi bilan bilimga aylanadi va bilim boshlang'ich ta'lim menejerligi bo'yicha muayyan amaliy loyihani yaratish uchun asos bo'ladi. Bu jarayonning negizida talabalarning hamkorligi, bir-biriga o'zaro ta'siri va bir-biridan o'zlashtirish asoslari turadi. Shu tariqa talabalarning birgalikda loyiha ishlanmalari yaratishi bilan ularda loyihalash tafakkuri tarkib topadi.

Birgalikda loyihani amalga oshirish jarayonida talabalarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli hayotiy va faoliyat vaziyatlarida qo'llash ko'nikmasini shakllanishi ham muhimdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik talabalarda muayyan loyihani yaratish bo'yicha g'oya, nazariy bilim va intilishlar mavjud bo'ladi. Ayni paytda, ularda ana shu tayanchlarga asoslangan holda amaliy loyihani yaratish ko'nikmasi yetishmaydi. Shu sababli talabalarning birgalikda loyihani amalga oshirishida o'zaro ta'sirga ega bo'lgan va o'zlashtirgan bilimlarini turli vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasining tarkib topishiga asos bo'ladi. Chunki bunda tajribali talabalar amaliy ishlanmalar bo'yicha guruhidagi talabalarga motivsion ta'sir ko'rsatadi va natijada o'zga talabalarda ham o'z nazariy



bilimlaridan amaliyotda foydalanish ko'nikmasi tarkib topib boradi. Bunda asosiy masalalardan biri boshlang'ich ta'lim menejerligi muammolari bo'yicha vaziyatli loyihalarni ishlab chiqish amaliyotga joriy etishdir. Bu hol ularda bilimlardan foydalanish ko'nikmalarini kutilgan darajada tarkib toptirishni taqozo etadi.

Boshlang'ich ta'lim boshqaruvi jarayonida muayyan holatlarda turli xarakterdagi nizolar yuzaga kelib turadi va bu hol boshqaruv xususiyatlari bilan bog'liqdir. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari o'rtasida o'zaro tushunmovchilik natijasida, masalan, o'quvchilar davomati masalasida o'tkanchi xarakterdagi nizolar muntazam namoyon bo'lib turadi. Bunday xolatlarda tajribali boshlang'ich ta'lim menejeri xolislik va murosasozlik tamoyillariga asosan nizolarni tinchlik yo'li bilan bartaraf etish vazifasini bajaradi. Bunda xolislik nizoga tushuvchi tomonlarning biror guruhi manfaatini himoya qilmaslik va murosasozlik esa tomonlarni o'zaro kelishuvga yo'naltirish ma'nolarini anglatadi. Shu jihatdan talabalarning birgalikda loyihani amalga oshirish mexanizmi vositasida ularda boshqaruv asoslaridan biri bo'lgan nizolarni tinchlik yo'li bilan bartaraf etish ko'nikmasi tarkib toptirilishi kerak. Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim va tarbiya jarayonida, jumladan, boshlang'ich ta'limda yuzaga keladigan pedagogik nizolar o'tkinchi xususiyatlarga ega bo'ladi.[11] Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muddatli va o'tkinchi nizolarni tinchlik yo'li bilan hal etish eng maqbul metodikadan biri hisoblanadi. Buning uchun talabalar birgalikda loyihani amalga oshirish mexanizmi vositasida mazkur ko'nikmani chuqur egallashi va o'zaro tajriba almashish malakasiga ega bo'lishi taqozo etiladi.

E'tibor berilsa, birgalikda loyihani amalga oshirish mexanizmi vositasida talabalarning boshlang'ich ta'lim menejerligi muammolari bo'yicha loyihalash tafakkurini, bilimlardan amaliyotda qo'llash ko'nikmasini va o'ziga xos murosa malakasini shakllantirish imkoniyatlari mavjuddir. Shu sababli bu masala bizning

[11] Umarova Z. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish.-Toshkent,2021

yondashuvimizga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari uchun muxim ahamiyatga egadir.

2. ***Ustoz-shogird hamkorligi mexanizmi.*** Individual yondashuv texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning bu amaliy mexanizmi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar hamkorligiga asoslanadi. Unga ko'ra, Ustoz muayyan guruh talabalarini boshqaruv madaniyati, muloqoti va muomalasi kabi kompetensiyalarini o'zlashtirishga yo'naltiradi va ularni tegishli ma'lumotlar hamda adabiyotlar bilan ta'minlaydi. Talabalar guruhi esa Ustozning tavsiyalariga binoan menejerlik kompetensiyalarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlarni bajarishadi va buning natijasida talabalarning o'zaro hamkorligi hamda Ustoz bilan hamkorlik mexanizmlari yuzaga keladi. Bunday shakl menejerlik kompetensiyalarini o'zlashtirishning eng muhim vositalaridan ekanligini ta'kidlab o'tish joiz.

Ustoz-shogird hamkorligi Pedagogikamiz tajribasidan o'tganligi bilan amaliy ahamiyatga ega. Ayni paytda, mazkur hamkorlikning metodikasi va shakllarini yangilab borish vositasida undan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda mazkur hamkorlik mexanizmining turli shakllarini idrok etish va ulardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, iqtidorli talabalarning o'zaro hamkorligi, Ustoz va talabalar hamkorligi, talabalar va tajribali menejerlar hamkorligi, tajribalarni o'zaro ayriboshlash hamkorligi kabi shakllar ana shunday yangicha vositalar hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda bunday shakllardan foydalangan holda menejerlik kompetensiyalarini tarkib toptirish juda samarali hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlar, jumladan, Finlandiya Respublikasi oliy pedagogik ta'lim tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, talabalar muayyan kompetensiyani o'zlashtirishda aynan tajribali mutaxassislar bilan hamkorlik qilishadi va bunda oliy pedagogik ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilari mazkur hamkorlik jarayoninin pedagogik jihatdan nazorat qilib borish vapzifasini bajaradi. Buning



natijasida talabalarning mutaxassislar bilan hamkorlik asosida muayyan kompetensiyalarni o'zlashtirishi pedagogik qonuniyatlarga asosan amalga oshadi. Bunday tajribalar o'rganilib, ular vositasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejrlarining kompetensiyalarini kutilgan darajada shakllantirish keng imkoniyatlar berishini ta'kidlab o'tish joiz.

Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanishning Ustoz-shogird hamkorligi mexanizmida quyidagi hamkorlik shakllari muhim ahamiyatga ega:

a) an'anaviy hamkorlik;

b) vertual hamkorlik;

v) masofaviy hamkorlik.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning ustoz-shogird hamkorligi mexanizmida an'anaviylik shakli samaradorligi bilan kutilgan natijani beradi. Unga ko'ra, talabalar o'zlariga biriktirilgan ustozlar bilan bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayonida boshlang'ich ta'lim asoslari bo'yicha hamkorlikni amalga oshiradi. Bunda ustozlar o'quv fanlari va amaliy mashg'ulotlar vaqtlaridan keyin talabalarning murojaatlariga ko'ra boshlang'ich ta'lim menejerligi uslublari va texnologiyalari yuzasidan savol-javoblar, suhbatlar va muhokamalar jarayonini amalga oshiradi. Natijada bevosita muloqot vositasida talabalarda menejerlik uslublari va zamonaviy texnologiya asoslariga doir amaliy ko'nikmalar tarkib topadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda talabalarda turli tashabbus xarakatlari mavjud bo'ladi va o'z faoliyatini nimadan boshlash bo'yicha murakkablikka duch kelishadi. Shu sababli bunday xolatlarda ular biriktirilgan ustozlar boshqaruv menejerligi tayanchlari bo'yicha nazariy, metodik va amaliy yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Buning natijasida talabalarda vaqt miqdori doirasida o'ziga xos boshqaruv munosabatlari, tushunchalari va boshqaruv madaniyati bo'yicha muloqot ko'nikmalari shakllanib boradi. Bu eng muhim natijalardan biridir.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashning Ustoz-shogird hamkorligi mexanizmida vertual hamkorlik shakli ham muhim ahamiyatga ega. Chunki turli ijtimoiy murakkab sharoitlar vaqtida talabalar bilvosita muloqotga kirishib, boshlang‘ich ta’lim menejerligi asoslarini o‘z vaqtida va kutilgan darajada o‘zlashtirish taqozo etiladi. Bunda kompyuter kabi axborot-kommunikasion texnik vositalarning imkoniyatlaridan foydalangan holda ustoz va shogird menejerlik texnologiyalari bo‘yicha vertual mashg‘ulotlarni amalga oshiradi. Buning uchun ustoz maxsus dastur asosida kompyuterga menejerlik asoslari bo‘yicha turli yondashuvlarni, ma’lumotlarni va vositalarni joylashtiradi. Ular bilan tanishga talabalar esa o‘zlarining fikr-mulohazalari va takliflari bilan mazkur o‘quv materiallari bo‘yicha ustozga murojaat qiladi. Natijada bu hamkorlikda ustoz va talaba o‘rtasida o‘ziga xos vertual muloqot tarkib topadi. Bunday muloqot bugungi kunda muammoni hal etishning o‘ziga xos shakllaridan biri ekanligini eslatib o‘tish joiz. Ayni paytda, ta’lim jarayonining 4+2 tizimida amalga oshirilayotganligi ham vertual hamkorlik ko‘nikmasini yuksak darajada shakllantirishni taqozo etadi. Buning natijasida talabalarda boshqaruv asoslari bo‘yicha o‘ziga xos ijtimoiy va pedagogik faollik tarkib topadi.

Hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashning Ustoz-shogird hamkorligi mexanizmidan masofaviy muloqot shakli ham keng imkoniyatlar berishi bilan ajralib turadi. Bunday muloqot TV kabi axborot-kommunikasion vositalar orqali amalga oshiriladi va belgilangan vaqt davomida har kuni ustoz va talabalar o‘rtasida hamkorlik tarkib topadi. Bunday hamkorlik masofadan turib tashkil etilishi bilan talabalarning ta’til davrida ham amalga oshirish imkoniyatlariga ega. Natijada talabalar o‘zlarining istalgan bo‘sh vaqtlarida masofaviy muloqot vositasida ustoz bilan hamkorlik jarayonida boshlang‘ich ta’lim menejerligini o‘zlashtirish, u bo‘yicha turli izlanishlar olib borish va o‘zlarining ishlanmalarini amaliyotga taqdim etish ko‘nikmalarini egallashadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, menejerlik asoslarini masofaviy muloqot asosida o‘zlashtirish jarayoni vaqt tejamkorligi, qulayligi va eng asosiysi talabalarning



mavjud ehtiyojini qoniqtirishi bilan muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur muloqot shaklarining imkoniyatlaridan foydalanish bugungi kunda dolzarb bo‘lib turibdi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim menejerligi asoslarini o‘zlashtirishning Ustoz-shogird hamkorligi mexanizmida an’anaviylik, vertual va masofaviy shakllarning imkoniyatlaridan uyg‘un foydalanish bu borada kutilgan samarani beradi.

3. ***Startap loyihalar mexanizmi***. Bu mexanizmga ko‘ra, talabalarda tayyor holda bo‘lgan startap loyihalar taqdimoti amalga oshiriladi va uning natijasida talabalar ishtirokidagi muhokama vositasida yangi startap loyihaning asoslari o‘zlashtiriladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashda qiziquvchan, iqtidorli va faol talabalarni menejerlik kompetensiyalar bo‘yicha startap loyihalarga yo‘naltirish, ularning loyihalari taqdimotini talabalarning keng ishtirokida o‘tkazish va eng yangi loyihalarni amaliyotga yo‘naltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki talabalar menejerlik asoslari yoki kompetensiyalari bo‘yicha o‘ziga xos yangi g‘oyalar yondashuvlar, shakllar va vositalarni taqdim etish imkoniyatiga ega ekanligini eslatib o‘tish joiz.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashda st artap loyihalar mexanizmidan foydalanish uchun faol talabalar guruhini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu talabalar guruhi startap loyihalar taqdimotlarini tashkil qiladi, jamoatchilikning mazkur loyihalarda ishtirok etishini ta’minlaydi va ayni paytda loyihaning taqrizchilari sifatida ishtirok etadi. Buning natijasida talaba yoki talabalar guruhi tomonidan tayyorlangan startap loyihalarning mazmunini o‘zlashtirish kutilgan darajada bo‘ladi. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashda startap loyihalar mexanizmini amaliy imkoniyatlaridan foydalanish nazariy va metodik jihatdan samarali hisoblanadi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, iqtidorli va faol talabalar startap loyihalarni tayyorlash, ularda butunlay yangi g‘oyalarga asoslanish va original ishlanmalar yaratish bo‘yicha layoqatning yetarli ekanligini ta’kidlash lozim. Shu sababli

bunday talabalarning menejerlik asoslari bo'yicha startap loyihalarini tashkil etish, baholash va ularning amaliy ishlanmalaridan foydalanish menejerlik kompetensiyalarini o'zlashtirishning muhim omillaridan biridir. Eslatib o'tish joizki, bunday faoliyat moliyaviy xarajat talab qilmaydi, aksincha, o'ziga xos mablag'lar majmuini taqdim etish xususiyatlariga ega.

Individual yondashuv texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanishning startap loyihalar mexanizmida bir necha maqbul shakllardan foydalanish tavsiya etiladi. Shu jihatdan talabalarning startap loyihalari quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishini ta'kidlab o'tish joiz:

a) ijodiy faoliyatga asoslangan startap loyihalar;

b) axborotli startap loyihalar;

v) mustaqil startap loyihalar.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini amaliy tayyorlashning startap loyihalar mexanizmida talabalarning ijodiy faoliyatga asoslangan startap loyihalariga diqqat qilish taqozo etiladi. Bunday startap loyihalar talabalarning boshlang'ich ta'lim boshqaruvini tashki etish va uning samaradorligiga erishish bo'yicha yangilikka asoslangan ishlanmalardan iborat bo'ladi. Chunki bunday loyihalarni yaratish jarayonida talaba yoki talabalar guruhi o'zlarining ijodiy layoqat va ko'nikmalariga tayanadi. Shu sababli aynan mana shu ijodkorlik xususiyati natijasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari boshqaruv asoslari bo'yicha yangiliklarga boy loyihalarni yaratadi. Bunda eng asosiy masala ana shunday ijodiy faoliyatga asoslangan startap loyihalarni ro'yobga chiqarishdir. Buning uchun talabalar guruhida loyihalar muhokama qilinishi va munosabat bildjirilishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu jarayondan keyin e'tirof etilgan startap loyihani boshlang'ich ta'lim jarayo niga yoki boshlang'ich sinf o'qituvchilariga taqdim etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aynan mana shunday tajriba asosida xorijiy mamlakatlarda, jumladan, AQSHda boshlang'ich ta'lim jarayoni demokratik asosda boshqarilib kelinmoqda. Chunki ijodiy startap



loyihalar boshqaruv jarayonini demokratlashtirishning eng muhim asorslaridan biri hisoblanadi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning startap loyihalar mexanizmida axborotli loyihalar ham talabalar tomonidan o'ziga xos tarzda yaratiladi. Bunda boshlang'ich ta'lim menejerligi bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirilgan holda muayyan loyihani ishlab chiqish ishlari talabalar guruhi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur startap loyiha shaklida asosiy masala talabaning faol izlanishidir. Aynan izlanish va maqsadli xarakat natijasida talaba axborotli loyiha uchun ma'lumotlarni o'z vaqtida yig'adi va ular asosida barcha uchun maqbul bo'lgan boshqaruv loyihasini yaratadi. Lekin bu jarayon nihoyatda murakkab bo'lib, buning uchun axborotli startap loyiha izlanishini olib borayotgan talabaga turli shakldagi maslahatlar berib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki talaba boshqaruv asoslari bo'yicha eng kerakli ma'lumotlarni yig'ishi va ma'lumotlar girdobida qolib ketmasligi kerak. Aks holda axborotli startap loyiha yaratish jarayoni va uni amalga oshiruvchi izlanishda vaqt miqdori oshib ketadi. Shu jihatdan vaqtni tejash va undan oqilona foydalanish uchun talaba yoki talabalar guruhi axboroti startap loyihalar yaratish ko'nikmasini egallashi metodik jihatdan maqbul hisoblanadi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim menejerligida talabalarning mustaqil startap loyihalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday startap loyihalarda ta'limiy, tarbiyaviy, amaliy va metodik jihatdan boshlang'ich ta'lim boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha talaba yoki talabalar guruhining g'oyalari ifodalanadi hamda amaliy ishlanma shaklida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan mustaqil startap loyihalar avvalgi boshqaruv loyihalaridan turli yangi vaziyatlarga mosligi, yangi g'oyalarga asoslanganligi, ma'lumotlarni yangicha taxlil etilganligi va ularda talaba yoki talabalar guruhining mustaqil fikri aks etganligi o'ziga xos xususiyat hisoblanadi. Mazkur startap loyihalarning talabalar tomonidan yaratilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular vositasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini boshqaruv madaniyati asoslarini tarkib toptirish qulay kechadi.

Chunki mustaqil ravishda yaratilgan startap loyihalar aynan talabaning o‘z fikri, g‘oyasi va yondashuvlarini ifoda etadi. Bu xususiyat talabalarda ongli va tushunarli tarzda boshqaruv madaniyati asoslarini o‘zlashtirish imkoniyatlarini beradi. Shu jihatdan xorijiy mamlakatlar, jumladan, Germaniya Federativ Respublikasida talabalar tomonidan yaratilgan mustaqil startap loyihalarga muhim e’tibor beriladi va har bir o‘quv yili yakunida oliy ta’lim muassasalari kesimida bunday loyihalarning sifati hamda miqdori to‘g‘risida ma’lumotlar berib boriladi. Chunki mustaqil startap loyihalar bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim menejerlarining kasbiy shakllanishi, kolmpetensiyalarni o‘zlashtirishi va ularning amaliy faoliyatga tayyorlik ko‘nikmalarini namoyon qiladi.

E’tibor berilsa, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashning startap loyihalar mexanizmida turli shakllar mavjud. Bunday shakllar aynan talabalar tomonidan yaratilishi bilan nazariy, metodik va amaliy jihatdan ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki startap loyihalarda talaba yoki talabalar guruhining kasbiy kompetensiyalarini namoyon qiluvchi va ularning rivojlanib borish jarayonini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar ko‘zga tashlanib turadi. Shu sababli bunday amaliy mexanizmlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Diqqat qilinsa, individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashning amaliy mashg‘ulotlar mexzanizmi o‘ziga xos shakllarga egaligi bilan e’tiborga sazovordik. Bu shakllar o‘rganilishi va ulardan foydalanilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shunday qilib individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorash metodikasining amaliy mashg‘ulotlar mexanizmi shakllari birgalikda loyiha tayyorlash, Ustoz-shogird hamkorligi va startap loyihalar vositalaridan iboratdir. Bu shakllardan foydalangan holda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim menejerlarining boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish muhim amaliy ahamiyatga ega.

***



Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanish mexanizmlarining tuzilmasiga e’tibor bering:




*3-rasm. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanish*

### 3.3. Bo’lajak boshlang’ich ta’lim menejerlarini individual yondashuv asosda tayyorlashning Ustoz-shogird metodikasi

Bo‘lajak ta’lim menejerlarini individual yondashuv texnologiyasi asosida tayyorlashning metodologiyasi keng ko‘lamli bo‘lib, mazkur metodologiyaga asosan amaliy ishlarni yo‘lga qo‘yish dolzarb bo‘lib turibdi. Ana shunday metodologik asoslardan biri bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashning *Ustoz-shogird metodikasidir*. Bu o‘rinda ana sho‘u masalaning tahlili va imkoniyatlariga e’tiboringizni tortamiz.

1. ***Menejerlik asoslari bo'yicha Ustoz saboqlari.*** Individual yondashuv texnologiyasi har bir talaba bilan xususiy shug'ullanish va ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga asoslanadi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda Ustoz-shogird metodikasi keng imkoniyatlarni beradi. Bu metodikaga ko'ra, ustoz tomonidan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari mustaqil ta'lim vositasida tayyorlanadi. Shu ma'noda bu faoliyatda Ustoz saboqlarining asoslarini quyidagilar tashkil etishiga e'tibor berish kerak:

a) menejerlik asoslari bo'yicha mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish;

b) menejerlik adabiyotlari bilan tanishtirish;

v) menejerlik layoqatni rivojlantirish.

Mamlakatimiz menejerlik san'ati tajribasida shunday yondashuv mavjudki, unga ko'ra, tajribali Ustozlar menejerlik asoslari bo'yicha mustaqil ta'limni muddatli kurslar vositasida yo'lga qo'yadi. Bunday ta'lim jarayoniga menejerlik san'ati bilan qiziquvchi talabalar ixtiyoriylik tamoyili asosida jalb etiladi va ularga mazkur boshqaruv asoslari bo'yicha nazariy-metodik bilimlarni qisqa muddatlarda berishga e'tibor qaratiladi. Bunday mustaqil ta'lim jarayonining boshqa ta'lim saboqlaridan farqi shundaki, unda Ustoz menejerlik asoslari bo'yicha qisqacha nazariy tushuntirish beradi va talabalarga ana shu nazariy o'zlashtirganlarini kengaytirish uchun tavsiyalarni taqdim etadi. Ko'p hollarda bunday mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining individual ishlashlariga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ular amaliyotchi menejerlar bilan ham munosabatga kirishishi uchun sharoitlar yaratiladi. Bunda Ustozning asosiy vazifasi talabalarni menejerlik asoslarini to'g'ri o'zlashtirishi bo'yicha yo'naltirib borishdan iborat va amaliyotchi menejer esa ularga o'zining ish uslublarini o'rgatadi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining boshqaruv mahorati amaliy jihatdan kutilgan darajada tarkib topadi va ular boshlang'ich ta'limni boshqarish bo'yicha qo'shimcha ko'nikmalarga ega bo'lishadi.



Individual yondashuv asosida tashkil etiladigan Ustoz-shogird saboqlarida menejerlik asoslari bo'yicha adabiyotlar bilan talabalarni tanishtirib borish eng ustuvor yo'nalishlardan biridir. Unga ko'ra, talabalar qaysi tilda erkin so'zlashsa, shu tilda nashr etilgan menejerlik bo'yicha adabiyotlar bilan keng tanishtiriladi. Misol uchun, agar talaba ingliz tilida nashr etilgan adabiyotlar bilan ishlash istagini bildirsa, bunda Ustoz ingliz tili o'qituvchisi yoki mutaxassisini yordamga jalb etadi. Buning natijasida talaba uchun tanlanayotgan menejerlik adabiyotlarini to'g'ri o'zlashtirish, ulardagi metodika va texnologiyalarni milliy sharoitlarga mos ravishda o'rganish hamda jahon ta'lim tizimining boshlang'ich ta'lim bosqichida amal qilayotgan menejerlik mahoratlari bilan tanishish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizning axborot va elektron resurslarida menejerlik asoslari bo'yicha milliy va xorijiy tillarda nashr etilgan adabiyotlar yetarli darajada mavjud. Bunda ayniqsa, elektron adabiyotlarning mavjudligi menejerlik asoslarini adabiyotlar vositasida o'rganish ishini yanada qulaylashtiradi. Chunki talaba bunday adabiyotlarga istalgan vaqtida murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayni vaqtda, Ustoz tomonidan talaba o'zlashtirayotgan har bir adabiyot tahlil qilib borilishini eslatib o'tish joiz.

Mustaqil ta'lim vositasida individual yondashuv texnologiyasiga binoan tashkil etiladigan Ustoz saboqlarining navbatdagi muhim negizini talabalarning boshqaruv layoqatini rivojlantirish tashkil etadi. Platon va Aristotelning umumiy fikricha, har bir shaxsda boshqarish va boshqaruvchanlik layoqatlari tug'ma bo'ladi, bu g'oyani Abu Nasr Farobiy ham alohida ta'kidlaydi. [12] Shu jihatdan talabalarda boshqaruv asoslari bo'yicha layoqatning tabiiy ravishda mavjud bo'lishi mazkur layoqatni rivojlantirish imkoniyati borligini ko'rsatadi. Olimlarning fikricha, shaxsda boshqaruv layoqati o'zini anglash tuyg'usining uzviy davomidir. Shu ma'noda bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining tabiiy boshqaruv layoqatini Ustoz tomonidan rivojlantirilishi kutilgan samarani beradi. Bunda boshqaruv asoslari bo'yicha treninglar, kuzatuvlar va maxsus topshiriqlarni bajarish kabilar muhim

[12] Қаранг: Раҳимова Д. Менежмент тарихи ва назарияси. – Тошкент, 2020. Ёқубов А. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент, 2016 ва ҳ.к.

o'rin tutadi. Ayniqsa, bu borada talabalarning haftalik amaliyot imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ustoz saboqlari vositasida boshlang'ich ta'lim menejerlarini nazariy, amaliy va mahorat jihatidan mustaqil ta'lim vositasida tayyorlash muhim ahamiyatga egadir.

2. ***Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining o'zlashtirish jarayoni.*** Individual yondashuv texnologiyasi asosida Ustoz saboqlariga binoan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda ularning o'zlashtirish jarayoni muhim o'rin tutadi. Bu jarayonni tashkil etish uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) talabaning individual qiziqishi asosida menejerlik asoslarini taqdim etish;

b) talabaning menejerlik asoslarini o'zlashtirishida yuzaga keladigan murakkabliklarni o'rganib borish;

v) talabaning takliflari asosida o'zlashtirish jarayonining metodikasini muntazam takomillashtirib borish.

Talabaning individual qiziqishi asosida boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslarini taqdim etish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun materiallarni tanlashda eng avvalo boshlang'ich sinf o'quvchilarining imkoniyatlari va boshlang'ich ta'lim muhiti xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Chunki menejerlik san'atida boshlang'ich ta'lim boshqaruvi eng murakkab va sermehnat jarayon hisoblanadi. Bunga sabab o'quvchilarning rivojlanish jarayoni o'zgarib turishi va boshlang'ich ta'limda mo'ljallarning muntazam yangilanib borishidir. Shu sababli Ustoz saboqlari asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining o'zlashtirish jarayonini tashkil etishda ko'proq umumiy o'rta ta'lim maktablari bilan bog'liq holda faoliyatni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada xorijlik pedagoglar ham muntazam ravishda "boshlang'ich ta'lim boshqaruvida yetti o'lchab bir kesishni" tavsiya etib kelishadi. Bularning barchasi bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining o'zlashtirish jarayonini tashkil etishda amaliy ta'lim bosqichi bilan hamkorlikka asoslanish, boshlang'ich ta'limning asos xususiyatlariga tayanish va menejerlikning eng mo'tadil uslublariga asoslanishni



taqozo etadi. Shu sababli bu borada Ustozning ta'lim menejmenti bo'yicha chuqur tajribaga ega bo'lishi taqozo etiladi. Ta'lim menejmenti iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy kabi ta'lim menejmenti turlaridan insonparvarlik tamoyiliga asoslanishi bilan farq qiladi. Shu ma'noda bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining Ustoz saboqlari vositasida menejment asoslarini o'zlashtirish jarayoni muddatli xarakterga tayanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ustoz saboqlari vositasida talabalarning menejerlik asoslarini o'zlashtirish jarayonini tashkil etishda yuzaga keladigan murakkabliklarni o'z vaqtida hal etib borish ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, talabalar menejerlik asoslarini teng ravishda o'zlashtirmaydi, ularning o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lishi mumkin va bunda sabab bo'ladigan sharotlarni o'rganish taqozo etiladi. Shu sababli tajribali menejer Ustoz o'zlashtirish jarayonida duch kelinadigan murakkabliklarni oldindan ko'ra bilish kerak. Buning uchun muntazam ravishda har bir talaba bilan individual shug'ullanib borish taqozo etiladi. Bu borada kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, talabalar ko'p hollarda muayyan sharoit, muhit yoki vaqt ta'sirida menejerlik asoslarini o'zlashtirishda murakkabliklarga duch keladi. Bunday sharoitda har bir talabaga individual topshiriqlar berish vositasi bilan ular duch keladigan murakkabliklarni bartaraf etish mumkin. Ta'lim jarayoni har qanday murakkabliklarni hal etish mumkin bo'lgan hodisa ekanligi tajribali pedagoglarimizga ma'lum. Chunki menejerlik asoslari bo'yicha ta'lim jarayonida ham talaba va ustozning o'zaro hamkorligi har qanday murakkablikning yechimini topish imkonini beradi. Talabalarning o'zlashtirganlik holati bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'lib borish Ustozning asosiy vazifalaridan biri ekanligini eslatib o'tish joiz.

Individual yondashuv texnologiyasi asosida Ustoz saboqlari vositasidan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda talabalarning tashabbuslariga asosan saboqlarni o'zlashtirish metodikasini takomillashtirib borish muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, talabalar o'zlashtirishning muayyan vositasi bo'yicha umumiy fikr bildirishlari va mana shu fikr bildirishning

ma'lumotlariga ko'ra metodikani o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ko'p ustozlar topshiriqlar berish va uning natijalarini baholash metodikasiga ustuvor darajada tayanadi. Menejerlik asoslarini o'zlashtirishda esa metodikaning rang-barngligiga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, boshlang'ich ta'lim jarayoni va uning boshqaruviga oid talabalarning individual fikrlarini o'rganib borish, boshlang'ich ta'limga oid muayyan muammo bo'yicha talabalarning treninglarini tashkil qilish, talabalarning o'zlashtirish jarayonida vaqt omilidan foydalanishini muntazam nazorat qilib borish, menejerlik asoslariga doir turli yondashuvlar hamda metodikalarni qo'llab ko'rish o'zlashtirish jarayoni metodikasini yangilab borish imkonini beradi. Umuman bu jarayonda metodikani amaliyot taqozosi, talabalarning imkoniyatlari va mavjud muhitga mosligi nuqtai nazaridan tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, Ustoz saboqlari vositasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning o'zlashtirish jarayonini tashkil etish va unda amaliy samaradorlikka erishish muhim masalalardan biridir. Bunda ko'proq Ustoz tomonidan tanlangan metodikalar hal qiluvchi vazifani bajarishini ta'kidlash o'tish lozim.

3. ***Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini Ustoz-shogird metodikasiga asosan tayyorlashning amaliy ahamiyati.*** Individual yondashuv texnologiyasi asosida Ustoz-shogird metodikasiga binoan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash muhim amaliy ahamiyatga ega. Bu amaliyotning asosiylarini quyidagilar tashkil etadi:

a) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik ko'lami kengaydi;

b) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini bugungi kun talablari asosida tayyorlash kuchayadi;

v) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun qo'shimcha ta'limning amaliy ahamiyati namoyon bo'ladi.



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy tayyorgarlik ko'lami bugungi kunda kengayib bormoqda. Ular boshlang'ich ta'limni tashkil etish va tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishning nazariy, didaktik hamda metodologik asoslari bo'yicha faoliyatga tayyorlanmoqda. Buning natijasida mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim bosqichi professional boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan ta'minlanmoqda. Ayni paytda, jamiyatimizning hozirgi rivojlanishi va sifatli ta'limga erishish vazifalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda ularni boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslari bilan tanishtirish ham taqozo etilmoqda. Bunda ular boshlang'ich ta'limni tashkil etish, boshqarish, strategik rejalarni ishlab chiqish va boshqaruv samaradorligi bo'yicha menejerlik malakalarini egallashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ular kelgusida sinf rahbari, metodik kengash a'zosi yoki bevosita boshlang'ich ta'lim boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi shaxslar sifatida faoliyat yuritadi. Shu jihatdan Ustoz saboqlari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik ko'lamini boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslari bilan kengaytirish yoki eng iqtidorli taalabalarni boshlang'ich ta'lim menejerlari siqatida tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan maqsad, boshqaruv asosida boshlang'ich ta'limda sifat ko'rsatkichlariga erishishning imkoniyatlarini kengaytirishdir. Shu jihatdan menejerlik bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini yanada kuchaytiruvchi omillardan biri sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limning takomillashib borishi jarayoni asosida tayyorlanmoqda. Chunki boshlang'ich ta'lim jarayonining yangilanib borayotganligi muhim yo'nalishlardan biridir. Shu jihatdan bevosita boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash ishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda Ustoz saboqlari kabi mustaqil ta'lim vositalari imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, moliyaviy jihatdan mo'tadil mexanizmlardan biri hisoblanadi. Shu ma'noda Ustoz saboqlari asosida tashkil etiladigan menejerlik asoslari bo'yicha mustaqil ta'lim jarayoni bevosita

ustozlarning tashabbusi, grantlar yoki homiylarning beg'araz yordamlari asosida tashkil etilishi muhimdir. Bunda oliy pedagogik ta'lim muassasalari tegishli o'quv-texnik jihozlar bilan yordam berishlari ma'lumdir. Faqat bundagi eng muhim masala Ustoz saboqlari kabi mustaqil ta'lim vositasida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash jarayonini yo'lga qo'yishdir. Dastlab bunday ta'limga talabalarning ommaviy ishtirok etilishi nazarda tutilmasligi kerak, ta'lim jarayoni o'z natijasini bera boshlagach bunday saboqlarga talabalar ishtirokining kuchayishi tabiiy ravishda tarkib topadi. Bularning barchasi Ustoz saboqlari asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Menejerlik asoslari bo'yicha Ustoz saboqlari mustaqil ta'limi bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim jarayonida dolzarb bo'lib turgan va amalga oshirilayotgan qo'shimcha ta'lim turiga kiradi. Qo'shimcha ta'lim turlaridan maqsad bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini bugungi kun talablari asosida tarkib toptirishdan iborat va unda mavjud sharoitlarga tayaniladi. Shu jihatdan Ustoz saboqlari vositasida amalga oshiriladigan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash qo'shimcha ta'lim turini rivojlantirish omillaridan biri hisoblanadi. Ustoz saboqlari aynan har bir talabaning qiziqishiga binoan ular bilan individual shug'ullanish asoslariga tayanadi. Bu hol bugungi oliy pedagogik ta'lim jarayonida eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

E'tibor berilsa, Ustoz-shogird metodikasi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash amaliy imkoniyatlardan biridir. Bunday imkoniyatlardan foydalangan holda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining onglilik, kasbiy tayyorlik va amaliyotga yo'naltirilganlik kompetensiyalarini chuqurlashtirish, ularni boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonining asoslari bilan to'liq tanishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda boshlang'ich ta'limning barcha muammolari bo'yicha keng ko'lamli fundamental, ilmiy, nazariy va metodik tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada boshlang'ich ta'lim



menejerligi muammolari bo'yicha maxsus tadqiqot yaratilmaganligi sababali bu o'rinda biz ana shu masalani imkoniyatimiz darajasida tahlil qilib o'tganliginimizni eslatib o'tish lozim.

Shunday qilib bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiyasi asosida tayyorlashning Ustoz-shogird metodikasi amaliyotga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Mazkur masala oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik jihatdan tadqiq etib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

# IV BOB. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli yo'nalishlari

## 4.1. Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli nazariy yo'nalishlari

Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasi muntazam rivojlanib boruvchi tizim hisoblanadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, umuman pedagogik metodikalarning rivojlanib borishi ularning samaradorligini kuchaytiradi. Aksincha, muayyan metodikaning turg'un bo'ib qolishi uning amaliy ko'rsatkichlari va vosita sifatidagi mazmuniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli nazariy yo'nalishlarini belgilab olish bu boradagi metodikaning ahamiyatini kuchaytiradi. Bu o'rinda ana shu masalaning tahliliga e'tiboringizni tortamiz:

1. ***Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning nazariy asoslarini ishlab chiqish.*** Jamiyatining hozirgi innovasion rivojlanish jarayoni va boshlang'ich ta'lim bosqichining takomillashib borish yo'nalishlari boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli nazariy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Chunki istiqbolli nazariy asoslar mazkur ishda manbaviy tayanch vazifasini bajaradi. Shu jihatdan bu borada quyidagilarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi:

a) boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning nazariy tushunchalarini ishlab chiqish;

b) boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning nazariy talablarini shakllantirish;

v) boshlang'ich ta'lim menejerlarining nazariy professiogrammasini yaratish.

Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning nazariy tushunchalarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir. Bunda menejer boshqaruv, boshlang'ich ta'limni boshqarish, boshlang'ich ta'lim ishtirokchilari bilan rahbariy



munosabatlar, boshlang'ich sinf o'quvchilarining boshlang'ich ta'lim boshqaruvida ishtirok etish asoslari va boshlang'ich ta'lim menejerining faoliyat asoslari kabi tushunchalar nazariy jihatdan asoslab berilishi kerak. Chunki bu tushunchalarning nazariy mazmunga ega bo'lishi boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslarini o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilari boshlang'ich ta'lim boshqaruvida qanday ishtirok etadi, - mazmunidagi muammoning nazariy yechimi aniq belgilab qo'yilishi lozim. Bunda bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari boshlang'ich ta'lim boshqaruvi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi, ularning davomat bo'yicha faolligi, ta'lim va tarbiya jarayonini o'zlashtirish ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi hamda iqtidorli o'quvchilarning boshlang'ich ta'lim jarayoniga doir fikrlarini bayon qila olishi muhim nazariy asosdir. Chunki boshlang'ich ta'lim boshqaruvining eng muhim sub'yektlaridan biri bu – o'quvchilardir. Shu sababli mazkur muammoning nazariy yechimlari belgilab qo'yilishi boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Hozirgi zamon menejerlik nazariyasida nazariy talablar muntazam yangilanib va takomillashib borilmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash nazariyasida nazariy talablarni ishlab chiqish va amaliyotga taqdim etish muhim vazifalardan biridir. Mazkur masalada bizning yondashuvimiz bo'yicha boshlang'ich ta'lim menejerlariga qo'yiladigan nazariy talablar tarkibini boshqaruv asoslari bo'yicha pedagogik bilimlar, turli nazariy yondashuvlar va maqbul texnologiyalarni bilish tashkil etadi. Chunki boshqaruv asoslari bo'yicha pedagogik bilimlar sof menejerlik nazariyasidan ta'lim va tarbiyaga yo'naltirilganligi bilan farqlanib turadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslariga doir turli nazariy yondashuvlarni bilish ham zaruriyat hisoblanadi. Bunday yondashuvlarni o'zlashtirishda milliy va xorijiy mamlakatlar ta'lim boshqaruvi tajribalarini uyg'un ravishda o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur nazariy talablar tarkibida maqbul boshqaruv texnologiyalarini egallash ham muhim ahamiyatga ega. Negaki hozirgi zamon texnik va innovasion

rivojlanish sharoitida boshqaruv texnologiyalari ham yangilanib va takomillashib bormoqda, bunda asosiy e'tibor inson omilini boshqaruvdagi ta'sirini susaytiruvchiga qaratilgan raqamli texnologiyalarga o'tishga qaratilmoqda. Bularning barchasi menejerlik nazariyasida qo'yiladigan nazariy talablar majmui tashkil etadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida aynan mana shu masalalarga e'tibor berish muhim ahamiyatga egadir.

Boshlang'ich ta'lim menejerligi nazariyasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining professiogrammasini yaratish eng muhim nazariy masalalardan biri bo'lib turibdi. Professiogramma - bu boshqaruv faoliyati bilan shug'ullanadigan menejerlarga qo'yiladigan kasbiy, ijtimoiy va ahloqiy talablar majmuidir. Aynan mana shunday professiogramma vositasida boshlang'ich ta'lim menejerlari boshqaruv ko'nikmasini egallashadi. Shu ma'noda kasbiy talab bo'lajak menejerlarning boshqaruv madaniyati bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishiga, ijtimoiy talab esa boshlang'ich ta'lim boshqaruvi jarayonida zamonaviy talablarni hisobga olib faoliyat yuritishga va ahloqiy talablar esa boshqaruv etikasiga qat'iy amal qilishga asoslanadi. Aynan kasbiy, ijtimoiy va ahloqiy talablar boshlang'ich ta'lim menejerlarining faoliyat ko'nikmasi, ularning kasbiy qiyofasi va samaradorlikka erishish faoliyati ko'rsatkichlarini namoyon qiluvchi omillardir. Shu sababli bu borada maxsus yondashuvlar aossida ilmiy-nazariy va amaliy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim menejerligi nazariy masalalarini ishlab chiqish keng ko'lamli tadqiqot ishlarini, turli tajriba-sinovlarni o'tkazishni va keng muhokamalar jarayoniga amal qilishni taqozo qiladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, pedagogik ta'lim tajribamizdan kelib chiqib boshlang'ich ta'lim nazariyasi muammolarini ilmiy va amaliy jihatdan hal etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun iqtidorli talabalarni, yetuk mutaxassislarni va tajribali professor-o'qituvchilarni mazkur ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Umuman biz bu masalada maxsus va rejali asosda tadqiqot ishlarini muntazam amalga oshirib borish tarafdorimiz. Chunki buning uchun



mamlakatimiz oliy pedagogik ta'lim muassasalarining ilmiy, texnologik va metodik imkoniyatlari yetarlidir.

2. ***Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning nazariy tadqiqot ko'lamini belgilash.*** Mamalkatimiz Pedagogika fanida boshlang'ich ta'lim menejerligi nazariyasi nisbatan yangi yo'nalish bo'lganligi uchun mazkur masalaning nazariy tadqiqot ko'lamini aniq belgilab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan mazkur masala bo'yicha bizning yondashuvimiz quyidagilardan iborat:

a) ilmiy-tadqiqotlar mavzularini shakllantirish;

b) nazariy tadqiqotlar yo'nalishlarini belgilash;

v) fundamental tadqiqotlar asoslarini ishlab chiqish.

Boshlang'ich ta'lim menejerligi nazariyasida ilmiy-tadqiqotlar mavzularini ishlab chiqish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Bunday mavzularni shakllantirishda ikki tamoyilga asoslanish kutilgan samarani beradi: 1) boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslarining eng muhim muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar mavzularini belgilash; 2) boshlang'ich ta'lim menejerligi nazariyasining amaliy muammolari bo'yicha mavzularni shakllantirish. Bunday yondashuv hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim menejerligini ta'sis etishda muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim menejerligi manbalari, uning nazariy asoslari, bugungi bo'layotgan yangilanishlar va ehtiyojlarning boshlang'ich ta'lim nazariyasida aks etishi, shaxsning individual tajribalaridan foydalanish kabi mavzular eng zamonaviy va dolzarb masalalardan hisoblanadi. Kezi kelganda sheni ta'kidlash lozimki, horijiy mamlakatlarning har birida o'z boshlang'ich ta'lim xususiyatlaridan kelib chiqib, uning muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar mavzulari shakllantiriladi. Demak, bu borada bugungi kun extiyojlari asosida ilmiy tadqiqotlar mavzularini shakllantirish va ularni har o'quv yili yakunida yangilash hamda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'quv yili davomida boshlang'ich ta'lim nazariyasiga doir eng dolzarb muammolarning paydo bo'lishi va ularni tezkor tadqiq etish ehtiyojlari paydo bo'ladi. Shu sababli

boshlang'ich ta'lim menejerligi nazariyasida ilmiy-tadqiqotlar mavzularini muntazam shakllantirib borish tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim nazariyasida nazariy tadqiqotlar yo'nalishlarni belgilash va jamoatchilik muhokamasi asosida ularni qabul qilib, tadqiqotchilarga taqdim qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib turibdi. Bu masalada bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'lim nazariyasida tadqiqotlar yo'nalishi tarkibini menejerlikning pedagogik asoslari, menejerlik metodikasi, menejerlik faoliyati talablari, menejerning individual tajribalarini rivojlantirish omillari kabi yo'nalishlarni belgilash kutilgan samarani beradi. Chunki boshlang'ich ta'lim menejerligida mazkur masalalar bo'yicha mamlakatimizda nazriy ilmiy ishlanmalar amalga oshirilgan emas. Buning asosiy sababi boshlang'ich ta'lim menejerligi nazariyasining tadqiqotchiligi bo'yicha nazariy yo'nalishlari belgilab olinmaganligidadir. Negaki nazariy tadqiqotlar yo'nalishlari mazkur muammo bilan shug'ullanuvchi iqtidorli talabalar, yetuk mutaxassislar va tajribali professor-o'qituvchilarni yo'naltirib buruvchi mayoq hisoblanadi. Aniq yo'nalishlarga ega bo'lgan izlanuvchilar ilmiy tadqiqotlarida bugungi talablarga mos ravishda ilmiy ishlanmalarni yaratadi. Shu jihatdan mazkur masala tajribali mutaxassislarning ishtirokida belgilab olinishi va ularni pedagogik oliy ta'lim muassasasi jarayonida tadqiq etish bosqichlari bo'yicha tavs iyalarni ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim menejerligi nazariyasida fundamental tadqiqotlar yo'nalishlarini ham belgilash muhim amaliy ahamiyatga ega. Fundamental tadqiqotlar – bu muayyan muammoni majmui tarzda, ya'ni ilmiy, nazariy, didaktik, metodik va texnologik jihatdan tadqiq etish jarayonidir. Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim menejerligi nazariyasi bo'yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar yo'nalishi, nazariy tadqiqotlar yo'nalishi, didaktik ishlanmalar yo'nalishi, metodik yondashuvlar yo'nalishi va texnologik yaratmalar yo'nalishi bu boradagi fundamental tadqiqotchilikning muhim tarkiblari sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Eslatib o'tish joizki, fundamental tadqiqotlar o'z yo'nalishlari



xususiyatlaridan kelib chiqib 3 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddatda tadqiq etiladi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra muayyan muammoni hal etish ishlanmasi yaratiladi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim menejerligi nazariyasi bo'yicha fundamental tadqiqotlar yo'nalishlarini hozirgi zamon ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim menejerligi nazariyasida nazariy tadqiqotlar ko'lamini belgilash bugungi va kelgusi mo'ljallarni hisobga olib amalga oshiriladi. Bu tadqiqotlar jarayonlariga keng jamoatchilikning jalb etilishi muhim hususiyatlardan biri hisoblanadi. Shu ma'noda tadqiqot ishlariga ilmiy va amaliy jihatdan munosabatda bo'lish dolzarb bo'lib turibdi.

3. ***Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning nazariy bilimlar majmuini yaratish.*** Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonini rivojlantirib borishning eng asosiy omillaridan biri boshlang'ich ta'lim menejerligi bo'yicha muhim nazariy asoslarni yaratishdir. Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash nazariyasida mazkur masala bo'yicha nazariy bilimlar majmuini yaratish dolzarb bo'lib turibdi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bunday bilimlar tarkibini quyidagilar tashkil etadi:

a) boshlang'ich ta'lim menejerligi manbalari bo'yicha bilimlar majmuini yaratish;

b) boshlang'ich ta'lim menejerligi tajribalari bo'yicha bilimlar majmuini yaratish;

v) boshlang'ich ta'lim menejerligi individual yondashuvlari bo'yicha bilimlar majmuini yaratish.

Boshlang'ich ta'lim menejerligi nazariyasida mazkur masalaning manbalari bo'yicha bilimlar majmuini yaratish dolzarb bo'lib turibdi. Shu jihatdan milliy pedagogik meros, jahon pedagogikasi asarlari va pedagogik olimlarning nazariy tadqiqotlari asosida bilimlar majmui yaratishning asosi hisoblanadi. Bunda mutafakkir pedagoglarimizning asarlari vositasida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning nazariy bilim asoslarini yaratishda maxsus

yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki milliy pedagogik merosimizda ko'p hollarda e'tibor ta'lim oluvchilarning ruhiyatini boshqarishga qaratiladi. Unga ko'ra, bolaning yosh xususiyatlari va manfaatlari hisobga olingan holda uni ishontirish vositasida boshqarish birlamchi hisoblanadi.[13] Bunday yondashuv bolani tabiiy boshqarishga asos bo'ladi, chunki bolaning ruhiyatiga ijobiy ta'sir qilish unda ishonch va intilish tuyg'ularini tarkib toptiradi. Natijada boshlang'ich ta'lim oluvchi bolani boshqarishning o'ziga xos metodikasiga ega bo'linadi. Bunday tajribalardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, jahon pedagog mutafakkirlari tomonidan ham boshlang'ich ta'lim boshqaruviga oid nazariy bilimlar majmui ularning asarlarida ifodalangan. Misol uchun, shvesariyalik mashhur pedagog Iogan Pistalosii "Greuda" (Ta'limga oid eslatmalar) asarida boshlang'ich ta'lim oluvchilarni boshqarishda ularning tuyg'ularini rivojlantirishga e'tibor berishni tavsiya etadi.[14] Chunki bolaning tuyg'usiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uni bilim olami va tarbiya jarayoniga olib kirishning eng muhim omillaridan biridir. Bundan tashqari, pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda boshlang'ich ta'lim jarayonini boshqarishda mavjud me'yoriy hujjatlarga qat'iy asoslanish alohida ta'kidlanadi. Shu jihatdan milliy pedagogik manbalarimiz, xorijlik pedagoglarning asarlari va pedagogik ilmiy-tadqiqotlarga asoslangan holda boshlang'ich ta'lim menejerligi bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirishda o'quvchilarning ruhiyati, tuyg'ulari va manfaatlarini to'g'ri yo'naltirish bo'yicha tavsiyalar tarzida shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday yondashuv boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslarini nazariy bilimlar bilan boyitishning eng muhim omillaridan biridir.

Boshlang'ich ta'lim menejerligi nazariyasining istiqbolli yo'nalishida boshqaruv bo'yicha tajribalar yuzasidan nazariy bilimlarni yaratish dolzarb bo'lib turibdi. Bunda mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim tarixida asrlar davomida rivojlanib kelgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilarini boshqarishning psixologik tajribalari, xorijiy mamlakatlarning mazkur masala bo'yicha ijtimoiy

[13] Misol uchun,qarang:Fitrat A.Rahbari najot.-Toshkent,2005
[14] Педагогические наследие. Сборник. – Москва, 1989



tajribalari va hozirgi zamon boshlang'ich ta'limi jarayoniga oid yangi yondashuvlar bo'yicha bilimlar majmuini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday tajribalar to'g'risida nazariy bilimlarning mavjud bo'lishi boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslarini kuchaytiradi va bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining biluv-axborot ko'nikmalarini kengaytiradi. Mazkur masalalar bo'yicha mamlakatimizda tadqiqotlar ko'lami endi boshlanganligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'lim menejerligining istiqbolli nazariy yo'nalishlaridan mazkur soha bo'yicha individual yondashuvlarga oid nazariy bilimlarni shakllantirish ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda tajribali boshqaruv xodimlarining yondashuvlari pedagogik, psixologik va ijtimoiylik qonuniyatlariga asosan qayta tahlil qilinib qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda menejerlik siyosiy boshqaruv asoslari bo'yicha o'ziga xos individual yondashuvlar mavjud. Ana shunday siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy menejerlik individual yondashuvlari pedagogik yoki psixologik jihatdan qayta ishlanib, boshlang'ich ta'lim menejerligining nazariy asoslariga taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki boshqaruvning pedagogik, psixologik hamda ijtimoiy talablari ta'lim oluvchilarning manfaatlarini ustuvor qo'yish bilan muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy menejerlik yondashuvlarida qat'iyatlilik tamoyilining ustuvor darajada amal qilinishini eslatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslarining istiqbolli nazariy yo'nalishlari keng ko'lamli tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Shu ma'noda mazkur tadqiqotchilik ishlariga "Talabalar akademiyasi" a'zolarini keng jalb etish kutilgan samarani beradi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim menejerligi nazariyasini istiqbolli yo'nalishlari mazkur soha bo'yicha eng muhim asoslarni yaratishni taqozo etadi. Bunday yangi yo'nalishda ilmiy, amaliy va pedagogik tadqiqotchilikni yo'lga qo'yish bugungi kunning eng muhim talablaridan biridir.

## 4.2. Boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli amaliy yo‘nalishlari

Mamalakatimizda boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlash metodikasini asoslarini ishlab chiqishda istiqbolli amaliy yo‘nalishlarni belgilab olish muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda individual yondashuv texnologiyasining xususiyatilaridan kelib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sababli bu o‘rinda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli amaliy yo‘nalishlari tahliliga e’tiboringizni tortamiz:

Mazkur yo‘nalishlarni belgilashda bugungi kun pedagogik talablari, psixologik qonuniyatlari va jamiyatning innovatsion ehtiyojlari hisobga olindi. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko‘ra, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli amaliy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

a) haftalik amaliyot istiqbolli yo‘nalishi;

b) maxsus amaliyot istiqbolli yo‘nalishi;

v) stajirovka amaliyoti maxsus yo‘nalishi.

1. ***Boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashning haftalik amaliyot istiqbolli yo‘nalishi.*** Oliy pedagogik ta’lim jarayoni bugungi kunda 4+2 tizimi asosida amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan talabalarning haftalik amaliyoti davrida ularning menejerlik bo‘yicha ko‘nikmalarini tarkib toptirish va rivojlantirish muhim amaliy istiqbolli yo‘nalishlardan hisoblanadi. Buning uchun talabalar haftalik amaliyot davrida boshlang‘ich ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqaruvi amaliyoti bilan tanishishi, bevosita umumta’lim muassasalari rahbarlari bilan suhbatlashishi va mustaqil ravishda muayyan boshqaruv vazifalarini bajarishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuni ta’kidlash lozimki, mamlakatimizning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim jarayoni umumiy me’yorlar asosida boshqarilsa-da, lekin ularda individual yondashuvlar ham mavjud. Misol uchun, ko‘pchilik umumta’lim maktablarida muayyan o‘qituvchi boshlang‘ich ta’lim uchun mas’ul shaxs sifatida belgilangan va u sinf rahbarlari bilan birgalikda boshlang‘ich ta’lim jarayonini boshqarishda ishtirok etadi. Bo‘lajak boshlang‘ich



sinf o‘qituvchilari ana shu vakil va sinf rahbarlari bilan birgalikda boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi asoslarini o‘rganishi, tegishli ma’lumotlarga ega bo‘lishi va o‘zlarining fikr-mulohazalari bilan ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda haftalik amaliyot davrida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlarini kuzatish va mustaqil dars o‘tish bilan cheklanib qolmoqda. Biroq haftalik amaliyot davrida boshlang‘ich ta’limning barcha jarayonlari bilan tanishish, jumladan, uning boshqaruv asoslari to‘g‘risida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki kelgusida ular bevosita sinf rahbar yoki mas’ul shaxs sifatida boshlang‘ich ta’lim va tarbiya jarayonini boshqarishda ishtirok etadi. Bundan tashqari, haftalik amaliyot davridagi bunday amaliy faoliyat bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim menejerlarining boshqaruv asoslari bo‘yicha o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyot sinovidan o‘tkazish imkoniyatlarini beradi. Shu sababli biz mazkur istiqbolli yo‘nalish imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va muntazam ravishda uning mexanizmlarini takomillashtirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb hisoblaymiz. Boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli amaliyot yo‘nalishlarini belgilashda umumiy o‘rta ta’lim maktablari bilan hamkorlik qilish va talabalarni aniq yo‘naltirish muhimdir. Shu jihatdan bu yo‘nalishni har o‘quv yili boshida yangidan belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2. ***Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlashning maxsus amaliyot istiqbolli yo‘nalishi.*** Oliy pedagogik ta’lim jarayonida kafedralarga ajratilgan qo‘shimcha soatlar hisobidan bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlovchi amaliy va maxsus amaliyotni yo‘lga qo‘yish muhim istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Unga ko‘ra, muayyan muddat asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yoki ta’limni boshqarish davlat tashkilotlarida menejerlik asoslarini o‘rganish bo‘yicha amaliyot o‘tashi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday amaliyot davrida asosiy e’tibor talabalarning me’yoriy hujjatlarni o‘rganish, boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi bo‘yicha tajribali o‘qituvchilar bilan hamkorlik qilish va o‘zlashtirilgan

ma'lumotlar bo'yicha ishlanmalarga yaratishga qaratilishi kutilgan samarani beradi. Misol uchun, bunday tajribadan Rossiya Federasiyasi ta'lim tizimida oqilona foydalanib kelinmoqda. Bu tajribaga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'n kundan kam bo'lmagan muddatda ta'limni boshqarish organlarida amaliyotni o'taydi va o'zlarining boshqaruv bo'yicha bilim hamda ko'nikmalarini tajribadan o'tkazadi. Buning natijasida ko'pchilik bitiruvchi boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim tashkilotlari boshqaruvida mehnat faoliyati boshlash imkoniyatlariga ega bo'lmoqda. Shu ma'noda mamlakatimiz oliy pedagogik ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari Abdulla Avloniy nomidagi Pedagoglarni yangi metodikaga o'qitish markazida kurs o'tashi va amaliyot jarayonida bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli amaliyot yo'nalishlarini to'g'ri belgilash taqozo etiladi. Bunday amaliyotga yo'naltirilayotgan talabalarning boshqaruv ko'nikmalari va malakalarining rivojlanish jarayonini kuzatib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday yondashuv bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda o'ziga xos amaliy imkoniyatlarni berishi bilan diqqatni tortadi.

3. ***Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning stajirovka istiqbolli yo'nalishi***. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda istiqbolli stajirovka yo'nalishi ham muhim ahamiyatga ega. Bunday yo'nalishni beligilashda stajiroka o'tash tashkiloti, uning dasturi, stajirovka rahbarini belgilash va aniq vaqtni ko'rsatish asoslariga tayaniladi. Asosiy maqsad bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat hisoblanadi. Misol uchun, talabalarni muayyan muddatda xalq ta'limi tuman bo'limlarida stajirovka o'tashi amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Bunda talabalar bevosita tuman bo'limlarining faoliyati, ularning boshqaruv asoslari, tegishli ma'lumotlar va xodimlari bilan hamkorlikda ishlash imkoniyatlariga ega bo'lishadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mustaqillikkacha bo'lgan davrda ta'lim tizimimizda stajirovkaning turli shakllari



imkoniyatlaridan oqilona foydalanilgan va buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida boshqaruv asoslari bo'yicha malaka tarkib toptirilgan. Bunday tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki stajirovka talabalarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun keng imkoniyatlarni beradi va ular o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlarni olishi, tahlil qilishi hamda o'z tashabbuslari bilan ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Stajirovka uchun oliy pedagogik ta'lim muassasasidan maxsus rahbar belgilanadi. Rahbar o'ziga biriktirilgan talabalarning stajirovka o'tish jarayonini nazorat qilib boradi va tegishli tartibda ularga maslahatlar beradi. Buning natijasida talabalarda o'ziga xos boshqaruv layoqati tarkib topadi. Shu sababli ilgari stadjirovkaning bunday imkoniyatlaridan oqilona foydalanilganligini eslatib o'tish joiz.

E'tibor berilsa, bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning amaliy mexanizmlari va yo'nalishlari o'ziga xos xususiyatga egadir. Bunday yo'nalishlarni belgilashda tajribali mutaxassislar bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimiz oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy jihatdan har tomonlama tayyorlanmoqda. Ayni paytda, ularning boshqaruv asoslari bo'yicha ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishga asosiy e'tibor qaratish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli bu borada maxsus yondashuvlarni va tadbirlarni ishlab chiqish taqozo etiladi.

Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash va ular asosida talabalarning boshqaruv asoslari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini kutilgan darajada tarkib toptirish dolzarb bo'lib turibdi. Buning uchun mazkur masalalar bo'yicha ilmiy, amaliy va metodik ishlanmalar majmuini yaratish taqozo etiladi.

***

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli nazariy va amaliy yo'nalishlarini belgilash, ular asosida talabalarning menejerlik asoslari bo'yicha malakalarini tarkib toptirish muhimdir. Shu jihatdan mazkur masalaning asosiy jihatlariga e'tibor bering:




*4-rasm. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv asosida tayyorlashning istiqbolli nazariy va amaliy omillari*



## Xulosa

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida barcha sohalar qatorida boshlang'ich ta'lim jarayonini takomillashtirish, uning sifat samardorligiga erishish va bo'lajak boshlang'ich ta'lim pedagoglarini kasbiy tayyorlashda zamonaviy texnologiyalarga amal qilish vazifalari belgilanib, amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan bu jarayonda bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Mazkur masala pedagogik tadqiqotchiligimiz va boshlang'ich ta'lim boshqaruvi uchun yangi yo'nalish bo'lib, uni nazariy, metodik va amaliy jihatdan tadqiq etish taqozo etiladi. Biz mazkur tadqiqotimizda qo'yilgan masala bo'yicha quyidagi xulosalarga keldik:

1. Boshlang'ich ta'lim menejerligi – bu boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish, uni boshqarish va mazkur jarayonning sifatli samaradorligiga erishishdagi faoliyat majmuidir. Boshlang'ich ta'lim menejerini tayyorlash Menejment o'quv fani va Pedagogika predmetlarining uyg'un nazariyasi, didaktikasi, metodikasi hamda texnologiyasiga asoslanishni taqozo etadi.

2. Boshlang'ich ta'lim menejeri mazkur ta'lim bosqichini yakka boshchilik asosida mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda qonunchilikka tayangan asosda boshqaradi. Bunda pedagogik va huquq tamoyillari uyg'unlashtirilib, menejer tomonidan boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonini rivojlantirish bosh maqsad sifatida qabul qilinadi. Bu borada xorijiy mamlakatlar Germaniya, Fransiya, Rossiya va AQSHda o'ziga xos tajribalar mavjud ekanligini eslatib o'tish joiz.

3. Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning asoslari, nazariy masalalari, manbalari va maqsad-muddaolari masalalari keng tadqiq etishni taqozo etadi. Shu sababli mazkur jarayonga talabalarni, jumladan, fakultetlar huzurida faoliyat yuritayotgan Talabalar akademiyasi ishtirokchilarini keng jalb etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning metodik va texnologik mexanizmlari ham ishlab chiqilishi kerak. Buning uchun ilmiy va amaliy

tadqiqotlar ko'lamini yo'lga qo'yish, unda turli grantlar yoki hamkorlik loyihalarining imkoniyatlaridan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega. Mazkur masala bo'yicha biz tomonimizdan individjual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasining bir necha shakllari va mexanizmlari tadqiq etilganligini ta'kidlab o'tish joiz. Bu ishlanma mazkur masala bo'yicha debocha vazifasini bajarishi idrok etilishi kerak.

5. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash uchun majburiy (pedagogik) va tanlov fanlari menejerlik asoslari bo'yicha mavzular bilan boyitilishi hamda amaliy mashg'ulotlar va to'garaklar imkoniyatlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim muassasalarining tajribali professor-o'qituvchilari imkoniyatlaridan foydalanish muhimdir.

6. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida professional Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Chunki professional menejerlar boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish tadbirlarini amalga oshiradi. Natijada boshlang'ich ta'lim boshqaruvida sifat o'zgarishi yuzaga keladi.

7. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashda asosiy e'tiborni amaliy mexanizmlarga qaratish katta ahamiyatga ega. Chunki bunday mexanizmlar talabalarni faollashtiradi, ularning professor-o'qituvchilar bilan hamkorligini kuchaytiradi va mustaqil ishlanmalarini amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini beradi.

8. Individual yondashuv texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli nazariy va amaliy yo'nalishlarini belgilab olish muhimdir. Buning uchun turli yondashuvlar, tadbirlar va mexanizmlarni yangidan ishlab chiqish taqozo etiladi.



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati


1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022
2. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy islohotlar davlat dasturi. // www. lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" davlat dasturi. // www. lex.uz.
4. Abdullina Ye.R. Upravleniya obrazovatelnых organizasii. – Moskva, 2017
5. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. Sankt-Peterburg. 2001
6. Ziyodova T. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. –T.: "O'qituvchi" 2001
7. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovasiya va integrasiya. – Toshkent, 2021
8. Jabborova O. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – Toshkent, 2022
9. Jumanova F., Avazova S., Jobborova G., Xusnetdinov U. Umumiy pedagogika asoslari. – Toshkent, 2020
10. Ёқубов А. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент, 2016 ва х.к.
11. Раҳимова Д. Менежмент тарихи ва назарияси. – Тошкент, 2020.
12. Raximova D. Menejment asoslari. – Toshkent, 2021.
13. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent, 2009. 307-bet
14. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent, 2009. 171-bet.
15. O'zbek pedagogik antologiyasi. – Toshkent, 1993.
16. Qodirova X. Xalq pedagogikasini o'rganish metodikasi. – Toshkent, 2020

# Ilovalar

## 1-ilova. "Innovatsion yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash" maxsus kursining Namunaviy DASTURI

**60110500 – Boshlang'ich ta'lim**

| Umumiy ma'lumotlar | | |
|---|---|---|
| **Fan nomi:** "Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash" | | |
| **Fan kodi:** Ped | **Kredit miqdori:** | **Semestr:** |
| **Kafedra nomi:** | | |
| **Fan o'qituvchisi:** | | |
| **Email:** | | |
| **Fan turi:** | | |
| **Ta'lim shakli:** | Kunduzgi | |
| **Baholash shakli:** | Imtihon | |
| **Fan tili:** | O'zbek | |

**Fanning qisqacha mazmuni**

"Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash" mahsus kursi tanlov fani sifatida "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya", "Umumiy pedagogika" hamda "Pedagogik mahorat" o'quv fanlari negizida fakultativ taszda amalga oshiriladigan tanlov fani bo'lib, u bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining menejerlik asoslari bo'yicha nazariy bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishdan iborat.

**Ta'lim natijalari:**

**Mazkur maxsus kursini tugatgan talabalar:**

- individual yondashuv texnologiyasi mazmuni va maxkur texnologiya asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning nazariy xususiyatlari bo'yicha kasbiy bilim;
- boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiyasi asosida tayyorlashning metodikasi bo'yicha kasbiy kompetensiya;
- o'quv fanlarini o'qitish jarayoni va amaliy mashg'ulotlar jarayonidan boshlang'ich ta'lim menejerligi asoslari mexanizmlari bo'yicha ko'nikma;
- boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli nazariy va amaliy yo'nalishlari bo'yicha malakaga ega bo'ladi.

**Maxsus kurs natijasiga ko'ra ega bo'ladigan kompetensiyalar:**

- o'qituvchi tarbiyaviy faoliyatini amalga oshiradi, qadriyatlarni rivojlantirish va tarbiyaviy ishlarining interfaol, shakllari va usullarini qo'llaydi. (UKK-4.2)
- boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi malaka talablariga asosan bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlari mazkur yo'nalish kompetensiyasining nazariyasi, metodikasi, mexanizmlari va istiqbolli yo'nalishlari bilan qurollantiriladi.

**Fan mazmuni**



| Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) | |
|---|---|
| **1-modul. "Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash nazariyasi"** | |
| **M1** | Individual yondashuv texnologiyasi mazmuni |
| **M2** | Individual yondashuv texnologiya asosida bishlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning nazariy xususiyatlari |
| **2-modul. "Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodologiyasi"** | |
| **M3** | Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiya asosida tayyorlashning maxsus kurs metodikasi |
| **M4** | Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiya asosida tayyorlashning amaliy to'g'rak metodikasi |
| **3-modul. "Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanishning amaliy mexanizmlari"** | |
| **M5** | O'quv fanlarini o'qitish jarayonida foydalanish mexanizmi |
| **M6** | Amaliy mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mexanizmi |
| **Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulot (A)** | |
| **A1** | Individual yondashuv texnologiyasi bo'yicha suhbat |
| **A2** | Individual yondashuv texnologiya asosida bishlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning nazariy xususiyatlari bo'yicha trening |
| **A3** | Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiyasi asosida tayyorlashning maxsus kurs metodikasi bo'yicha talabalarning mustaqil ishlanmalarini tashkil etish va uning taqdimoti |
| **A4** | Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiyasi asosida tayyorlashning amaliy to'g'rak metodikasi bo'yicha mutaxassislar ishtirokida baxs-munozara o'tkazish |
| **A5** | O'quv fanlarini o'qitish jarayonida foydalanish mexanizmlari bo'yicha yozma ish |
| **A6** | Amaliy mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mexanizmlari bo'yicha laboratoriya ishi bajarish |

| Mashg'ulot turi | Ajratilgan soat |
|---|---|
| Ma'ruza | 12 |
| Amaliy mashg'ulot | 12 |


| Asosiy adabiyotlar (namuna) | |
|---|---|
| 1. | O'zbekiston Respublikasi "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" davlat dasturi. // www. lex.uz. |
| 2. | Raximova D. Menejment asoslari. – Toshkent, 2021 |
| 3. | Ziyodova T. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. –T.: "O'qituvchi" 2001 |
| **Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar** | |
| 1. | O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // www. Ziyonet.uz |
| 2. | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyundagi 422-sonli "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga |

| | |
|---|---|
| | joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // www. Ziyonet.uz |
| 3. | Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. 29 b. |
| 4. | Mirziyoev Sh.M. Qonunustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b. |
| 5. | Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b. |
| 6. | Mirziyoev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning asosiy poydevoridir. –Toshkent, 2021 |
| 7. | Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. Sankt-Peterburg. 2001 |
| 8. | Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovasiya va integrasiya. – Toshkent, 2021 |
| 9. | Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent, 2009. 307-bet |

**Internet manzillari**

1. www.pedagog.uz
2. www.edu.uz
3. http://ziyonet.uz
4. www.tdpu.uz


**2-ilova. "Innovatsion yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash" maxsus kursi dasturi mavzularini o'zlashtirishning zamonaviy**

**METODLARI**

***1-metod. BBB texnologiyasi***

"Bilaman. Bildim. Bilmoqchiman" (BBB) grafik organayzeri (GO). U talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay oliy imkonini beradi. Uni qo'llashda talabalar guruh yoki jamoada ishlatishlari mumkin.

Guruhda ishlashda mashg'ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Guruhlar faoliyati quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:

- har bir guruh umumiy sxema asosida bandlar bo'yicha topshiriqlarni bajaradi;



- guruhlar umumiy sxemaning alohida tomonidan berilgan mashg'ulot yakunida loyiha bandlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni guruhlarning munosabatini umumlashtiradi.

O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

| Bilaman | Bildim | Bilmoqchiman |
|---|---|---|
| | | |

U uch bosqichda o'rganiladi:

- o'quvchilarning o'rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi;
- o'quvchilarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi;
- o'quvchilar mavzuga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishtiriladi.

***2-metod. Bahs-munozara metodi***

Muayyan mavzulardan biri bo'yicha o'quvchilar ishtirokida muhokamani tashkil etish imkonini berib, ulardan ko'proq sinfdan tashqarida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Muhokama jarayonida o'quvchilar qo'yilgan muammo yuzasidan shaxsiy qarashlarini ifoda eta olishlari zarur bo'ladi. Debatda o'quvchilar guruhli yoki individual shaklda baxsga kiritishlari mumkin va unda bir-biriga zid, qarama-qarshi fikrlarning bildirilishi tabiiy sanaladi.

Ta'lim jarayonida debatlardan foydalanishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda bahs-munozara yuritish layoqatini shakllantirish, shuningdek, ularning shaxsiy fikrlarini mustaqil, erkin bayon etish, o'z fikrini himoyalash asoslash, muayyan holatlarga muvofiq aniq hodisalarga kelish ko'nikmalarini tarbiyalashdan iboratdir. Tarbiyaviy mashg'ulotlarda debatlardan foydalanish

o'quvchilarni faol muloqotga jalb etish bilan birga ularning og'zaki nutqlarini o'zlashtirishga ham yordam beradi.

Debatlar ham ma'lum shartlarga amal qilingandagina kutilgan ta'limiy natijani beradi. Ya'ni:

- o'quvchilar belgilangan vaqtdagina gapirish imkoniga ega bo'ladilar;
- bir o'quvchi so'zlayotganda qolganlar uni diqqat bilan eshitishlari, fikrini bo'lmasliklarimaqsadga muvofiqdir, zero, ana shundagina sinf (auditoriya)da ortiqcha shovqin yuzaga kelishining oldi olinadi va bildirilgan fikr boshqalar tomonidan to'g'ri qabul qilinadi;
- so'zlayotgan o'quvchi "raqib" guruh yoki o'quvchiga qarab emas, balki o'qituvchi yoki umuman barcha o'quvchilarga qarab fikrlarnini bayon etishi lozim.

Debatda imkon qadar o'quvchilarning xohish istaklari va ehtiyojlaridan kelib chiqgan holda mavzuni tanlash va savollarni tuzish pedagogik jihatdan samarali bo'ladi. Bahs-munozaralar uchun quyidagi savollarni o'rtaga tashlash mumkin:

Debatda ishtirok etish natijasida tinglovchilarda muammoni aniqlash va ajrtish qobiliyati, dalillar va fikrlarni aniqlash mahorati, tanqidiy fikr yuritish, muhim bo'lgan ma'lumotni muhim bo'lsagan ma'lumotdan ajratish, sabab va uning bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlariga baho berish, hulosa chiqarish, muammolarni ajratish va samarali yechim topish malakalari, o'zining fikr yuritishiga, tafakkur jarayoniga baho berish ko'nikmalari, jamoada ishlash qobiliyati, nutq so'zlash madaniyati shakllanadi.

Ushbu usulda dars jarayonida "O'zlikni anglash", "Ajdodlarga munosib voris bo'laylik" kabi mavzular mohiyatini o'zlashtirishda, mustahkamlash darslari jarayonida qo'llash mumkin.

### *3-metod. "Tushunchalar tahlili" metodi*

Ushbu metod o'tilgan o'quv predmeti yoki bo'limning barcha mavzularini talabalar tomonidan yodga olish, biror mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda izoh berishda, shu orqali o'z bilimlarini



tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o'qituvchi tomonidan qichqa vaqt ichida barcha o'quvchilarni baholay olishga yo'naltirilgan.

Metodning maqsadi – talabalarni mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olganlik darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholash, yakka va guruhda ishlash, guruhdoshlari fikrini hurmat qilishga va o'z bilimlarini tizimga solishga o'rgatadi.

### *4-metod. "Menga yoqqan xulosa, chunki...." metodi*

Talabalarga topshiriq beriladi:

Bir daqiqa ichida doskadagi beshta ish qog'ozida yozilgan xulosalaridan birini tanlang va asoslang.

O'qituvchi birinchi ish qog'ozini tanlanganligi sabab, berilgan ovoz sonini shu qog'oz ustiga yozadi. Shu tariqa har bir xulosaga berilgan ovozlar soni aniqlanib, raqamlari yoziladi. Natijada g'olib xulosa aniqlanadi. G'olib deb topilgan zanjirli xulosani tanlagan talabalardan fikrlari so'raladi. Talaba "Men bu xulosani tanladim, chukni unda milliy qadriyatning...., ....., ....., berilgan (keltirilgan, ochib berilgan)".

Ta'limning muhim elementi – bilimlarning mustahkamligi tamoyili.

Yoshlikda samarali amalga oshishini: "Yoshlikda o'rgangan ilm, toshga o'yilgan naqsh kabidir" misolida bayon qilinadi

### *5-metod. FSMU metodi*

Bu metod mazmuni quyidagicha:

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring.

### *6-metod. "Birgalikda o'qiymiz" metodi*

Birgalikda o'qish: guruh kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir kichik guruh o'rganilayotgan mavzuning ma'lum bir sohasida ekspert bo'ladi va boshqalarni

o'rgatadi.Har bir guruhning maqsadi boshqa barcha guruhlar ishtirokchilari mavzu savollarini to'la hajmda egallab olishdan iborat.

"Birgalikda o'qiymiz" texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi.

Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo'lgan har xil turdagi guruhlar tuziladi. Har bir guruhga bitta topshiriq beriladi - umumiy mavzuning bir qismi, uning ustida butun o'quv guruhi ish olib boradi hmda tayanchlar – ekspert varaqlari taqdim etiladi.

Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.

Hamma yakka tartibdagi topshiriqni bajaradi.

Barcha guruh a'zolarining mini-ma'ruzalari tinglanadi. Umumiy natija (butun ekspert varog'i bo'yicha savollar javobi)ni shakllantiradi va uni taqdimotga tayyorlashadi.

Spiker yoki guruh barcha a'zolari birgalikda bajargan ish natijalarini taqdimot etishadi. Guruhlarda ishlash qoidasi "sherigingizni diqqat bilan tinglang".

Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondoshing. Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling.

Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta yordam bering.

Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.

Aniq tushunmog'imiz lozim:

Boshqalarga o'rgtish orqali o'zimiz o'rganamiz.

Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib ketamiz.

### *7-metod. "Brifing metodi"*

"Brifing" – (inglizcha briefing - qisqa) biror bir masala yoki savolning muhokamasiga bag'ishlangan qisqa press-konferensiya.

O'tkazish bosqichlari:

Taqdimot qismi.

Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida)



Brefinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, amaliy o'yinlarning bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga dolzarb mavzu yoki muammo muhokamasiga bag'ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo'ladi. Tinglovchilar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan mobil ilovalarning taqdimotini o'tkazishda ham foydalanish mumkin.

### *8-metod. "Insert" metodi*

| | | | |
|---|---|---|---|
| "V" – tanish ma'lumot | | | |
| "?" - mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak | | | |
| "+" - bu ma'lumot men uchun yangilik | | | |
| "-" - bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman | | | |

### *9-metod. "Keys-stadi" metodi*

"Keys-stadi" – inglizcha so'z bo'lib, ("case" – aniq vaziyat, hodisa, "stadi" – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida taxlil uchun foydalanish mumkin. Keys xarakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (who), qachon (when), qayerda (where), nima uchun (whu), qanday, qanaqa (how), nima-natija (what).

### *10-metod. Blits – o'yin metodi.*

O'yinni o'tkazish tartibi:

tinglovchilarga jadvalning chap tomonida berilgan tushunchalar bilan tanishib chiqish taklif etiladi;

dastlab individual ravishda tushunchalarga mos javobni o'ng tomondagi fikrlar orasidan tanlab, tartiblangan raqamini "indiv.javob" ustuniga (masalan, 1 raqamli tushunchaga 10 raqamdagi javob) yozish so'raladi;

so'ngra xuddi shunday tartibdagi ish kichik guruhlarda amalga oshiriladi.

Ya'ni "guruh javobi" ustuni to'ldiriladi. Kichik guruh a'zolarida mazkur ustunga yozish uchun yagona javob bo'lishi lozim;

O'qituvchi to'g'ri javoblarni o'qiydi. Tinglovchilar o'zlariga berilgan qog'ozning "kalit" ustuniga javoblarni yozib chiqishadi.

Tinglovchilar mustaqil ravishda kalitga asoslanib, "individual xato" va "guruh xatosi" ustunlarini to'ldiradi, har bir tinglovchining va kichik guruh natijalari tahlil etiladi.

### *11-metod. "O'n daqiqalik esse" metodi*

Esse – bu muallifning individual nuqtai nazarini ifoda etish shakli bo'lib, biror narsa-hodisa yoki jarayon haqidagi umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o'z ichiga oladi.

Taklif etilgan mavzuga doir so'zlar hajmi 500 tadan 1000 tagacha bo'lishi mumkin.

O'zingiz havas qilgan, siz uchun ideal bo'lgan ustozlaringizdan biri misolida orzuingizdagi pedagog timsolini gavdalantiring.

### *12-metod. "Tushunchalar asosida matn tuzish" metodi*

"Tushunchalar asosida matn tuzish" metodi bilish-izlanish turidagi mustaqil ishlar sirasiga kirib, bu ish turli xil mantiqiy amalllarni talab etadi: tahlil qilish va tomonlarni aniqlash, asosiy ikkinchi darajali belgilarni ajratish,sabab-oqibat aloqalarni ochib berish va hokazo. Odatda tinglovchilar noma'lum hodisalar,yangi materiallarga duch keladilar,yangi bilimlarni egallash va o'quv muammosini hal qilish yo'llarini izlab topishni talab etadigan muammoli vaziyat paydo boladi.

Mazkur metodni qo'llash texnologiyasi:

Masalan,"O'qituvchi faoliyatida pedagogik takt"mavzusi bo'yicha:

Takt, taktika, pedagogik taktika, pozitsiya, "yuqoridan pastga", "pastdan yuqoriga", "yonma-yon", aralashmaslik; nizo, pedagogik nizo, turlari, nizoli vaziyat, konfliktogen, odob, etika, axloqiy sifatlar, pedagogik odob, pedagogik deontologiya.



### *13-metod. "T-chizma"metodi*

T-chizma munozara vaqtida qo'shaloq javoblar (ha,yo'q,tarafdor,qarshi)yoki taqqoslash-zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi. Masalan"Pedagogik nizolar"matnini "tarafdor va qarshi" tamoyiliga asoslanib tuzilganidan so'ng,bir juf tinglovchi quyida keltirilganidek,T-chizmani tuzish va besh daqiqadan keyin,chizmaning chap tomonida pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablarni yozishi mumkin.So'ngra besh daqiqa mobaynida ular bu fikrga iloji boricha ko'p sababni keltirishlari kerak.Ana shu vaqt oxirida ular yana besh daqiqa mobaynida o'z T-chizmalarni boshqa juftlik chizmalari bilan taqqoslashlari mumkin.

### *14-metod. "Charxpalak metodi".*

1.Talabalar guruhlarga bo'linadi;2.Guruhlarga topshiriq beriladi.5 daqiqa davomida berilgan ish qog'oziga mavzuga(shu qog'ozning o'ziga yozilgan) oid fikirlaringizni yozing.Guruhlarga mavzu bo'yicha savollar beriladi.

3.Topshiriq bajarilgandan so'ng soat strelkasi bo'yicha guruhlar ish qog'ozini almashadilar.Har bir guruh qo'liga kelgan ish qog'ozdagilarni 5 daqiqa davomida o'qib o'rganadi va qo'shimchalar qo'shadi.

4. Shu tariqa 5 ta ish qog'ozi har bir guruhda qo'shimchalar qo'shilgan holda aylantiriladi.

Har bir guruhning ish qog'ozi o'ziga qaytib keladi. Guruh o'z ish qog'oziga qo'shimcha yozilgan ma'lumotlarni o'rganadi va "qo'shilaman","qo'shilmayman" belgilarni qo'yib chiqishadi.Har bir guruh o'z ish qog'ozini taqdimot qiladi.

### *15-metod. "Tushunchalar tahlili"metodi*

| Tushunchalar | Mazmuni |
|---|---|
| Go'zallik | |
| O'simlik dunyosiga bo'lgan munosobat | |
| Tabiat go'zalligi | |
| Inson go'zalligi | |
| Insonlarning o'zaro munosobat | |

| | |
|---|---|
| madaniyati | |
| Ekologiya | |
| Sog'lom turmush tarzi | |
| Masal | |
| Askiya,lof | |
| Ertak | |

### *16-metod. "Zanjirli xulosa texnologiyasi"*

Guruhlarda ish davom etadi. Har bir guruhga ish qog'ozlari tarqatiladi.Guruhlarga topshiriq beriladi:

- ish qog'oziga na'munaga qarab zanjir xalqalarini chizing;
- zanjir xalqalariga yoshlar tarbiyasida milliy-ma'naviy qadriyatlardan foydalanishga oid xulosalaringizni yozing.
- Har bir guruh o'z xulosalarini namoyish qiladilar.

### *17- metod. Assesment metodi.*

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash,nazorat qilish,o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan.Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar(test,amaliy ko'nikmlar,muammoli vaziyatlar mashqlar, qiyosiy tahlil simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

"Assesmet'' metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda,yangi ma'lumotlarni bayon qilishda,seminar amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash,shuningdek o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavfsiya etiladi.Shuningdek,o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

**Onaxon Jabborova**

**INDIVIDUAL YONDASHUV TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BOSHLANG'ICh TA'LIM MENEJERLARINI TAYYORLASH METODIKASI**

(MONOGRAFIYA)

Muharrir: X. Taxirov
Tehnik muharrir: S. Melikuziva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A.Ziyamuhamedov

**Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й**

Bichimi 60x84$^{1}/_{16.}$ "Times new roman" garniturasi, kegli 14.

Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i. Adadi 100 dona.

Buyurtma № 90

**Zebo prints MCHJda chop etildi.**

Manzil: Toshkent shahar, Yashnobod tumani,

22-harbiy shaharcha